

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI  
AKADEMIYASI**



**AXMEDOVA SABRINA SHUXRAT QIZI**

**JINOYAT ISHIDA AYBGA IQRORLIK BO'YICHA KELISHUV  
INSTITUTINI QO'LLASH SAMARADORLIGI: MILLIY VA XORIJUY  
TAJRIBA**

**Prokuratorlik faoliyati**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: M.Z.Rajapova**

**Toshkent-2022**

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH.....</b>	<b>3-9</b>
<b>I BOB. «AYBGA IQRORLIK TO‘G‘RISIDA KELISHUV» HUQUQ INSTITUTINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI</b>	
1.1. “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” institutining genezisi va tushunchasi.....	10-22
1.2. Milliy qonunchilikka “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” institutini implementatsiya qilinganligining zarurati.....	23-29
<b>II BOB. «AYBGA IQRORLIK TO‘G‘RISIDA KELISHUV» INSTITUTI TARAFLARINING VA SUDNING VAKOLATLARI</b>	
2.1. “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”ni tuzish jarayonida prokurorning roli.....	30-42
2.2. “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”ni tuzish jarayonida himoyachining roli.....	40-43
2.3. “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”ni ko‘rib chiqishda sudning vakolatlari.....	44-48
<b>III BOB. «AYBGA IQRORLIK TO‘G‘RISIDA KELISHUV» INSTITUTINI QO‘LLASHDA AYRIM XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA ISTIQBOLI</b>	
3.1. AQSH sud tajribasida “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” huquqiy institutining ahamiyati va roli.....	49-56
3.2. “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” instituti Fransiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Italiya sud amaliyotidagi o‘rni.....	57-76
3.3. Milliy qonunchilikdagi “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” institutini yanada takomillashtirish masalalari.....	77-80
<b>XULOSA VA TAVSIYALAR.....</b>	<b>77-79</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>80-84</b>
<b>ILovalar.....</b>	<b>85-109</b>

Jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyilini qaror toptirish borasidagi asosiy vazifamiz – bu adolatli qonunlar qabul qilishdan dalolat. Qisqacha aytganda, qonun adolatli bo’lsa, u inson huquqlarini amalda himoya qilsa, shundagina odamlar qonunni hurmat qiladi.

**O’zbekiston Respublikasi Prezidenti**  
**Sh.Mirziyoyev**

## **KIRISH**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda shaxsning huquq va erkinliklarini ta’minalash dunyo hamjamiyatida turgan eng muhim masalalardan biridir. Shu asnoda jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta’minalaydigan mexanizmlarning takomillashtirilishi alohida ahamiyatga ega. Jinoyat-protsessual va boshqa qonunchilikka borgan sari ko’proq tatbiq etilayotgan hamda o’zining ijobiy natijasini ko’rsatayotgan liberallashtirish bugungi kunda yanada dolzarb masalalarni ko’tarishni taqozo etmoqda, chunki qonun inson qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy talab huquqiy demokratik davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning shartlaridan biridir. Jinoyat protsessida aybga iqrorlik bo‘yicha kelishuv ana shunday zaruriy instittlardan biri hisoblanadi. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligi sohasida qilinishi kerak bo‘lgan islohotlar rejasi “O’zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiysi”da o‘rin egalladi. Ushbu Konsepsiya jinoyat protsessining yangi shakl va tartib-taomillarini joriy etish masalalari haqida fikr yuritilib, sudga qadar va sud bosqichida soddalashtirilgan ish yuritish tartib-tamoyillarini yanada rivojlantirish, sud-tergov harakatlarining innovatsion shakllari va uslublarini joriy etish bo‘yicha ko’rsatmalar berildi. Shu bilan birga ushbu Konsepsiyanadan milliy xususiyatlar va sharoitlarni e’tiborga olgan

holda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikka ilg‘or xorijiy tajribani implementatsiya qilish kabi islohotlar natijasi ham kutilayotgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sod Farmonining 1-Ilovasi bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish maqsadini belgilab berdi. Bugungi kunda qonunchiligimiz uchun yangi yo‘nalishlardan biri bo‘lgan aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv institutini chuqur o‘rganish va uni yanada takomillashtirish huquqshunoslar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Haqiqattan ham, sud, tergov, prokuratura organlarida ish hajmi salmog‘i soddalashtirilgan ish yuritish tartib-tamoyillarini yanada rivojlantirishga juda muhtoj. Konsepsiyada o‘rin olgan islohotlar amalda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagagi “Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 675-tonli Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodeksiga xorij amaliyotida keng qo‘llaniladigan “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” instituti joriy qilinishi bilan o‘z tasdig‘ini topdi. Mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligi tarixida mutlaqo yangi bo‘lgan, shu bilan birga dunyoning ilg‘or mamlakatlarida keng ko‘lamda qo‘llaniladigan ushbu institutning milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishidan ko‘zlangan maqsad sud bosqichida soddalashtirilgan ish yuritish tartib-tamoyillarini yanada rivojlantirish, sud-tergov harakatlarining innovatsion shakllari va uslublarini joriy etish edi. Jinoyat-protsessual qonunchiligimiz uchun aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv mutlaqo yangi institut bo‘lganligi sababli mazkur masala yuzasidan xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va milliy xususiyatlarimizni hisobga olib, amaldagi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Qayd etish joizki, aybga iqrorlik – jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari bilan guman qilinuvchi va ayblanuvchi o‘rtasida qo‘yilgan ayblov

bo‘yicha kelishish yo‘li bilan tayinlanishi lozim bo‘lgan vositadir. Xorijiy davlatlar jinoyat protsessida o‘z aybini tan olish bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv instituti uzviy bog‘liqdir. Xususan, bu institut AQSH jinoyat protsessining tarkibiy qismi bo‘lib, amalda 150 yildan ortiq vaqt mobaynida qo‘llanilib kelmoqda<sup>1</sup>. O‘z navbatida AQSH odil sudlov tajribasida ushbu institutning keng ko‘lamda va uzoq vaqt amalda bo‘lganligiga qaramasdan, ayblanuvchining aybi to‘la, har tomonlama, xolisona, isbotlangan bo‘lishi kelishuv tuzishning zaruriy shartidir. Yangi institutning milliy qonunchiligidan etilganligi ko‘pgina ijobjiy natijalarini keltirib chiqaradi. Xususan, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv instituti jinoyat-sudlov ishlarini yuritish jarayonini sezilarli darajada qisqartirishga olib keladi, shubhasiz, jinoyat protsessi ishtirokchilarining vaqt, mablag‘i tejalishiga, jamiyatda nizolarning sonini kamaytiradigan odil sudlov rivojlanishiga olib keladi<sup>2</sup>. Shuni ta’kidlash joizki, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvning jinoyat protsessual qonunchilikka olib kirilganligining bir qancha ijobjiy jihatlari mavjud:

**birinchidan**, jinoyat protsessi ishtirokchilarini, ayniqla, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining o‘z taqdiriga befarq bo‘lmashdan, jinoiy qilmishiga o‘ta pushaymon bo‘lib, keltirgan zararini o‘z vaqtida qoplab, belgilangan jazoni o‘tashga tayyorligini qonuniy tan olishi uchun sharoit yaratib beriladi;

**ikkinchidan**, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir, chunki jazo tayinlash va uni ta’minalashdan ko‘zlangan asosiy maqsad mahkumni jamiyatga munosib qilib tarbiyalashdan iborat;

**uchinchidan**, birinchi va yuqori instansiya sndlari o‘z isbotini allaqachon topgan jinoyat ishi yuzasidan ortiqcha vaqt va sarf-xarajatdan qutuladilar, ayblanuvchi esa ortiqcha san-solorlikdan tashqari, qilmish uchun ancha yengil jazo tayinlanishiga erishadi.

---

<sup>1</sup> Миразов Д.М. Судебный контроль осуществлением процесса сделки о признание вины. // Айбига икрорлик тўғрисидаги битим институти хусусиятлари: халқаро тажриба. – Тошкент NAFIS BEZAK, 2011. – С. 76.; Crime and Justice in American 1975-2025. The University of Chicago Press. Issue Stable URL:<http://www.jstor.org/stable/10.1086/670391>

<sup>2</sup> Бекматова Д., Иноғомжонова З.Ф. Жиноят процессида айбга икрорлик битими. //Давлат ва ҳукуқ №3. 2005.-Б.41-42.

**Tadqiqotning obyekti jinoyat ishida** aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni tuzishdagi jinoyat protsessi ishtirokchilari o‘rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti.** Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish tartibini huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy malakatlari qonunchiligi va amaliyoti hamda ilmiy-nazariy qarashlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi jinoyat-protsessual qonunchiligidagi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutining milliy qonunchilikdagi tartibini o‘rganib chiqib, ularni xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, ular yuzasidan kelib chiqqan savollarga javob qidirish, soha ilm-fani rivoji va qonunlar takomillashishiga hissa qo‘shishdir. Ushbu maqsad tadqiqotning:

- aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;
- aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv bo‘yicha ishlarni jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda ko‘rib chiqilish tartibini milliy qonunchiligidan orqali amaliyotga hamohang tarzda tahlil qilish;
- AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya davlatlari qonunchiligidagi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvning o‘ziga xos jihatlarini yoritish;
- aybga iqrorlik bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqishda mavjud muammolarni yoritish;
- aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv borasida xorij amaliyoti va qonunlarini o‘rganish va milliy qonuchilik bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;
- aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni tartibga soluvchi qonunchilikni yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va xulosalarni ishlab chiqish vazifalarini belgilab beradi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** shunda iboratki, mazkur tadqiqot ishi milliy qonunchilikka mutlaqo yangi kiritilgan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv doirasini to‘liq qamrab olgan holda jinoiy-protsessual huquqiy jihatdan tahlil qiluvchi,

shuningdek, ushbu sohadagi milliy qonunchilikni xorijiy tajriba bilan bevosita taqqoslash masalalariga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyida keltirilgan xususiyatlar bilan ham belgilanishini ham ko‘rishimiz mumkin:

**birinchidan**, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tushunchalariga aniq ta’riflar shakllantirildi;

**ikkinchidan**, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvning milliy qonunchilikka imlplementatsiya qilinishining zarurati batafsil yoritildi;

**uchinchidan**, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutining milliy va xorijiy qonunchilik uchun ijobjiy va salbiy jihatlari tahlil qilindi;

**to‘rtinchidan**, aybga iqrorlik bo‘yicha kelishuvda prokuror, himoyachining ahamiyati va sudning vakolatlari chuqur tahlil etildi;

**beshinchidan**, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv bir qancha yetakchi xorijiy tajriba misolida o‘rganish natijasida jinoyat-protsessual qonunchiligidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish va sohani yanada takomillashtirish bo‘yicha bir necha takliflar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar tahlili.** Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutining ayrim jihatlarini xorijiy olimlardan I.R.Valshina<sup>3</sup>, A.A.Ivanov<sup>4</sup>, Y.V.Kuvaldin<sup>5</sup>, A.R.Ratinov, R.D.Raxunov, A.V.Savkin, M.S.Strogovich, S.P.Sherba va boshqalar o‘rganganlar. Bundan tashqari rossiyalik olimlardan Y.N.Belozerov, A.V.Biryukov, V.N.Grigoryev, V.K.Kolomeyts, K.V.Muravyov, F.T.Fatkullin, N.V.Yadjinlar, I.N.Glazunova<sup>6</sup>, T.V.Kuxaruk<sup>7</sup>,

---

<sup>3</sup> Вальшина И.Р. История развития упрощенного производства в отечественном уголовном процессе//Журнал «Актуальные проблемы российского права». № 2/2015.

<sup>4</sup> Иванов. А.А. Правовое регулирование института сделок о признании вины в США//Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2012, № 2 (1).

<sup>5</sup> Кувалдина Ю.В. Предпосылки и перспективы развития компромиссных способов разрешения уголовно-правовых конфликтов в России. Диссер. ...канд. юрид. наук. Самара: СамГУ, 2011.

<sup>6</sup> Глазунова И.Н. Влияние римского права на становление и развитие англосаксонской и континентальной правовой систем современности. Процессуальный аспект: Дис.... канд. юр. наук. Ставрополь, 1999.

<sup>7</sup> Кухарук Т.В. правовая система и систематика законодательства: Дис. ... канд. юр. наук. СПб, 1998.

V.L.Perunova<sup>8</sup>, S.S.Ponomarenko<sup>9</sup>, M.V.Salnikov<sup>10</sup>, S.D.Shestakova<sup>11</sup>, I.V.Petelina<sup>12</sup>, I.V.Skasirkiy , D.R. Shafeyev.

Shuningdek, ushbu mavzu o‘zbek olimlarimizdan D.B.Bazarova, U.A.To‘xtasheva<sup>13</sup>, D.Qalandarova<sup>14</sup>., D.J.Nurumov<sup>15</sup>, B.I.Ismailova, S.M.Raxmonova, S.M.Sahaddinov, F.T.Malikovlarning dissertatsiya, ilmiy maqola va monografiyalarida aks etgan.

Tadqiqotning mohiyatini ilg‘or xorij tajriba asosida tushunish maqsadida M.V.Yarova<sup>16</sup>, O.A.Lvova<sup>17</sup>, N.Y.Popova<sup>18</sup>ning tadqiqot ishlari ham o‘rganib chiqildi. Tadqiqot dissertatsiyasiga tizimli va obyektiv xarakter berish maqsadida V.V.Dyakonova<sup>19</sup>, Bochkaryova<sup>20</sup>, N.P.Dubovik<sup>21</sup>, D.Y.Lyubishkina<sup>22</sup>, K.A.Ribalova<sup>23</sup>, A.I.Shmaryovalar<sup>24</sup> kabi protsessualist olimlarning tadqiqot ishlari ham o‘rganib chiqildi. Shuningdek, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv mavzusida

---

<sup>8</sup>Перунова В.Л. Теоретико-методологические и сущностные аспекты современной правовой системы России: Дис.... канд. юр. наук. Тамбов, 2005.

<sup>9</sup> Пономаренко С.С. Диспозитивные начала в российском уголовном судопроизволстве: Дис. ... канд. юр. наук. Оренбург, 2002.

<sup>10</sup>Сальников М. В. Генезис и эволюция политico-правовой традиции;Дис. ... канд. юр. наук. СПб, 2005.

<sup>11</sup>Шестакова С. Д. Генезис метода российского уголовно-процессуального права в условиях конвергенции и дивергенции англосаксонской и континентальной правовых систем: Дис.... д-ра. юр. наук. СПб, 2004.

<sup>12</sup>Петелина И. В. Теоретические проблемы российской правовой системы: Дис. ... канд. юр. наук. Саратов, 1996.

<sup>13</sup> Тухташева У.А., Базарова Д.Б. Упрощенное судопроизводство как форма обеспечения эффективности судебной деятельности по уголовным делам: Информационно-аналитический материал в форме брошюры. Т. : Издательство ТГЮУ, 2016.

<sup>14</sup> Каландаров Д.Б. Национальное законодательство и зарубежный опыт в сфере упрощения уголовного судопроизводства. Статья. Т.2014./minjust.uz

<sup>15</sup> Нурумов Д.Д. Айбига икрорлик тўғрисидаги битим институтини миллий конунчиликка тадбиқ этиш масалалари. Магистрлик диссертацияси. Тошкент. 2014 й.

<sup>16</sup>Яровая М. В. Современные судебные системы европейских государств: Дис.... канд. юр. наук. М., 2006.

<sup>17</sup>Львова О. А. Трансформация правовой системы России в период глобализации (вопросы теории и практики): Дис.... канд. юр. наук. Ульяновск, 2003.

<sup>18</sup>Попов Н. Ю. Правовая система Италии: Дис.... канд. юр. наук. М., 1984.

<sup>19</sup>Дьяконова В. В. Особый порядок судебного разбирательства в уголовном судопроизводстве Российской Федерации: Дис.... канд. юр. наук. Екатеринбург, 2005.

<sup>20</sup>Бочкарев А. Е. Особый порядок судебного разбирательства в уголовном судопроизводстве Российской Федерации : Дис.... канд. юр. наук. Владимир, 2005.

<sup>21</sup>Дубовик Н. П. Особый порядок судебного разбирательства и его место в системе упрощенных производств по уголовным делам: Дис. ... канд. юр. наук М., 2004.

<sup>22</sup>Любишкін Д. Е. Особый порядок принятия судебного решения при согласии обвиняемого с предъявленным ему обвинением: Дис.... канд. юр. наук. Владимир, 2006.

<sup>23</sup>Рыболов К. А. Особый порядок судебного разбирательства в Российской Федерации и проблемы его реализации: Дис.... канд. юр. наук. М., 2004.

<sup>24</sup>Шмарев А. И. Особый порядок судебного разбирательства (вопросы теории и практики): Дис.... канд. юр. наук. Ижевск, 2004.

Yevropa protsessualist olimlardan A.A.Alskuler, B.Stefanos<sup>25</sup>, B.Vinik<sup>26</sup>, D.Linch<sup>27</sup>, F.Isterbruk<sup>28</sup>, J.Fisher<sup>29</sup>, F.Xayek<sup>30</sup>, J.Langbeyn<sup>31</sup>, M.Langer<sup>32</sup>, M.Kinsli<sup>33</sup>, M.Reymond<sup>34</sup>, S.Skulfoxer<sup>35</sup>, T.Veyngard<sup>36</sup>, S.Yang<sup>37</sup>lar ham o‘z tadqiqot ishlarini olib borishgan.

**Tadqiqot uslublari.** Tadqiqot olib borishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy -amaliy xulosalar, taklif va tavsiyalardan jinoyat-protsessual qonunchiligi sohasida tadqiqot ishlarini olib borishda, “Jinoyat huquqi”, “Jinoyat-protsessual huquqi” kabi fanlarni o‘qitish jarayonida hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda va boshqa huquqiy fanlar yuzasidan ma’ruza matnlarida, o‘quv-uslubiy ta’mintoni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutining amaliyatda qo‘llanilish doirasini kengaytirish maqsadida qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda hamda uning natijalaridan sohaga oid qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishda ifodalanishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo‘yicha 3 ta maqola, jumladan, dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan Bosh prokuratura Akademiyasi to‘plamlar tarkibida 2 ta ilmiy

---

<sup>25</sup>Stephanos B. Harmonizing substantive criminal law values and criminal procédure: the case of Alford and Nolo Condendere Pleas // Cornell Law Review. 2003. Vol. 88. № 6.

<sup>26</sup>Winick B. J. Sex Offender Laws in the 1990s: A Therapeutic Jurisprudence Analysis II Psych. 1998. № 4.

<sup>27</sup>Lynch D. The Impropriety of Plea Agreements: A Tale of Two Counties // Law & Soc. Inquiry. 1994. № 19.

<sup>28</sup>Easterbrook F. Criminal Procedure as a Market System // J. Legal Stud. 1983. № 12.

<sup>29</sup>Fisher G. Plea Bargaining's Triumph: A History of Plea Bargaining in America. Stanford, 2003.

<sup>30</sup>HayekF.A. Law, Legislation and Liberty. 6-th ed. L., 1973.

<sup>31</sup>Langbein J. H. Torture and The Lam of Proof: Europe and England in the Ancient Regime. Chicago, 1977.

Hanger M. From Legal Transplants to Legal Translations: The Globalization of Plea Bargaining and the Americanization Thesis in Criminal Procedure // Harvard International Law Journal. 2004. № 1.

<sup>33</sup>Kinsley M. Why Innocent People Confess // [www.washingtonpost.com](http://www.washingtonpost.com). 30.03.2007.

<sup>34</sup>Raymond M. Politics and Criminal Prosecution. N. Y., 1929.

<sup>35</sup>Schulhofer S. J. Plea Bargaining as Disaster // Yale L.J. 1992. №101.

<sup>36</sup>Weigend T. Prosecution: Comparative Aspects // Encyclopedia of Crime & Justice. T. 3. Joshua Dressier ed., 2-nd ed. 2002.

<sup>37</sup>Young C.J. Sentencing Memoranda. United States. District Court. District Of Massachusetts. 18.06.2004.

maqolalar va “Journal of new century innovations” xalqaro sohalararo tadqiqot jurnalida 1 ta maqola chop etilgan.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Mazkur dissertatsiya kirish, uch bob, sakkiz paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalar kabi qismlardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 142 betni tashkil qiladi.

# **I BOB. «AYBGA IQRORLIK TO‘G‘RISIDA KELISHUV» HUQUQ**

## **INSTITUTINING TARIXI, TUSHUNCHASI, ZARURATI**

### **1.1. “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” institutining genezisi va tushunchasi**

Xorijiy davlatlarda odil sudlov ko‘p yillardan buyon aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni amaliyotga keng tatbiq qilgan holda amalga oshirilmoqda. Bu institutni chuqur tahlil qilish davomida uning qanday vujudga kelganligi va tarixiga e’tibor qaratmaslikning iloji yo‘q. Ko‘pgina olimlarning fikriga ko‘ra, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv instituti soddalashtirilgan tartibda sud ish yurituvining bir shaklidir. Ushbu institut ko‘pgina xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligidagi “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”, “Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish” yoki “Maxsus tartibdagi ish yuritish” deb nomlanadi. Shu o‘rinda aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv haqidagi tasavvurimizni yanada kengaytirish maqsadida ushbu institutning xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligidagi vujudga kelish manbalari, turlari va xususiyatlariga e’tibor qaratishimiz zarur.

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv va hamkorlik bo‘yicha kelishuv AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlari jinoyat-protsessual qonunchiligidagi keng tarqalgan. Hozirgi kunda bu institut AQSh, Angliya, Uels, Hindiston, Italiya, Fransiya, Polsha, Estoniya, Isroil, Gruziya kabi davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligidagi mavjud. Keyingi vaqtarda jinoyat sud ishlarini yuritish tartibini soddalashtirish bilan bog‘liq takliflar boshqa xorijiy davlarlar tadqiqotchilari tomonidan ham qo‘llab-quvvatlab kelinmoqda<sup>38</sup>.

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutini jinoyat-protsessual qonunchilikka tatbiq etish jarayoni nafaqat uni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bilan cheklanadi, balki umume’tirof etilgan xalqaro normativ hujjatlarni milliy qonunchilikka tatbiq etishda ham ko‘rinadi. Masalan, Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (10.12.1948), “Fuqaroviylar va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro Pakt (16.12.1966), “Inson huquqlari va asosiy erkinliklar

<sup>38</sup> Трубникова, Т. В. Упрощенные судебные производства в уголовном процессе России. Автореферат. Томск, 1997. -30 с.

to‘g‘risida”gi MDH Konvensiyasi (26.05.1995), Yevropa Kengashiga a’zo davlatlar Vazirlar qo‘mitasining “Jinoyat sud ishlarini yurituvini nisbatan soddalashtirish to‘g‘risida”gi (17.09.1987) va boshqalar<sup>39</sup>.

“Inson huquqlari va asosiy erkinliklar to‘g‘risida”gi MDH Konvensiyasiga ko‘ra, “Har kim, ishi mustaqil va xolis sud tomonidan oqilona muddat ichida adolatl va oshkora muhokama qilinish huquqiga ega”<sup>40</sup>. Bunga o‘xhash normalar Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 10-moddasida ham mavjud bo‘lib, unga ko‘ra: “Har bir inson, uning huquqlari va burchlarini belgilash va unga quyilgan jinoiy aybning nechog‘lik asoslanganligini aniqlash uchun, batamom tenglik asosida, o‘z ishi oshkora, adolatning barcha talablariga rioya etilib, mustaqil va xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqiga egadir”.

Yuqoridagi norma konstitutsiyaviy-huquqiy madaniyat sifatida qabul qilingan bo‘lsa, agar gumon qilinuvchi aybiga iqror bo‘lsa, uning ishi sudda, albatta, ko‘rib chiqilib, gumon qilinuvchi, haqiqattan ham, o‘z aybiga iqror yoki iqror emasligi to‘plangan dalillarni bevosita tekshirilishi orqali aniqlashtirilishi kerak. Bunday holatlarda sud-tergov bosqichidan butunlay yoki qisman voz kechilib, gumon qilinuvchining shaxsiga oid sifatlar bevosita tekshirilishi kerak va shuning asosida hukm chiqarilib, jabrlanuvchiga kompensatsiya to‘lash masalasi ham hal etilishi kerak<sup>41</sup>.

“Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” institutining tarixiy ildizlarini anglosakson huquq oilasidan qidirish zarur. Soddalashtirilgan sud ish yuritvi tartibi XIX asrda AQSH sudyalar hay’ati instituti asosida huquqiy ta’sir chorasi sifatida tashkil topgan. Nyu-York appellatsiya sudi o‘z qarorlarining birida soddalashtirilgan tartibda sud ish yuritvi tartibi 1804-yilda tashkil etilganligini qayd etib o‘tgan. Demak, bu institut AQSh jinoyat protsessining organik qismi hisoblanadi va 150 yildan buyon amaliyotda qo‘llaniladi<sup>42</sup>.

<sup>39</sup> Лунц Л.А. Международное частное право, особенная часть. – М.: Юрид. лит., 2011. С 133.

<sup>40</sup> [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_6966/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_6966/)

<sup>41</sup> [http://hrlibrary.umn.edu/russian/euro/RRec\(87\)18.html](http://hrlibrary.umn.edu/russian/euro/RRec(87)18.html)

<sup>42</sup> Головко Л.В. Альтернативы уголовному преследованию в современном праве. СПб., 2002. С. 182.

Xorijiy davlatlar amaliyotida aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv mexanizmi yangi emas. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv Buyuk Britaniyada o‘rta asrlar sud amaliyotida ham ko‘zga tashlanadi. O‘sha vaqtarda bu mexanizm uchun “tavba qilgan shaxsning appellatsiyasi” degan tushuncha mavjud bo‘lgan. Unga ko‘ra, agar jinoyatchi shaxs o‘zi va boshqalar sodir etgan jinoyati haqida o‘z vaqtida vakolatli organlarga xabar bersa, unga o‘lim jazosi tayinlanmasligi kafolati berilgan. “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” tushunchasi AQSh huquq tizimida XIX asr oxirida paydo bo‘ldi. Hozirgi kunda dunyo tajribasida ikki turdag'i kelishuvlar mavjud va ular “Sudgacha bo‘lgan hamkorlik” deb yuritiladi<sup>43</sup>. Odil sudlov bilan hamkorlikning yana bir turini AQShda “ayblov uchun guvohlik berish” deb nomланади. Guman qilinuvchi o‘z jinoiy sheriklari haqida barcha ma’lumotlarni oshkor qilsa, unga prokuror immuniteti beriladi, buning oqibatida guman qilinuvchi javobgarlikdan to‘liq yoki qisman ozod bo‘ladi. Kelishuv ayblanuvchi va prokuror o‘rtasida tuzilib, sud tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Bu kabi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvlar AQSh va Angliyaning ba’zi hududlarida keng miqyosda amaliyotda qo‘llanila boshlandi. 1900-yillarda jinoyat ishlarining 90% i aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish bilan yakunlanardi<sup>44</sup>. 1970-yilda AQSh Oliy sudi “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” institutining konstitutsiyaviyigini tan oldi va uni o‘z qonunchiligiga kiritdi. Anglo-amerikancha aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvning mohiyati quyidagicha: “Agar ayblanuvchi o‘zi sodir etgan jinoyatiga iqror bo‘lsa, dastlabki ayblov qisqartiriladi, shu vaqt dan boshlab unga jazoni qamoqda yoki probatsiyada o‘tash kafolati beriladi<sup>45</sup>.

AQSh jinoyat-protsessual qonunchiligidagi ikkila turdag'i kelishuvlar mavjud: “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” va “Tergov organlari bilan hamkorlik” shular sirasiga kiradi. Kelishuvlarni tuzish tartib-taomillari “AQSh okrug sudlarida Federal jinoyat-protsessi qoidalari” (11-qoida), AQSh kodeksi (3553(3)18-modda), “Jazo tayinlash to‘g‘risidagi rahbariy qoidalari” (5K1.1-modda) va bir nechta shtatlar

<sup>43</sup> [http://studbooks.net/748805/pravo/formy\\_zarubezhnogo\\_opyta\\_primeneniya\\_sdelki\\_priznanii\\_viny](http://studbooks.net/748805/pravo/formy_zarubezhnogo_opyta_primeneniya_sdelki_priznanii_viny).

<sup>44</sup> [http://sn-jurid.crimea.edu/arhiv/2013/26\\_1law/065makar.pdf](http://sn-jurid.crimea.edu/arhiv/2013/26_1law/065makar.pdf).

<sup>45</sup> Davis J.R. Criminal Justice in New York City. New York, 2014. P. 5.

qonunchiligi bilan taribga solinadi. **Taraflarning majburiyatları kelishuvlar turiga qarab farqlanadi. Birinchi holatda uch xil turdagı kelishuvlarni tuzish mumkin:**

1. ayblovni yengillashtirish evaziga tuziladigan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv;
2. jazoni kamaytirish evaziga tuziladigan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv;
3. ayblovni yengillashtirish va jazoni kamaytirish evaziga tuziladigan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv.

Bundan tashqari, AQSh jinoyat protsessida sudlanuvchi tomonidan e’lon qilingan ayblov bo‘yicha ishni sudda ko‘rib chiqishni rad etish to‘g‘risida sudga iltimosnama kirlitsa, ish sud muhokamasida ko‘rib chiqilmasdan hukm chiqariladi (nolo contendere)<sup>46</sup>. AQShdan farqli ravishda Yevropa davlatlari tezlashtirilgan sud ish yurituv tartibiga ehtiyotkor munosabatda. Zamonaviy **Germaniya** jinoyat protsessida **o’n xil turdagı tezlashtirilgan sud ish yurituvi mavjud**. Kelishuv tuzish imkoniyati prokuror tomonidan so‘ralayotgan jazo muddati qonunda nazarda tutilgan jazo muddatidan oshib ketmasligiga bog‘liq (masalan, Ispaniyada olti yildan ko‘p bo‘lmagan qamoq jazosi), (Italiyada 3 yil OMQ)<sup>47</sup>.

AQSh kabi Angliyada ham aybga iqrorlik bo‘yicha tuzilgan kelishuv bosim va tahdidlar ostida tuzilgan bo‘lsa, kelishuvning bekor qilinishiga sabab bo‘ladi. Shu vaqtning o‘zida sud amaliyotida o‘z xohishi bilan aybiga iqror bo‘lgan va sodir etgan jinoyati uchun chin dildan pushaymon bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan og‘ir jazolar qo‘llanilishini bekor qilish masalasida nizom ishlab chiqildi. 2008-yil mart oyida Angliya Bosh prokurorining Lordlar Palatasiga firibgarlik jinoyati bo‘yicha aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish imkoniyatlari haqida materiallar yuborishi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutining takomillashishi uchun

<sup>46</sup> Кувалдина Ю.В. Предпосылки и перспективы развития компромиссных способов разрешения уголовно-правовых конфликтов в России. Диссер. ...канд. юрид. наук. Самара: СамГУ, 2011. 272 с.

<sup>47</sup> А.В. Курдова. Практика применения ускоренного порядка рассмотрения уголовных дел судом в УПК РА (сравнительно-правовой анализ с законодательствами ряда европейских стран СНГ, США) // Ереван (Армения). 2009. С 76.

yana bir turtki bo‘ldi<sup>48</sup>. 2008-yilning o‘zida Angliya Bosh prokurori yuborgan materiallari qo‘sishchalar bilan to‘ldirilib, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi moliyaviy jinoyatlar bo‘yicha shaxslar tergovning dastlabki bosqichlarida HMQOga ushbu jinoyat to‘g‘risida ma’lumotlarni oshkor qilishsa va jinoyatning ochilishida hamkorlik qilsa, ularga nisbatan tayinlanadigan jazolar endilikda yengillashtiriladigan bo‘ldi<sup>49</sup>.

Germaniya qonunchiligidagi rasmiy aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv instituti mavjud emasligiga qaramasdan, norasmiy hamkorlik amaliyotda keng qo‘llanilyapti. Ko‘pgina muhokamalardan so‘ng Germaniya Federal Parlamenti aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni tartibga soluvchi yangi qonunni qabul qildi (Gesetz zur Regelung der Verständigung im Strafverfahren). Ushbu hujjatda yangi qonunning tahlili va mavjud amaliyotdagi norasmiy kelishuvlar muhokama qilingan edi. Bir qancha ilmiy muhokamalardan va norasmiy kelishuvlar yuzasidan pretsedent huquqini ishlab chiqish masalalari tahlil etilgandan so‘ng Germaniya Federal Parlamenti tomonidan aybga iqrorlikni rasmiylashtiruvchi yangi qonun qabul qilindi<sup>50</sup>. Angliya va Uels kabi Germaniyada ham norasmiy kelishuvlar keng tarqaldi, lekin bu holatga e’tibor qaratilmadi. Germaniyada norasmiy kelishuvlarning keng tarqalishiga asosiy sabab sud va prokuratura organlarida ish yuklamasining keskin oshishidir. 1982-yilda jinoyat ishlari bo‘yicha advokat Detlef Deal Germaniyadagi norasmiy kelishuvlar bo‘yicha umumiyligi amaliyotdagi holatni og‘ir jinoyatlar misolida maqolada bayon qildi. Ushbu olimning fikricha: “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv instituti juda keng tarqalgan va juda yashirin, buni deyarli barcha biladi, qo‘llaydi, lekin hech kim bu holat haqida e’tiroz bildirmaydi<sup>51</sup>. Bundan tashqari aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv instituti zo‘rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlarga (nomusga tegish, bosqinchilik, odam o‘ldirish) nisbatan ham qo‘llanilib kelmoqda, vaholanki bu kabi jinoyatlarga kelishuvni qo‘llash xato

<sup>48</sup> The Attorney General’s Office Consultation. The Introduction of a Plea Negotiation Framework for Fraud Cases in England and Wales. 3 April 2008. P 91.

<sup>49</sup> Kalenz A. A. Responsibility for tax crimes under the legislation of Great Britain // Business. Education. Law. Bulletin of Volgograd Business Institute. 2014. No. 3 (28). P. 279-281.

<sup>50</sup> Лутц М.Г. Правовое регулирование «сговора в уголовном процессе». Журнал политики в области прав. Германия. 2008 г. С 187

<sup>51</sup> Deal, Detlef (pseudonym) 1982 “Der strafprozessuale Vergleich” Strafverteidiger p 545.

hisoblanadi. Bundan tashqari, norasmiy kelishuvlar barcha jinoyat protsessi ishtirokchilari uchun ishni tezroq va oson hal qilish yo‘lidir. Norasmiy kelishuvlarning keng qo‘llanilishiga yana bir sabab ishni ko‘rib chiqishdan asosiy maqsad sifatida jazolashni tushunishdir. Xermanning fikricha, “Jinoyat protsessi prinsiplarining funksiyasi nafaqat Jinoyat kodeksi normalarini ijro etishni ta’minlash, balki mavjud ijtimoiy muammolarni aniqlashdir. Shuningdek, barcha ishtirokchilar natijaga rozi bo‘lsa, ko‘proqadolatga erishiladi va sudlanuvchi hukm bo‘yicha norozi bo‘lmasa, reabilitatsiya muvaffaqiyatl bo‘ladi”<sup>52</sup>.

1974-yilda sud hokimiyatining talabiga ko‘ra ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarga qarshi ommaviy kurashish maqsadida §153a Nizomi qabul qilindi. Ushbu Nizomga ko‘ra, agar ayblanuvchi muayyan pul miqdorini xayr-ehson sifatida to‘lasa, prokuror sudda ishni ko‘rib chiqishdan manfaatdor bo‘lsa ham, ayblovdan voz kechadi. Dastlab bu amaliyat AQSh modelini o‘zlashtirish sifatida tanqid qilindi<sup>53</sup>. Endi esa e’tiborimizni statistik ma’lumotlarga qaratamiz. Shnumen hisobotiga ko‘ra, ushbu norasmiy kelishuv amaliyotini qo‘llashga 76% voyaga yetmagan ayblanuvchilar, 89% kattaroq yoshdag ayblanuvchilar, 91% esa sudlanganlik holati mavjud ayblanuvchilar rozi bo‘lgan.

Bu yangi institut Rossiya Federatsiyasida ham qo‘llaniladi. Rossiya Federatsiyasi JPKsining 40-bo‘lim 10-bobi “Ayblanuvchining roziligi bilan unga nisbatan e’lon qilingan ayblov bilan sud qarori qabul qilishning alohida tartibi” deb nomланади.

Fransiya qonunchiligini tahlil qilar ekanmiz A.V.Baxnovkiyning fikriga qo‘shilmaslikning iloji yo‘q. Olimning fikriga ko‘ra, Fransiya jinoyat-protsessual qonunchiligi progressiv va xalqaro huquq normalari talablariga javob beradi. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv instituti Fransiyada 1999-yildan buyon mavjud<sup>54</sup>. N.G.Stoykoning fikricha, “Hozirgi kunda aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvning Angliya, AQSh, Germaniya, Fransiya modeli nafaqat boshqa xorijiy davlatlar

<sup>52</sup> Herrmann note 26, 776.

<sup>53</sup> Шюнemann Б. Соглашения в уголовном процессе? Основы, объекты и границы. Мюнхен. 2011. С 153.

<sup>54</sup> Bahnovsky A. V. The deal with the justice system: Features of the Anglo-Saxon and continental legal tradition. Dissertation of the candidate of law. Krasnodar, 2008. С 128.

jinoyat-protsessual qonunchiligiga ta'sir ko'rsatadi, balki yuqoridagi davlatlarning bir-biriga ham ta'sir ko'rsatadi<sup>55</sup>.

**Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosaga kelamiz**, azaldan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining aybi maqbul dalillar bilan isbotlansa, hamda taraflarni tengligi va tortishuvchanlik prinsipi asosida ish yuritilgan taqdirda erishilgan.

O‘rta asrlarda inkvizitsiya sudi aybga iqrorlikni hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblagan va uni “dalillar qirolichasi” deb atagan.

Endi esa e’tiborimizni aybga iqrorlik va aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv kabi tushunchalarning asl mohiyatiga qaratamiz. Har qanday so‘z birikmasining mazmun-mohiyatini anglab olish uchun uni lug‘aviy jihatdan tahlil qilish talab etiladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tushunchasining so‘z birikmasi shaklidagi umumiy tushunchasi mavjud emas. Lekin ushbu lug‘atda so‘z birikmasida ishlatilgan so‘zlarining tahlili orqali uning lug‘aviy ma’nosini bilib olish mumkin. “Ayb” so‘zining lug‘aviy ma’nosini sifatida nuqson, rasm-qoidaga va odob-axloq me’yorlariga xilof ish, xatti-harakat, gunoh ma’nolari keltirilgan. Shuningdek, qonunga xilof xatti-harakat, javobgarlikka tortishning zarur sharti tushunchasi ham o‘z ifodasini topgan. “Iqror” so‘zining lug‘aviy ma’nosini esa, “e’tirof etish, rost deb hisoblash, tan olish, bo‘yniga olish” ma’nolarida tushunilishi qayd etilgan. “Kelishuv” so‘zining lug‘aviy ma’nosini esa o‘zaro maslahatlashib bayon etilgan fikr, xulosa, qaror, bitim shartnoma ma’nolarida aks etgan.

Shartnoma – tomonlar (ikki yoki bir necha shaxs) o‘rtasida tuzilgan, ularning huquq va majburiyatları qayd etilgan bitimdir. Bitim esa – bu ham o‘zaro kelishuv, to‘xtam, qaror, taraflar tomonidan rasmiy ravishda tuziluvchi, qabul qilinuvchi ahdnama, shartnoma, kontrakt demakdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 586<sup>1</sup>-moddasida “Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv jinoyat ishini yuritishni o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumonga, ayblovga rozi bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol

---

<sup>55</sup> Stojko N.G. Criminal process Western nations and Russia: A Comparative Legal Survey theoretical Anglo-American and Roman-Germanic legal systems: monograph. SPb., 2006. p 65.

ko‘maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan va og‘ir jinoyatlar bo‘yicha tuziladigan kelishuvidir” - deb aks ettirilgan.

Nazarimizda, qonunning ushbu normasida keltirilgan aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tushunchasida, bir qator noaniqliklar mavjud bo‘lib, ularga aniqlik kiritish uchun jinoyat protsessi nazariyasida aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvga doir mavjud ta’riflarga murojaat qilishni lozim deb topdik.

Hozirgi kunga qadar yuridik adabiyotlarda aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tushunchasiga oid yakdil fikr mavjud emas. Bu esa ushbu institutning ko‘p qirrali ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz sud-huquq tizimida ushbu institut (tushuncha) yangi bo‘lishiga qaramay bir qator amaliyot xodimlari va protsessualist olimlar tomonidan ayrim fikr va mulohazalar bildirilgan. Xususan, S. Toshniyozov tomonidan, aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan tergov organiga bildirilgan taklif bo‘lib, taraflarning tengligi roziligi asosida tuzilishini, kelishuv prokuror hamda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi hamda ularning himoyachisi tomonidan imzolananishi lozimligini ta’kidlab o‘tilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrga yaqin fikr Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi a’zosi D. Oripov tomonidan keltirilgan bo‘lib, unda “aybiga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan va og‘ir jinoyatlar bo‘yicha aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergen va keltirilgan zararni bartaraf qilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan bildirilgan iltimosnomaga asosan jinoyat ishini yuritishni nazorat qiluvchi prokuror bilan tuziladigan kelishuv hisoblanishini” ifodalangan.

Ushbu fikrning mantiqiy davomi sifatida Sh. Xomidov gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani surishtiruv va dastlabki tergovning istalgan bosqichida berishi mumkinligini,

kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomalar qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi va agar ishda qatnashayotgan bo‘lsa, qonuniy vakili tomonidan imzolangan bo‘lishi lozim degan fikrni ilgari surgan.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Ishtixon tumani sudining raisi K. Pansatov esa, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv jinoyat ishini yuritishni o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumonga, ayblovga rozi bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol ko‘maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган, uncha og‘ir bo‘lмаган va og‘ir jinoyatlar bo‘yicha tuziladigan kelishuv sanalishini ta’kidlab o‘tgan. G‘.Abdumajidovning fikricha, aybga iqrorlikning asl mohiyati – o‘z xohishi bilan boshqaning foydasiga amal qiluvchi va ayblovchi haqiqatni oshkora tasdiqlash, unutilgan yoki inkor qilinayotgan voqelikni tan olishdan iborat<sup>56</sup>. Z.F.Inog‘omjonovaning fikricha, “aybga iqrorlik” – sudya bilan ayblovchi o‘rtasida qo‘yilgan ayblov bo‘yicha kelishish yo‘li tayinlanishi lozim bo‘lgan jazodir<sup>57</sup>. D.Nurumovning fikricha, “Jinoyat protsessida aybga iqrorlik – shaxsning o‘zi sodir etgan jinoyati to‘g‘risida u shu jinoyatni sodir etishda gumon qilinmasdan va unga ayblov e’lon etilmasdan oldin o‘z qilmishidan pushaymon bo‘lib, o‘z aybini bo‘yniga olishdir”<sup>58</sup>. Xorijiy mamlakatlar olimlarining fikrlariga o‘z e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, ayrim olimlar, aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvni jinoiy javobgarlikdan himoya qilmaydigan faqatgina jinoiy jazoni yengillashtirish uchungina asos bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlashgan bo’lsa, Y.V.Loshkobanov tomonidan esa aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvni bir tomonlama bitim sifatida baholanib gumon qilinuvchi, ayblanuvchining majburiyatları ixtiyoriy tusda, ikkinchi tomonda turgan prokurorning majburiyatlarini esa jinoyat-protsessual qonunida alohida hollarda yuzaga kelishini e’tirof etgan.

<sup>56</sup> Абдумажидов Ф. Иқрорликнинг моҳияти ва оқибатлари // Айбига иқрорлик тўғрисидаги битим институти хусусиятлари: халқаро тажриба. – Т.: NAFIS BEZAK, 2011. – Б. 14.

<sup>57</sup> Иногомжонова З.Ф. Жиноят процессини соддалаштиришда айбига иқрорлик институтининг аҳамияти. // Айбига иқрорлик тўғрисидаги битим институти хусусиятлари: халқаро тажриба. – Т.: NAFIS BEZAK, 2011. – Б. 96

<sup>58</sup> Nurumov D.D. Jinoyat ishlarining soddalashtirilgan tartibi sifatida aybiga iqrorlik bitimi. Monografiya. – Т.: TDYU, 2018. – Б. 12.

Yuqorida keltirilgan fikrda aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv bir tomonlama ekanligi to‘g‘risidagi fikr bildirilgan bo‘lib, bizning nazarimizda aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvdan har ikkala taraf manfaatdor bo‘lishi lozim. Xususan, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi o‘ziga nisbatan yengilroq jazo tayinlanishidan manfaatdor bo‘lsa, jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyatlarning tez va issiq izidan ochilishiga, kuch va vositalarning tejalishiga hamda ish hajmining kamayishiga erishadilar.

V.V. Kolesnikning fikriga ko‘ra, aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvning asosiy xususiyati va negizi garchi teng bo‘lmagan (subyektlar) sharoitlarda bo‘lsa ham teng huquqli subyektlarning bitimlari sifatida tushunilishi lozim ekanligini bildirgan.

N.A. Dudina esa, mazkur tushunchaga “aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan chin ko‘ngildan pushaymonlik, tavba qilish aybga iqrorlik insitutining moddiy-huquqiy asosi hisoblanishini, aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvning o‘zi fuqarolik-huquqiy tabiatga ega emasligini, balki huquqni qo‘llash shakllaridan birini ta’minlovchi hujjatning bir turi sifatida namoyon bo‘lishini keltirib o‘tgan.

K.F. Bagautdinov o‘zining ilmiy izlanishlarida, aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv bu taraflar o‘rtasida ixtiyoriy ravishda tuziladigan shartnomalar bo‘lib, prokurorga aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tuzishni majburiyat sifatida yuklashning mumkin emasligi, prokuorning kelishuv tuzishni rad etishi adolatga erishishga to‘sinqilik qilmasligi, va protsess ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini cheklamasligi, shu boisdan ham sudlar tomonidan prokuorning qarori ustidan berilgan shikoyatni ko‘rib chiqishida rad qilish qarorining asosli ekanligini muhokama qilmasdan qaror tegishli shaxs tomonidan o‘z vakolatlari doirasida chiqariilganligiga xulosa qilishi, fuqaroviylar shartnomalardan farqli o‘laroq sudga qadar hamkorlik qilish haqidagi kelishuvda jamoatchilik ustunlikka ega bo‘lishi, kelishuvning o‘ziga xosligi, unda jamoatchilik va shaxsiy manfaatlar bir-biriga qarama-qarshi kelgan hollarda, jamoatchilikning manfaatlari inobatga olingan holda ish hal etilishi ta’kidlab o‘tilgan.

Yuqoridagi bildirilgan K.F. Bagautdinovning fikriga qo'shilgan holda, aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvda prokuror jinoyat-protsessual qonunida ko'rsatilgan kelishuvning barcha shartlari va xususiyatlarini tushuntiradi va qo'llaydi. Biroq kelishuvning o'zida prokurorga nisbatan qaysidir majburiyatlarni bajarishni zimmasiga yuklashni qayd etish mumkin emas. Sababi, sudga borib vaziyat batamom o'zgarishi va kelishuvdagi qoidani shartni qo'llashning iloji bo'lmay qolishi mumkin.

Y.L. Fedosyeva ham ishni sudga qadar yuritish bosqichida aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv aslida kelishuv emas, balki ishtirokchilar tomonidan majburiyatlarni bajarish nuqtai-nazaridan bir tomonlama xarakterga ega bo'lgan, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining tergovga ko'maklashish to'g'risidagi prokurorga bildirilgan roziligi deb o'zining fikrlarini bildirib o'tgan.

O.V. Klimanovaning fikricha, prokuror mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda, ayblanuvchining kelishuv shartlarini bajarishi ijobili oqibatlarga olib kelishini va jinoyat-protsessual qonun normalariga muvofiq kelishuv shartlari to'liq bajarilishini kafolatlashga qodir.

Yana bir olim O.Y. Bayev sudga qadar hamkorlik qilish haqidagi kelishuvda gumon qilinuvchi ayblanuvchiga nisbatan tanlangan ehtiyyot chorasini bekor qilish yoki yengilrog'iga o'zgartirish taklifini ayblovning majburiyati sifatida kiritishni taklif qiladi .

O.N. Tisennenning ta'kidlashicha, aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv bu gumon qilinuvchi ayblanuvchi o'z ixtiyori bilan jinoiy sheriklarini fosh qilish majburiyatini olishi va evaziga o'z qilmishi uchun jazo muddatini sezilarli darajada kamaytirishga erishadi. Bizningcha, yuqorida keltirilgan fikrlarda olimlar aybga iqrorlik institutining tarkibiy tuzilishiga tegishli jarayonlarni aks ettirgan bo'lsa-da, ushbu fikrlar bugungi kundagi ushbu institutning mohiyati va tushunchasini to'liq ochib bermaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarning xilma-xilligi, adabiyotlar va internet saytlarida bunday fikrlarning keng tarqalganiga qaramay hanuzgacha aybga iqrorlik to'g'risida aniq tushunchaning mavjud emasligini ko'rishimiz mumkin. Chunki,

aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv instituti mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligidan yangi institut bo‘lib, xorijiy mamlakatlarning qonunchiligidan mavjud bo‘lgan institutlardan farq qiladi. Eng achinarlisi, aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv instituti amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligidan o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, uning amalga oshirish mexanizmi bo‘yicha normalarning yetarli darajada tartibga solinmaganligi sud-tergov amaliyotida bir qator muammolarning kelib chiqishiga, buning natijasida esa ushbu institutning qo‘llanilmaslik holatlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning chuqur tahlili esa aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvga nisbatan quyidagi mazmundagi mualliflik ta’rifini ishlab chiqish imkonini berdi:

Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv bu – surishtiruv va dastlabki tergovning istalgan vaqtida o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumon yohud ayblovni tan olgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, jinoyatni ochilishiga faol ko‘maklashgan va yetkazilgan zararni to‘liq qoplagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining iltimosiga asosan jinoyatlar bo‘yicha prokuror bilan tuziladigan ixtiyoriy shakldagi kelishuvdir.

**Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelamiz.** Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv instituti jinoyat-protsessual qonunida ishni sudga qadar yuritish bosqichini soddalashtirilgan tartibda amalga oshirish, mamlakatimizning jinoyat, jinoyat-protsessual qonunchiligiga tatbiq etilishi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasini yuqori pog‘onaga ko‘tarilishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Aybga iqrorlikka yuqorida sanab o‘tilgan xorijiy davlatlar qonunchiligidagi kabi juda yuqori baho berish noto‘g‘ri va xavfli. Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligi aybga iqrorlikni faqatgina holat maqbul dalillar bilan isbotini topgan taqdirda haqiqiy deb hisoblaydi. Bizning fikrimizcha, amaliyotda o‘rnashib qolgan shaxs aybini unga iqrorligi bilan isbotlash usulini qo‘llash noto‘g‘ri. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining aybi uning iqrorligi bilan emas, balki maqbul dalillarni obyektiv, bevosita tekshirish usuli

bilan isbotlanishi zarur. Xorijiy davlatlar sud va tergov amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, aybga iqrarlik to‘g‘risida kelishuv odil sudlovnii amalga oshirish uchun eng samarador vosita hisoblanadi, shu bilan birga kelishuv minimal moddiy resurslarni sarflab, sud va tergov organlarining ish ko‘rishga ketadigan vaqtini tejaydi. Bundan tashqari, sud, tergov, prokuratura organlari xodimlariga ortiqcha ish yuklamasini kamaytiradi.

## **1.2. Milliy qonunchilikka “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” institutini implementatsiya qilinishining zarurati**

Ma’lumki, jinoyat kodeksining jazo tayinlash va undan ozod qilishga oid moddalarida ayblanuvchining o‘z aybiga iqrorligi inobatga olinadi. Bu esa davlatimizning jinoyat-huquqiy siyosatida olib borilayotgan islohotlar, asosan, inson va uning huquq va manfaatlariga qaratilganligidan dalolat beradi. Jinoyat-protsessual munosabatlarda davlat o‘zining organlari orqali fuqarolarning shaxsiy hayoti, erkinligi va manfaatlariga jiddiy aralashish holatlari ko‘zda tutilganligi tufayli, sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlar davlat faoliyatining aynan ushbu jabhasiga qaratilmoqda. Jinoyat-protsessual qonunchiligidagi insonparvar prinsiplarni rivojlantirish yurtimizda sud-huquq tizimini takomillashtirish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar maqsadiga yetishning samarali yo‘llaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Har qanday davlatning samarador jinoyat-huquqiy siyosatini jinoyat sud ishlari yurituvining eng yaxshi natija beradigan modelisiz tasavvur qilib bo‘maydi. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv jinoyat protsessini soddallashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan institut sifatida jinoyat protsessini yurituvchi organlarning jinoyat sodir etgan, aybiga o‘z xohishi bilan iqror bo‘lgan shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarini huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos mexanizmi hisoblanadi. F.M.Muxiddinovning fikricha: “Jinoyat protsessi sud bosqichida differensiatsiya muammosi jinoyat ishlarini ularning ijtimoiy xavfllilik darajasi va ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda tez, sodda, ammo samarali hal etishdan iborat”<sup>59</sup>. Jinoyat ishlarini soddallashtirilgan tartibda yuritishning qonunchilik uchun zaruriyati haqida gap ketganda, V.Lazerevning fikriga to‘xtalib o‘tishimiz zarur. Uning fikricha: “Qonunchilikka aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv instituti shaklida jinoyat ishlarini soddallashtirilgan tartibda yuritish tartib-taomillarini kiritish sudlarda jinoyat ishlarini birinchi instansiya sudlarida ko‘rish tartibini optimallashtiradi, bu esa o‘z navbatida ish hajmini keyingi sud instansiyalarida sezilarli darajada kamaytiradi”<sup>60</sup>.

<sup>59</sup> Мухитдинов Ф.М. Жиноят процесси: мөхияти, мазмун, шакл. Монография. - Ташкент, 2012. -С.268.

<sup>60</sup> Лазарева В. Легализация сделок о признании вины // Рос. юстиция. - 1999. - № 5. - С. 40-42.\_

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsesual qonunchiligidagi qilinishi kerak bo‘lgan islohotlar rejasiga “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiysi”da o‘rin egalladi. Ushbu Konsepsiya jinoyat protsessining yangi shakl va tartib-taomillarini joriy etish masalalari haqida fikr yuritilib, sudga qadar va sud bosqichida soddallashtirilgan ish yuritish tartib-tamoyillarini yanada rivojlantirish, sud-tergov harakatlarining innovatsion shakllari va uslublarini joriy etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Shu bilan birga ushbu Konsepsiyaning milliy xususiyatlar va sharoitlarni e’tiborga olgan holda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikka ilg‘or xorijiy tajribani implementatsiya qilish natijasi ham kutilayotgan edi.

Haqiqattan ham, sud, tergov, prokuratura organlarida ish hajmi salmog‘i soddallashtirilgan ish yuritish tartib-tamoyillarini yanada rivojlantirishga muhtoj edi. Bu kabi natijalar O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi “Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 675-sonli Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodeksiga xorij amaliyotida keng qo’llaniladigan “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” instituti joriy qilinishi bilan amalga oshdi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 57<sup>2</sup>-modda bilan to‘ldirilib, ushbu norma aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha jazo tayinlash masalasiga aniqlik kiritdi. Xususan, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha tayinlanadigan jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida (qismida) nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning yarmidan oshmasligi kerak.

Bundan tashqari yuqoridagi qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga yangi 62<sup>1</sup>-bob kiritildi. Ushbu bob “Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv” deb nomlandi. Jinoyat-protsessual kodeksining 586<sup>1</sup>-moddasida aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv va uni tuzish shartlari bayon etilgan bo‘lib, unga ko‘ra: “Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv jinoyat ishini yuritishni o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumonga, ayblovga rozi bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga

faol ko‘maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan va og‘ir jinoyatlar bo‘yicha tuziladigan kelishuvdir”.

**Bizning fikrimizcha**, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvning faqatgina ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan, og‘ir jinoyatlar bo‘yicha tuzilishining o‘zi sud, prokuratura, tergov organlaridagi ish hajmining keskin kamayishiga va ushbu organlardagi xodimlarning ishni ko‘rib chiqishga sarflaydigan vaqtini sezilarli darajada tejashiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, qonunchilikdagi bu yangilik tergov, prokuratura, sud organlarining o‘ta og‘ir jinoyatlarni fosh etish bilan bog‘liq faoliyatidagi samaradorlikni oshirishga katta hissa qo‘sadi. Chunki o‘ta o‘g‘ir jinoyatlarni tergov qilish va ishni sudda ko‘rib chiqish vakolatli organ xodimlaridan juda katta mehnat va vaqt talab qilganligi bois ko‘pgina holatlarda ish hajmining kattaligi sababli bu kabi jinoyatlar yillar davomida ochilmasdan qolib ketadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 586<sup>1</sup>-moddasiga ko‘ra, aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tuzishda talab etiladigan bir qancha shartlar mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

- 1) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi o‘z harakatlarining mohiyatini, shuningdek o‘zi bergen iltimosnomaning oqibatini anglab yetgan bo‘lishi;
- 2) iltimosnoma ixtiyoriy ravishda va ishda ishtirok etayotgan himoyachi bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan keyin berilgan bo‘lishi;
- 3) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi surishtiruv yoki tergov organi tomonidan qo‘yilgan gumonni yoxud ayblovni, ish bo‘yicha mavjud bo‘lgan dalillarni, shuningdek yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini inkor etmasa hamda uni bartaraf etgan bo‘lishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tuzilishi mumkin bo‘limgan holatlarga ham aniqlik kiritilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

1) agar JPKning 61-bobida belgilangan tartibda tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash uchun asoslar mavjud bo‘lsa;

2) agar shaxs tomonidan bir nechta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, ushbu jinoyatlarning birortasi ushbu moddada belgilangan talablarga to‘g‘ri kelmasa.

**Yuqoridagi moddani sharhlaydigan bo‘lsak**, agar holat bo‘yicha tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash uchun asoslar mavjud bo‘lsa va shaxs tomonidan bir necha jinoyatlar sodir etilgan bo‘lib ularning aqalli birortasi o‘ta og‘ir jinoyat bo‘lsa, ushbu holatda aybga iqrorlik bo‘yicha kelishuv tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 586<sup>2</sup>-moddasiga ko‘ra: “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani surishtiruvning va dastlabki tergovning istalgan bosqichida berishi mumkin. Kelishuv tuzish haqidagi iltimosnama gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi va agar ishda qatnashayotgan bo‘lsa, qonuniy vakili tomonidan imzolangan bo‘lishi lozim. Iltimosnomada gumon qilinuvchi, ayblanuvchi surishtiruv va dastlabki tergovda qo‘yilgan gumonni yoki ayblovni tan olishi, dalillarni inkor qilmasligi, jinoyatni tergov qilishga ko‘maklashishi, jinoyat natijasida olingan mol-mulkning topilishi uchun qaysi harakatlarni amalga oshirish shartligini, jinoyatga aloqador boshqa axborotni taqdim etishga doir majburiyatlarini hamda jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar bartaraf etilganligini ko‘rsatadi. Kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomada gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan bajariladigan va jinoyatni fosh etish uchun ko‘maklashadigan muayyan harakatlar ham ko‘rsatilishi mumkin”.

**Yuqoridagi normadan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki**, aybga iqrorlik bo‘yicha kelishuv tuzishda himoyachi markaziy figuralardan biri bo‘lib,

uning kelishuv tuzishda ishtirok etishi shart bo‘lgan holatlar sirasiga kiradi. Aybga iqrorlik bo‘yicha kelishuv tuzish haqidagi berilgan iltimosnomaning himoyachi tomonidan imzolanishi shartligi gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquq va manfaatlarining qonun bilan ham himoya ostiga olinganligidan dalolat beradi. Iltimosnomada gumon qilinuvchi va ayblanuvchining qanday huquqlarga ega ekanligi, bundan tashqari gumon qilinuvchi va ayblanuvchining zimmasiga qanday majburiyatlar yuklatilishi haqidagi shartlar ham aks etadi.

**Bugungi kunda sud amaliyotida bu boradagi normalar keng qo‘llanilib,** jinoyat sodir etgan shaxslarga qonunchiligidizning rag‘batlantiruvchi normalarini qo‘llashga sabab bo‘lmoqda. Masalan, Sudlanuvchi B.X. – xavfli retsidivist bo‘lgan holda, o‘zganing juda ko‘p miqdordagi mulkclarini qo‘lga kiritish maqsadida, 2020-yil fevral oyida Samarqand tumani, “Gulobod” mahallasida yashovchi Xolov A.ning tadbirkorlik qilish maqsadida, yer maydoniolmoqchi ekanligidan xabardor bo‘lib, u bilan tanishib, unga o‘ziga tegishli bo‘limgan, yer maydonini go‘yoki o‘ziga tegishli ekanligini aytib, unga ushbu yerdan 10 hektar maydonini nomiga rasmiylashtirib berish, yer maydoniga elektr toki o‘tkazishga yordamlashish hamda shu yerga qurilishi lozim bo‘lgan inshootiga arzon narxlarda qurilish materiallari olib berishni va’da qilib, uni aldab, ishonchiga kirib, 2020-yil fevral oyidan 2021-yil fevral oyiga qadar bo‘lgan vaqt davomida 200.070.000 (ikki yuz million yetmish ming) so‘mga teng bo‘lgan 19.000 AQSh dollari miqdoridagi pullarini firibgarlik yo‘li bilan qo‘lga kiritib, muayyan huquq beradigan, rasmiy hujjat hisoblangan – tuman hokimining 18.12.2019-yildagi 8741-Q-sonli qarorini, «Kenagas» mahallasining 14.10.2020 yildagi dalolatnomasini hamda sanasi ko‘rsatilmagan, tumanda yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli ko‘chmas mulklarni xatlovdan o‘tkazish yuzasidan tuzilgan ishchi guruhning 1-sonli yig‘ilish bayonini qalbakilashtirib va qalbaki hujjatni taqdim qilib, firibgarlik yo‘li bilan qo‘lga kiritgan pullarni o‘z ehtiyojlariga ishlatib yuborgan. Sud tomonidan sudlanuvchi B.X.ning 1-1416-2101/000-sonli jinoyat ishi bo‘yicha aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvi tasdiqlangan. B.X. JKning 228-moddasi 3-qismi bilan oqlanib, O‘zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 4-

qismi «a» bandi va 228-moddasi 1-qismi bilan aybli deb topilgan. JKning 168-moddasi 4-qismi «a» bandi bilan, JKning 57<sup>2</sup>-moddasini qo'llab, bazaviy hisoblash miqdorining 200 (ikki yuz) baravari miqdorida, ya'ni 44.600.000 (qirq to'rt million olti yuz ming) so'm jarima jazosi tayinlanib, davlat daromadiga undirish belgilangan va JKning 228-moddasi 1-qismi bilan har oylik ish haqining 20 foizi miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda 1 (bir) yil axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan. O'zbekiston Respublikasi JKning 59-, 61-moddalariga asosan jinoyatlar majmui bo'yicha jazolarni to'liq qo'shish yo'li bilan, uzil-kesil o'tash uchun bazaviy hisoblash miqdorining 200 (ikki yuz) baravari miqdorida, ya'ni 44.600.000 (qirq to'rt million olti yuz ming) so'm jarima jazosi hamda har oylik ish haqining 20 foizi miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda 1 (bir) yil axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan.

Yuqoridagi misoldan ko'rindiki, ish bo'yicha JK 168-moddaning 4-qismiga ko'ra, B.X.ga eng ko'p jazoning yarmidan (600 baravar) oshmagan holda jazo tayinlangan. Albatta, bu institutni nazarimizda o'ziga xos kamchiliklari bor. Chunki aybiga iqrorlik bo'yicha kelishuv tasdiqlash masalasi sudga havola qilinganligiga qaramasdan tergovdagi qonunga zid holatlarni, «xususan, aybini bo'yniga oldirish» kabi salbiy holatlarni oldini olish maqsadida video tasvirlarga olinishi, shuningdek JPKga sud har bitta holat bo'yicha kelishuv aynan gumon qilinuvchi, ayblanuvchining o'z-xohish irodasi bo'yicha tuzilganligiga alohida ahamiyat berishni nazarda tutadigan qoidalarni mustahkamlash zarur deb hisoblaymiz.

**Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki**, aybga iqrorlik bo'yicha kelishuv o'ziga xos ko'p tomonlama bitim bo'lib, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi uchun quyidagicha ahamiyat kasb etadi:

**birinchidan,**

- ✓ jazo tayinlashda rag'batlantiruvchi qoidalarni qo'llanilishiga sabab bo'ladi (JK57<sup>2</sup>-modda), ya'ni jazoning muddati, miqdorini kamayishiga, xususan jazoni yengillashishiga;

- ✓ turli xil ovoragarchiliklarni oldi olinadi;
- ✓ qilgan qilmishiga yarasha tez va aniq fursatlarda javobgarlikka tortiladi, ayniqsa, ehtiyot chorasi qamoqda saqlangan holda sudning majlisini kutib o‘tirishdek, qiyin sharoitlaridan himoyalananadi.

**ikkinchidan, surishtiruv, tergov, prokuratura va sud uchun:**

- ✓ vaqt va mablag‘larni tejalishi;
- ✓ sud muhokamasidan voz kechilishi, sudlarning jinoyat ishlari bo‘yicha ish yuklamasi kamayishi va o‘ta og‘ir, murakkab jinoyat ishlarini o‘z vaqtida sinchkovlik bilan ko‘rish imkoniyatining kengayishiga sabab bo‘ladi.

**uchinchidan, bu kelishuv jabrlanuvchi uchun ham ahamiyatli bo‘lishi mumkin:**

- ✓ yetkazilgan zararning qoplanishi;
- ✓ gumonlanuvchi, ayblanuvchi bilan tez-tez ko‘rishishdek salbiy jihatlarni oldini oladi (sir emas, shaxsga qarshi jinoyatlarda, xususan, hayot, sog‘liq, jinsiy erkinlik va boshqa turdagи jinoyatlarda jabrlanuvchi, ayblanuvchi, shuningdek sudlanuvchi bilan uchrashish, uning uchun juda og‘riqli kechadi);
- ✓ vaqtini tejaydi;
- ✓ turli xil yuzlashtirish, tergov eksperimentlarini o‘tkazilishi oldini oladi.

## **II BOB. «AYBGA IQRORLIK TO‘G‘RISIDA KELISHUV» INSTITUTI TARAFLARINING VA SUDNING VAKOLATLARI**

### **2.1. “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”ni tuzish jarayonida prokurorning roli**

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligidagi ko‘ra aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishda himoyachi va prokuror asosiy ahamiyatga ega protsess ishtirokchilari sanaladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 382-moddasida prokurorning vakolatlari sanab o‘tilgan bo‘lib, ulardan biri sifatida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish vakolati ham keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 586<sup>1</sup>-moddasida aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv va uni tuzish shartlariga alohida ta’rif berilgan bo‘lib, unga ko‘ra: “Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv jinoyat ishini yuritishni o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumonga, ayblovga rozi bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol ko‘maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan va og‘ir jinoyatlar bo‘yicha tuziladigan kelishuvdir”. Ushbu normadan kelib chiqadiki, nazorat qiluvchi prokuror aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tuzish jarayonini boshqaruvchi va qonuniylikni ta’minlovchi markaziy ishtirokchidir. Bundan tashqari nazorat qiluvchi prokuror aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvning haqiqattan ham

- 1) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi o‘z harakatlarining mohiyatini, shuningdek o‘zi bergan iltimosnomaning oqibatini anglab yetganligini;
- 2) iltimosnomalar ixtiyoriy ravishda va ishda ishtirok etayotgan himoyachi bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan keyin berilganligini;
- 3) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi surishtiruv yoki tergov organi tomonidan qo‘yilgan gumonni yoxud ayblovni, ish bo‘yicha mayjud bo‘lgan dalillarni, shuningdek yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini inkor etmaganligi hamda uni bartaraf etganligini tekshiradi.

Agar aybiga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvni tuzish jarayonida quyudagi holatlar aniqlansa, kelishuv tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi:

- 1) ushbu Kodeksning 61-bobida belgilangan tartibda tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash uchun asoslar mavjud bo‘lsa;
- 2) shaxs tomonidan bir nechta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, ulardan loaqlal bittasi ushbu moddada belgilangan talablarga to‘g‘ri kelmasa.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsesual kodeksining 586<sup>3</sup>-moddasiga ko‘ra: “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnama jinoyat ishini yuritayotgan surishtiruvchiga, tergovchiga taqdim etiladi. Surishtiruvchi, tergovchi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish to‘g‘risidagi iltimosnomani olgan paytdan e’tiboran yigirma to‘rt soat ichida jinoyat ishi materiallarini kelishuv tuzish masalasini hal qilish uchun prokurorga yuboradi. Prokuror kelishuv tuzish to‘g‘risidagi iltimosnomani u kelib tushgan paytdan e’tiboran yetmish ikki soat ichida surishtiruvchi yoki tergovchi hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi ishtirokida ko‘rib chiqadi va ushbu Kodeksning 586<sup>1</sup>-moddasida ko‘rsatilgan talablarga rioya etilganligini tekshiradi. Zarur hollarda, prokuror jabrlanuvchini yoki fuqaroviy da’vogarni ham kelishuv tuzish masalasini ko‘rib chiqish uchun jalb qiladi”. Bundan tashqari, prokuror kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqayotganda:

- 1) jinoyat ishi materiallarini va taqdim qilingan yoki talab qilib olingan qo‘sishmcha materialarni o‘rganadi, kelishuv tuzishning asoslarini tekshiradi, shuningdek gumon qilinuvchining, ayblanuvchining kelishuv predmeti bo‘lgan harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini baholaydi;
- 2) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvning barcha shartlari bilan tanishgan-tanishmaganligini, iltimosnomani ixtiyoriy ravishda va o‘z xohishi bilan, shuningdek himoyachi bilan muhokama qilganidan keyin bergan-bermaganligini, unga nisbatan biron-bir tazyiq yoki majburlov o‘tkazilgan-

o‘tkazilmaganligini, tuzilayotgan kelishuvning mohiyatini tushungan-tushunmaganligini aniqlaydi.

Shundan keyin prokuror, agar kelishuvga asosan hukm chiqarilib, jazo tayinlanganidan keyin gumon qilinuvchining, ayblanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuvarlar berganligi yoki tergovdan biron-bir muhim va ish uchun ahamiyatli bo‘lgan ma’lumotlarni qasddan yashirganligi, kelishuvda nazarda tutilgan shartlar va majburiyatlarni bajarmaganligi aniqlansa, hukm qayta ko‘rib chiqilishi mumkinligini aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqida iltimosnama bergen gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga tushuntiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsesual kodeksining 586<sup>4</sup>-moddasiga ko‘ra: “Prokuror aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- 1) aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani qanoatlantirish haqida;
- 2) aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani rad qilish to‘g‘risida.

Prokuror tomonidan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomaning rad qilinishi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va uning himoyachisini ushbu masala yuzasidan takroran iltimosnama berish huquqidan mahrum etmaydi”.

Endi esa e’tiborimizni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsesual kodeksining 586<sup>5</sup>-moddasida belgilanagan kelishuvning mazmuniga qaratamiz.

### **Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvda quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:**

1. kelishuv tuzilgan sana va joy;
2. kelishuv tuzayotgan prokuror to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
3. kelishuv tuzayotgan gumon qilinuvchining, ayblanuvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, boshqa ma’lumotlari, himoyachi haqidagi ma’lumotlar;

4. jinoyat sodir etilgan joy va vaqtning, shuningdek isbotlanishi lozim bo‘lgan boshqa holatlarning tavsifi;
5. Jinoyat kodeksining mazkur jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi, qismi, bandi;
6. gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha jazo tayinlash tartibi;
7. sodir etilgan jinoyatni fosh etish, jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni taqdim etish, jinoiy yo‘l bilan orttirilgan mol-mulkni aniqlash bo‘yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi kelishuv imzolanganidan keyin bajarishni o‘z zimmasiga oladigan harakatlar;
8. yetkazilgan zararning miqdori va uning o‘rni qoplanishi;
9. ushbu Kodeks 586<sup>3</sup>-moddasining beshinchи qismida nazarda tutilgan shartlarni bajarmaganlik oqibatlari.

Lekin shunisi e’tiborliki, agar ish bo‘yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida bir necha shaxs jalb etilgan bo‘lsa, aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv har bir gumon qilinuvchi, ayblanuvchi bilan alohida-alohida tuziladi. Kelishuv prokuror, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi tomonidan imzolanadi. Kelishuv imzolanguniga qadar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi kelishuv tuzish masalasini va uning oqibatlarini himoyachi bilan xoli qolib va maxfiy holda muhokama qilish huquqiga ega.

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishda himoyachining ishtiroki JPK 51-moddasiga ko‘ra majburiy hisoblanadi. Himoyachi ishtirokining majburiyligi gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquq va manfaatlarining qonun doirasida himoya qilinishining kafolati hisoblanadi. Himoyachi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishda gumon qilinuvchi va ayblanuvchi uchun ushbu kelishuvning tuzilishi uning uchun qanday ijobiylar salbiy oqibatlar olib kelishi mumkinligi haqidagi maslahatlarni berib borishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsesual kodeksining 586<sup>6</sup>-moddasiga ko‘ra: “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv imzolanganidan keyin ish bo‘yicha tergov va boshqa protsessual harakatlar o‘tkazish zarurati mavjud bo‘lmagan taqdirda prokuror ayblov xulosasini yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlab, ishni zudlik bilan sudga yuboradi. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv imzolanganidan keyin tergov va boshqa protsessual harakatlar o‘tkazish zarurati mavjud bo‘lgan taqdirda, prokuror ishni surishtiruv yoki tergov organiga yuboradi. Surishtiruvchi, tergovchi gumon qilinuvchining, ayblanuvchining aybini tasdiqlash uchun yetarli hajmda dalillarni to‘playdi. Agar ishni sudga qadar yuritish jarayonida jinoyatning aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvda nazarda tutilmagan boshqa holatlari aniqlansa, kelishuv o‘z kuchini yo‘qotadi. Bunda aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishni istisno etadigan holatlар aniqlangan taqdirda, jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritish umumiy tartibda olib boriladi. Agar aniqlangan holatlар aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishni istisno etmasa, kelishuv ushbu Kodeksning 586<sup>2</sup>—586<sup>4</sup>-moddalarida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining aybini tasdiqlash uchun dalillar to‘planganidan keyin surishtiruvchi, tergovchi ishni prokurorga taqdim etadi. Prokuror jinoyat ishi materiallarini besh sutka ichida ko‘rib chiqib, ayblov xulosasini yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlab, ishni aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv bilan birga sudga yuboradi. Agar ish bo‘yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida ishtirok etish uchun bir necha shaxs jalb qilingan bo‘lsa va ularning barchasi bilan ham aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilmagan bo‘lsa, o‘zi bilan kelishuv tuzilmagan gumon qilinuvchilarga, ayblanuvchilarga taalluqli materiallar ajratiladi va ular bo‘yicha ish yuritish umumiy qoidalarga rioya etgan holda amalga oshiriladi, bu haqda kelishuvda ko‘rsatiladi”.

Endi esa e’tiborimizni xorij amaliyotiga qaratamiz. Amerikalik yurist Donald Nyuman “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”ni prokuror va ayblanuvchi o‘rtasida o‘tkazilgan muzokaralardan keyingi ayblanuvchining arizasi deb hisoblaydi. Ushbu muzokaralarda ayblanuvchi prokuror tomonidan beriladigan kafolatlar, xususan,

ayblovning hajmini kamaytirish, hukm chiqarishda jazoni yengillashtirish evaziga sodir qilgan jinoyatiga iqror bo‘ladi, sud ham hukm chiqarishda iloji boricha o‘z vakolatlaridan maksimal darajada foydalanib sudlanuvchiga yengilroq jazo tayinlash yoki og‘ir jazoni boshqa yengilroq turdag'i jazoga almashtiradi<sup>61</sup>.

Yuqoridagi tartib-taomilning shakliy natijasi sudning buyrug‘i hisoblanadi. Sud buyrug‘ida ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan aybga iqrorlik bo‘yicha berilgan ariza ularning o‘z xohishi bilan berilganligi, unga nisbatan qo‘yilgan barcha ayblov mohiyatiga to‘liq tushungan va ularning qanday oqibatlar keltirib chiqarishi haqida vakolatli organlar tomonidan ogohlantirilganligi sudning buyrug‘i bilan ushbu kelishuv kuchga kirishi haqidagi ma’lumotlar bo‘ladi.

AQShda jabrlanuvchi, ayblanuvchi prokuror bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishida juda katta ahamiyatga ega protsess ishtirokchisi hisoblanadi. AQSh jinoyat protsessida aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv avtomatik tarzda ayblov hukmi chiqarishiga asos bo‘ladi va himoyachi tomonidan taqdim etilgan dalillar va sud ekspertizasi natijalari inobatga olinmaydi. Bundan tashqari, keyinchalik sudlanuvchining aybiga iqror bo‘lishi uning hukm ustidan shikoyat qilish va hatto jazoni belgilash huquqlarining doirasiga bevosita ta’sir qiladi. Ayblanuvchi bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni muhokama qilishdan oldin prokuror jabrlanuvchi bilan bir qancha masalalarni aniqlashtirib oladi. O‘z amaliy tajribasidan kelib chiqqan holda prokuror jabrlanuvchiga ayblovning kuchli va zaif tomonlarini tushuntirib o‘tadi hamda protsessning davomiyligi haqida o‘z taxminiy fikrlarini ham aytib o‘tadi. Jabrlanuvchi ayblanuvchi bilan aybiga iqrorligi yoki iqror emasligi to‘g‘risida yakuniy qarorni qabul qilmasa ham, prokurorning qarori jabrlanuvchining xohish-istiklariga mos kelishi amaliyotda yaxshi natijalarga olib keladi deb hisoblanadi<sup>62</sup>.

Dastlabki tergov organlari kelishuv predmetini yaratishga va natijada ayblanuvchini ayblovning bir qismini rad etish bilan bog‘liq shartlarni qabul qilib,

---

<sup>61</sup> [http://www.pravo.vuzlib.su/book\\_z652\\_page\\_18.html](http://www.pravo.vuzlib.su/book_z652_page_18.html)

<sup>62</sup> Курдова А.В. Практика применения ускоренного порядка рассмотрения уголовных дел судом в УПК РА (сравнительно-правовой анализ с законодательствами ряда европейских стран СНГ, США). Ереван (Армения). 2009. С 43.

o‘z aybini tan olishga ishontirishga harakat qiladi. O.V.Yevstegneyevanig fikricha: “AQSh huquqiy tizimi ayblanuvchiga nisbatan haddan tashqari erkinlik beradi, bundan tashqari, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishda ayblov doirasini o‘zgartirishga bo‘lgan mustaqillikni nazarda tutadi<sup>63</sup>.

**Bizning fikrimizcha,** bunday yondashuv nafaqat qonun ustuvorligini mustahkamlash to‘sinqilik qiladi, balki harbiy xizmatchilarni jinoiy javobgarlikka tortishni amalga oshiruvchi tergov va sud organlari faoliyatini ham obro‘sizlantiradi.

Amerika qonunchiligidagi ko‘ra, “Prokuror va sudlanuvchining advokati yoki ayblanuvchi mustaqil ravishda muzokara olib borishi va kelishuvga erishishi mumkin. Sud bu muhokamada ishtirok etmasligi kerak. Agar ayblanuvchi to‘liq o‘z aybiga iqror bo‘lsa yoki boshqa u tomonidan sodir etilgan deb taxmin qilinayotgan jinoyatlar yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar bo‘yicha aybiga iqror bo‘lsa, kelishuv bo‘yicha prokuror:<sup>64</sup>

1. xulosani yangi ayblov bilan to‘ldirmaydi va qo‘yilgan ayblovdan voz kechmaydi;
2. sudga ayblanuvchining yoki sudlanuvchining unga nisbatan muayyan jazoni tayinlash yoki jazoni muayyan miqdorda kamaytirish bo‘yicha bergen iltimosnomasini rad etmaslik hamda unga nisbatan Federal qoidalarda belgilangan jazo shaklini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Ko‘pgina aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvlar ayblov xulosasi tuzilib, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga taqdim etilganidan keyin tuziladi. Biroq, gumon qilinuvchi unga nisbatan ayblov e’lon qilinishidan oldin kelishuv bo‘yicha muzokaralarni boshlashi mumkin. Agar prokuror gumon qilinuvchidan boshqa jinoyatchi yoki jinoiy guruh rahbarlari haqidagi ma’lumotlarni aniqlash uchun foydalanmoqchi bo‘lsa, ayblov xulosasi e’lon qilinishidan oldin aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish maqsadga muvofiqdir. Buning natijasida

---

<sup>63</sup> Евстигнеева О. В. Сделка о признании вины» - международно-правовой институт в российском правовом поле // Правовые проблемы научного прогресса : Материалы заседаний Международной школы молодых ученых-юристов. Москва, 28-30 мая 2009 г. М. : Юриспруденция, 2010. С. 291-294.

<sup>64</sup> Там же. С 295.

prokuror bilan hamkorlik qila boshlagan shaxs jinoiy javobgarlikdan butunlay ozod etilishi mumkin. Bunday holatda hech qanday ayblov xulosasi tuzilmaydi.

AQShning soddalashtirilgan tartibda ish yurituvini tahlil qilar ekanmiz, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin.

Og‘ir jinoyatlar bo‘yicha yakuniy qarorga kelishda prokuror asosiy va faol rol o‘ynaydi. AQSh jinoiy protsessida ayblov, yuqorida aytib o‘tilganidek, ayblov xulosasi orqali amalga oshiriladi. Lekin ayblov xulosasi Katta Hakamlar hay‘ati tomonidan keyinchalik tasdiqlanishi kerak. Ayblov xulosasining boshqa shakli ham mavjud bo‘lib, u ayblov to‘g‘risidagi ariza deb nomlanadi (information). Ayblov to‘g‘risidagi ariza prokuror tomonidan bevosita sudga beriladi. Har qanday holatda ham prokuror sodir etilgan jinoyat to‘g‘risidagi ma’lumotlar va faktlar asosida qanday ayblov qo‘yish joiz bo‘lishi haqida obdon o‘ylab chiqishi kerak<sup>65</sup>.

Prokurorlar tomonidan qo‘yiladigan jinoyatga nomutanosib bo‘lgan ayblovlar qo‘yish natijasida yuzaga keladigan jazoning chegaradan oshib ketishi bilan bog‘liq muammolar tez-tez takrorlanib turadi. AQSh Yuristlar Assotsiatsiyasi yetarli dalillar bazasi bo‘lmagan holatda ayblovni qo‘llab-quvvatlamaslik kerakligi haqidagi va har qanday ayblov maqbul dalillar bilan mustahkamlanishini kerakligi haqidagi qoidani kiritishni maslahat berishdi<sup>66</sup>.

Hozirda pretsedent huquqi asosida AQSh Oliy sudi ayblov e’lon qilish bo‘yicha standartlarni ishlab chiqdi, unga ko‘ra: “Agar prokurorda ayblanuvchining haqiqattan ham jinoyat sodir qilganligi haqidagi asoslari bo‘lsa, ishni Katta hay‘at ko‘rib chiqishi uchun yuborishi kerak”<sup>67</sup>.

Nyu-York shtatidagi og‘ir jinoyatlar bo‘yicha chiqarilgan qarorlarni tahlil qilib, Odil sudlov muammollarini o‘rganish instituti prokurorlarning ko‘p holatlarda eng yuqri ayblovni qo‘yishadi, bu bilan ular Aybga iqrarlik to‘g‘risida kelishuv tuzishni ko‘zlashadi<sup>68</sup>.

<sup>65</sup> Лазарева В. Новый УПК: особый порядок принятия судебного решения при согласии обвиняемого с предъявленным ему обвинением // Уголовное право. 2002. № 2. С. 67-69

<sup>66</sup> Там же. С 69.

<sup>67</sup> Халиков А. Вопросы, возникающие при особом порядке судебного разбирательства // Российская юстиция. 2003. № 1. С. 63-65;

<sup>68</sup> Трубникова Т.В. Упрощенные судебные производства в УПК РФ // Материалы международной научно-практической конференции, посвященной принятию нового УПК РФ. М., 2002. С. 191-192.

Prokuror ayblov e'lon qilgandan keyin ayblanuvchiga aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishni taklif qilish va kelishuvning shartlari qanday bo‘lishi haqidagi masalasini ham hal qilib olishi kerak. “Jinoyat protsessi Federal qoidalari”ning 11-qoidasiga ko‘ra: aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv odatda yozma tarzda tuziladi. Amaliyotda kelishuvning yozma shaklda tuzilishi haqidagi qoidaga har doim ham amal qilinavermaydi. Prokuror kelishuvni yozma ravishda tuzishning o‘rniga qisqacha memorandum tuzishi mumkin yoki himoyachiga xat yozib yuborishi mumkin. Bundan tashqari prokuror himoyachiga aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish taklifini og‘zaki ravishda ham yetkazishi mumkin yoki buni ochiq sud majlisida bayonnomada aks ettirishi mumkin. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish taklifi sudyaning ishtirokisiz yoki sudya va himoyachi ishtirokida ham berilishi mumkin.

Prokuror kelishuv tuzish bo‘yicha birlamchi taklifni bergandan so‘ng ayblanuvchi va himoyachi o‘z imkoniyatlarini aniqlashtirib olishlari kerak. Himoyachi prokurorga o‘zining konrtaklifini bildirishi mumkin bu bilan u suddan jazo tayinlashdagi kafolatga erishishni maqsad qiladi.

Kelishuv tuzishdagi prokuroring rolini Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, e’tiborimizni RFning JPK 314-moddasiga qaratamiz. Unga ko‘ra: “Ayblanuvchi davlat ayblovchisi yoki xususiy ayblovchining va jabrlanuvchining roziligi bilan sudga o‘z aybiga iqrorligi va hukmni sud muhokamasisiz chiqarish to‘g‘risida iltimosnama kiritishi mumkin. Agar davlat ayblovchisi, xususiy ayblovchi yoki jabrlanuvchi ayblanuvchining iltimosnomasiga qarshi bo‘lsa, jinoyat ishi sudda umumiyl tartibda ko‘rib chiqiladi. Shundan so‘ng sudya maxsus tartibda ish yuritishni tugatish bo‘yicha va ishni umumiyl tartibda ko‘rib chiqish to‘g‘risida qaror chiqaradi”.

RF JPK 317<sup>1</sup>-moddasiga ko‘ra: “Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi prokuror nomiga kelishuv tuzish to‘g‘risida iltimosnama kiritishi mumkin”. Kelishuv tuzish bo‘yicha kiritilgan iltimosnama himoyachi tomonidan tergovchi orqali prokurorga beriladi. Prokuror kelishuv tuzish to‘g‘risidagi iltimosnomani va tergovchining iltimosnomani qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorini kelib tushgan kundan

boshlab 3 sutka ichida ko‘rib chiqadi. Prokuror iltimosnomani qabul qilish to‘g‘risida qaror qabul qilgandan so‘ng tergovchi, ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchini va ularning himoyachisini chaqiradi. Ularning ishtirokida prokuror kelishuvni tuzadi.

Datslabki tergov tugaganidan so‘ng jinoyat ishi prokurorga ayblov xulosasini tasdiqlash va kelishuv shartlarining gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan bajarilishini ta’minlash to‘g‘risida qaror chiqariladi.

**Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak**, prokuror aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishda vakolatli shaxs hisoblanib, davlat nomidan jinoiy ta’qib ni amalga oshiradi hamda kelishuv tuzishda dastlabki tergov organlarining protsessual faoliyati ustidan nazorat qiladi.

## **2.2. “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”ni tuzishda himoyachining roli**

“Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”ni tuzishda himoyachining roli va ahamiyatiga to‘xtalib o‘tishdan oldin milliy qonunchiligidagi himoyachi haqida berilgan ta’rifga to‘xtalib o‘tishimiz zarur. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsesual kodeksi 49-moddasiga ko‘ra: “Himoyachi gumon qilinuvchilarning, ayblanuvchilarning, sudlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga zarur yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir. Ishda himoyachilar sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Advokatning ishda ishtirok etishiga u advokat guvohnomasini ko‘rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo‘l qo‘yiladi. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosnomasi bo‘yicha surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan yo‘l qo‘yilishi mumkin. Himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo‘lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi”. Jinoyat-protsessual kodeksining 50-moddasiga ko‘ra esa, “Himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qonuniy vakillari, shuningdek gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosi yoki roziliги bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini ta’minlaydi. Tanlangan himoyachining yigirma to‘rt soat ichida ishda ishtirok etishga kirishishga imkoniyati bo‘lmagan hollarda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoxud ularning qarindoshlariga boshqa himoyachini taklif etishni yoki himoyachi tayinlashni so‘rab O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmalariga murojaat qilishni tavsiya etadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi tanlagan himoyachi

istalgan vaqtda ishda ishtirok etishga kirishishga haqlidir. Ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini yuridik yordam uchun to‘lovdan batamom yoki qisman ozod etishga haqlidir. Bunday hollarda advokat mehnatiga haq to‘lash xarajatlari Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat hisobidan bo‘ladi”. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsesual kodeksining 53-moddasida himoyachining huquq va majburiyatlarini sanab o‘tilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

Himoyachi: manfaatlarini himoya qilayotgan shaxsning nimada gumon qilinayotganligi yoki ayblanayotganligini bilish; advokatlik guvohnomasini ko‘rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan so‘ng ishda ishtirok etish; gumon qilinuvchi so‘roq qilinayotganda ishtirok etish, shaxsga ayblov e’lon qilinayotganda hozir bo‘lish hamda ayblanuvchi so‘roq qilinayotganda, shuningdek ularning ishtirokida o‘tkaziladigan boshqa tergov harakatlarida ishtirok etish va gumon qilinuvchilarga, ayblanuvchilarga, guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga savollar berish; boshqa tergov harakatlari yurgizilayotganda surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan ishtirok etish; o‘zi ishtirok etgan tergov harakatining yuritilishi xususida yozma mulohazalar berish; iltimosnama berish va rad etish; ushbu Kodeks 87-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq dalillarni to‘plash va taqdim etish; gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ishtirokida o‘tkazilgan protsessual harakatlarga oid hujjatlar bilan, surishtiruv yoki dastlabki tergov tamom bo‘lganidan keyin esa jinoyat ishining barcha materiallari bilan tanishish hamda undan zarur ma’lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o‘z hisobidan ko‘chirma nusxalar olish yoki ularda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni o‘zga shaklda qayd etish; agar himoyani amalga oshirish uchun zarur bo‘lsa, davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sirni o‘z ichiga olgan axborot bilan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda tanishish; sud tomonidan ish bo‘yicha dastlabki eshituv o‘tkazilayotganda va sud muhokamasida taraf sifatida ishtirok etish; surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish;

sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish va bu haqda o‘z mulohazalarini bildirish; ish bo‘yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlar to‘g‘risida bilish hamda ularga nisbatan e’tirozlar bildirish; appellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi majlislarida ishtirok etish huquqiga ega. Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi qamoqda saqlanayotgan yoki uy qamog‘ida bo‘lsa, himoyachi u bilan jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning ruxsatisiz, uchrashuvlarning soni va davom etish vaqtin cheklanmagan holda xoli uchrashishga haqli. Himoyachi o‘z vazifasini amalga oshirishi munosabati bilan bilgan ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emas. Himoyachi: gumonni yoki ayblovni rad etadigan yoxud javobgarlikni yengillashtiradigan holatlarni aniqlash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullarni qo‘llashi hamda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga zarur yuridik yordam ko‘rsatishi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo‘q qilish, soxtalashtirish, guvochlarni ko‘ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to‘sinqinlik qilmasligi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart. Ishda ishtirok etish haqida bitim tuzilgan yoki tayinlangan vaqtidan boshlab advokat himoyachi vazifasini bajarishni rad etishga haqli emas. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 52-moddasida himoyachidan voz kechish tartibi keltirib o‘tilgan bo‘lib, ushbu tartib quyidagicha: “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ish yuritishning istalgan paytida himoyachidan voz kechishga haqlidir. Bunday voz kechishga faqat gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining tashabbusi bilan va himoyachining ishda ishtirok etishiga surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan advokat taklif etish orqali ta’minlanadigan real imkoniyat mavjud bo‘lgandagina yo‘l qo‘yiladi, bunda advokat o‘z himoyasi ostidagi shaxs bilan xoli uchrashganidan keyin himoyadan voz kechilganligini tasdiqlaydi. Himoyachidan voz kechish jarayoni videoyoziuv orqali qayd etilishi shart. Himoyachidan voz kechganlik haqida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, shuningdek advokat, surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan imzolanadigan bayonnomma tuziladi yoxud sud majlisi bayonnommasiga yozib qo‘yiladi. Videoyoziuv materiallari bayonnomaga ilova qilinadi. Bunda himoyachining himoya ostidagi

shaxs bilan xoli uchrashishi videoyozuv orqali qayd etilmaydi. Himoyachidan voz kechish gumon qilinuvchini, ayblanuvchini yoki sudlanuvchini keyinchalik ishda himoyachi ishtirok etishiga ruxsat berish haqida iltimos qilish huquqidan mahrum qilmaydi. Bunday iltimos barcha hollarda qanoatlantirilishi kerak. Sud tergovi davomida himoyachining ishtirok etishi haqida berilgan iltimosnoma ishning holatlarini hisobga olib va sudlanuvchiga himoya huquqini ta'minlash manfaatlarini ko'zlab sud tomonidan hal etiladi. Himoyachining sud majlisi davomida ishga kirishishi sud tergovini qayta boshlash uchun asos bo'lmaydi".

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrdagi 17-sonli "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 14-,15-bandlariga ko'ra: "Jinoyat ishi bo'yicha himoyachi yordamidan foydalanish gumon qilinuvchining, ayblanuvchining huquqi hisoblanadi. Shu tufayli ham u ish yurituvning istalgan paytida himoyachidan voz kechishi mumkin. Himoyachidan voz kechganlik to'g'risida sabablari ko'rsatilgan holda yozma murojaat taqdim etiladi. Himoyachidan voz kechishga faqat gumon qilinuvchining, ayblanuvchining tashabbusi bilan va ushbu masala muhokama etilayotganda himoyachining real ishtiroki ta'minlangan holdagina yo'l qo'yiladi. Bunda ish materiallariga himoyachining ishda ishtirok etishga vakolati borligini tasdiqlovchi hujjat (advokatning orderi, qonuniy vakil vakolatini tasdiqlovchi hujjat va h.k.) qo'shib qo'yiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoyachidan voz kechishiga quyidagi hollarda yo'l qo'yilmasligi mumkin, agar u:

1. voyaga yetmagan bo'lsa;
2. jismoniy nuqsoni (kar, soqov, ko'r va h.k.) yoki ruhiy kasalligi tufayli o'zini o'zi himoya qilishga qiynalsa;
3. sudlov ishi yuritilayotgan tilni bilmasa;

4. umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan bo‘lsa.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlarda, appellatsiya, cassatsiya va nazorat instansiyasi sudida ko‘rilayotgan ishlarda, shuningdek himoyachidan voz kechish to‘g‘risida noilojlikdan (himoyachining mehnatiga haq to‘lash imkoniyatining yo‘qligi, ish bo‘yicha himoyachining hozir bo‘lmasligi va h.k.) arz qilingan hollarda ham himoyachidan voz kechish qabul qilinmasligi mumkin.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi himoyachidan uning mehnatiga haq to‘lash imkoniyati yo‘qligi sababli voz kechmoqchi bo‘lgan taqdirda, jinoyat ishini yuritishga mas’ul davlat organlarining mansabdar shaxslari JPK 50-moddasining to‘rtinchchi qismi qoidalariga binoan gumon qilinuvchini, ayblanuvchini bunday xarajatlardan to‘liq yoki qisman ozod etish chorasini ko‘rishlari kerak. Surishtiruvchi, tergovchi, sud (sudya), ishning murakkabligi va boshqa holatlari gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoya huquqini o‘zi amalga oshirishiga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin degan xulosaga kelsa, himoyachidan voz kechish to‘g‘risidagi arizani rad etishi mumkin. Biron bir sababga ko‘ra muayyan himoyachidan voz kechish hollari umuman himoyachi xizmatidan voz kechish deb qaralmasligi kerak. Himoyachidan voz kechish to‘g‘risidagi arizaning qanoatlantirilganligi yoki rad etilganligi haqida belgilangan namunada bayonnomma tuziladi hamda u gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi va surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan imzolanadi. Sud majlisida bu haqda majlis bayonnomasiga tegishli yozuv kiritiladi. Himoyachidan voz kechish gumon qilinuvchini, ayblanuvchini keyinchalik ishda himoyachi ishtirok etishini talab qilish huquqidan mahrum etmaydi. Bunday talab barcha hollarda qanoatlantirilishi lozim. Himoyachining ishga yangidan kirishishi o‘sha paytga qadar amalga oshirilgan protsessual harakatlar takrorlanishini taqozo etmaydi. Sud majlisi davomida himoyachining ishga kirishishi sud tergovini qayta boshlash uchun asos bo‘lmaydi.

Biroq, bu holda sud unga ish materiallari bilan tanishib chiqish va himoyasida bo‘lgan shaxs huquq va manfaatlari himoyasiga kirishishga tayyorgarlik ko‘rish uchun imkoniyat berishi kerak. Himoyachining u protsessga kirgunga qadar sud tomonidan so‘roq qilingan shaxslarni chaqirish haqidagi iltimosnomasi JPK 448-moddasida belgilangan tartibda hal etiladi. Ishda ishtirok etish haqida bitim tuzilgan yoki tayinlangan vaqtadan boshlab, advokat o‘z vazifalarini bajarishni rad etishga haqli emas, JPK 79-moddasida belgilangan hollar bundan mustasno”.

**Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi JPKning 79-moddasida himoyachining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardir:**

Himoyachi, shuningdek jabrlanuvchining, fuqaroviylar da’vogarning yoki fuqaroviylar javobgarning vakili quyidagi hollarda jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas, basharti u:

1) ilgari shu ish bo‘yicha sudya, xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabдор shaxsi, sud majlisining kotibi, guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon yoki xolis sifatida ishtirok etgan bo‘lsa;

2) ushbu ishning tergovida yoki sudda ko‘rilishida ishtirok etgan yoxud ishtirok etayotgan sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi yoki sud majlisining kotibi bilan qarindoshlik munosabatida bo‘lsa yoxud yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida u bilan bitim tuzgan protsess ishtirokchisining manfaatlariga manfaati qarama-qarshi bo‘lgan shaxs bilan qarindoshlik munosabatida bo‘lsa;

3) sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi lavozimida bo‘lsa, quyidagi hollar bundan mustasno: basharti u muomalaga layoqatsiz shaxslarning vakili bo‘lsa yoki o‘zi ishlaydigan va fuqaroviylar da’vogar deb e’tirof etilgan yoki fuqaroviylar javobgar tariqasida ishga jalb qilingan muassasaning vakili sifatida qatnashsa;

4) o‘z himoyasidagi gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki o‘zi vakillik qilayotgan jabrlanuvchining, fuqaroviylar

da'vogarning, fuqaroviylar javobgarning manfaatlariga manfaati qarama-qarshi bo'lgan shaxsga yuridik yordam ko'rsatayotgan yoki muqaddam shunday yordam ko'rsatgan bo'lsa.

Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvni tuzishda himoyachining ishtirok etishi shart bo'lgan holat sanaladi ushbu qoida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsesual kodeksining 586<sup>2</sup>-moddasiga ko'ra, "Kelishuv tuzish haqidagi iltimosnama gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi va, agar ishda qatnashayotgan bo'lsa, qonuniy vakili tomonidan imzolangan bo'lishi lozim". Ushbu normadan kelib chiqib shuni aytishimi mumkinki, himoyachi gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tomonidan tomonidan berilayotgan iltimosnomaning o'z mijoz uchun qay darajada samarali va qonuniy tuzilayotganligini tekshiruvchi hamda uni ayblovning ustun va kamchiliklari haqidagi ma'lumotlar bilan xabardor etuvchi shaxs hisoblanadi. Himoyachi imzosining shartligi esa JPKning 51-moddasidagi himoyachi ishtirok etishi majburiyligi haqidagi normaga borib taqaladi. Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqishda ham prokuror ushbu iltimosnama gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tomonidan himoyachi bilan ish holatlarini muhokama qilgandan so'ng berilgan yoki berilmaganligini tekshirishi ham himoyachining ushbu jarayonda qanchalik muhim ahamiyatga ega protsess ishtirokchisi ekanligidan dalolat beradi.

Endi esa e'tiborimizni xorijiy davlatlar qonunchiligidagi himoyachining aybga qirorlik to'g'risida kelishuv tuzishdagi ahamiyati va roliga qaratamiz.

AQShda aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzishda advokatning qatnashishi ushbu kelishuvning ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi tomonidan o'z xohishiga ko'ra tuzilayotganligining kafolatidir. Himoyachining asosiy vazifasi gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgandan keyingi kelib chiqadigan oqibatlar haqida va unga beriladigan kafolatlar haqida

tushuntirishlar berishdir. Shunday bo‘lsa ham kelishuv tuzish bo‘yicha ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining o‘zi yakuniy qarorga keladi<sup>69</sup>.

Himoyachi kelishuv tuzishda ushbu kelishuvning o‘z mijozisi uchun qanchalik foydali ekanligini baholash bilan birga, qo‘yilayotgan ayblovni baholaydi va mijozining jinoiy o‘tmishi haqidagi ma’lumotlarni aniqlashtiradi. Ayblanuvchining oldingi sudlanganlik holatlari ham himoyachining aybga iqrorlik bo‘yicha kelishuv tuzishni maslahat berishda e’tiborga olinadi. Amaliyotda ko‘pchilik himoyachilar ayblanuvchiga ta’sir o‘tkazmaslikka, asosan, ularning o‘z xohishi bilan kelishuvni tuzishlarining tarafdori. Ba’zi himoyachilar esa ayblanuvchiga maslahat berishda aktiv harakat qiladilar va kelishuv tuzishga ko‘ndirishadi<sup>70</sup>. Statiskaga ko‘ra, retsidevistlar birinchi marta jinoyat sodir etganlariga qaraganda aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni iloji boricha tezroq tuzishga harakat qiladilar. Retsidevitslar kelishuv tuzishga ko‘proq moyil bo‘lishiga qaramasdan ularga beriladigan kafolatlar nisbatan kamroq.

AQShning ba’zi shtatlarida “ochiq ishlar siyosati” deb ataluvchi amaliyot mavjud. Unga ko‘ra, himoyachi prokurorning ishtirokida jinoyat ishi materiallari bilan to‘liq tanishib chiqishi mumkin. Bu amaliyot ayblov va himoya tarafi o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi va kelishuv tuzishni osonlashtiradi. Ish bilan tanishib chiqib himoyachi ayblovning kuchli va zaif tomonlarini o‘rganib chiqib, ayblanuvchiga tegishli maslahatlar beradi.

Kelishuvni tuzishda eng zaruriy ahamiyatga ega omillar quyidagilardan iborat: ayblanuvchining jinoiy o‘tmishi, sodir etilgan jinoyatning og‘irlilik darajasi, dalillar bazasining asosliligidir. Himoyachi kelishuv tuzilayotgan paytda ayblanuvchiga tayinlanadigan jazoni yengillashtiruvchi dalillarni to‘plab etadi<sup>71</sup>. Himoyachilar jazoni yengillashtiruvchi omillardan, o‘z bilim va ko‘nikmalaridan kelib chiqib har xil foydalanadi. Lekin ko‘p holatlarda ushbu omillardan himoyachi ish materiallari bilan shaxsan tanishib chiqqandan so‘ng foydalanish startegiyalarini

<sup>69</sup> Курдова. А.В. Практика применения ускоренного порядка рассмотрения уголовных дел судом в УПК РА (сравнительно-правовой анализ с законодательствами ряда европейских стран СНГ, США)» Ереван (Армения). 2009.

<sup>70</sup> Махов В., Пешков М. Сделка о признании вины // Российская юстиция. 1998. № 7. С. 17-19;

<sup>71</sup> Фойницкий И.Я. Курс уголовного судопроизводства. Т. II. СПб.: Издательство «Альфа», 1996. С. 175-176.

yaratadi. Bu bilan himoyachi kelishuvning shartlarining o‘z mijozи uchun foydali va maqbul bo‘lishiga intiladi. Ayblanuvchi kelishuv bo‘yicha yakuniy qarorgа kelgandan so‘ng kelishuv shartlarini qabul qiladi yoki ishi sud muhokamasida ko‘rib chiqiladi. Maxsus tartibda ish yuritishning asosiy sharti bu himoyachining ayblanuvchi tomonidan o‘z xohishiga ko‘ra kelishuv tuzishga bergan roziliги asosidagi prokurorgа kiritgan iltimosnomasi va davlat ayblovchisi, jabrlanuvchining ham bunga norozi emasligidir.

RFda voyaga yetmagan ayblanuvchilar bilan aybga iqrорlik to‘g‘risida kelishuv tuzishning bir qancha shartlari mavjud: birinchidan, voyaga yetmagan ayblanuvchiga himoyachi shart; ikkinchidan, so‘roq qilish psixolog yoki pedagog ishtirokida amalga oshiriladi. Armaniston Respublikasi va RF JPKsida ayblanuvchi, uning himoyachisi va davlat ayblovchisi o‘rtasidagi muzokaralar masalasi hali hamon ochiq qolmoqda. Qozog‘iston Respublikasida hamkorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish bo‘yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum tomonidan iltimosnoma kiritish orqali amalga oshiriladi. Iltimosnoma yozma ravishda tuzilib himoyachining imzosi bilan mustahkamlanadi. Bu holatda iltimosnoma kiritishda himoyachining ishtiroki majburiy.

RF qonunchiliga ko‘ra, aybga iqrорlik to‘g‘risida kelishuv prokuror, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va himoyachining ishtirokida uncha katta bo‘lmagan kafolatlar evaziga tuziladi. RF JPKsining 63-bobi bir qancha kafolatlarni ko‘zda tutadi. Misol uchun, RF JPKsi 619-moddasida aybga iqrорlik to‘g‘risida kelishuv tuzish bo‘yicha berilgan iltimosnoma himoyachi tomonidan imzolanishi zarur. RF JPKsi 616-moddasining 2-qismiga ko‘ra: “Protsessual kelishuv tuzishdan oldin ayblanuvchi, gumon qilinuvchi yakkama-yakka alohida himoyachi bilan kelishuv tuzish masalasini muhokama qilish huquqiga ega”. RF JPKsining 13-bo‘limi aybga iqrорlik to‘g‘risida kelishuvni tuzish bilan bog‘liq barcha protsessual harakatlarda himoyachining ishtiroki kafolatlanadi. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga unga davlat tomonidan taqdim etilgan yoki o‘zi tanlagan himoyachi ishtirokida sud qilinishga bo‘lgan huquqlari tushuntiriladi. RF JPKning 67-moddasi 1-qismiga ko‘ra, protsessual kelishuv tuzish va kelishuv tuzish uchun iltimosnoma berish

bosqichida himoyaning ishtiroki shart hisoblanadi. Bundan tashqari, RF JPKning 619-moddasi 2-qismiga ko‘ra: “Agar himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonida ishga jalb qilinmagan bo‘lsa, tergov yoki jazoni ijro etish organi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan ishda himoyachining ishtirok etishi ta’minlanadi”. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv yozma shaklda tuzilishi zarur, ushbu kelishuvning shakli standart takomillashgan bo‘lishi zarur. Og‘zaki shaklda tuzilgan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv iltimosnama bilan mustahkamlanishi zarur. Shuni ta’kidlash lozimki, ayblanuvchi kelishuv tuzishdan oldin himoyachi bilan dastlabki maslahatlashuvlar qilish imkoniyati yaratilishi zarur. Bundan tashqari, ayblanuvchiga jinoyat ishi sudda muhokama qilinguncha bepul, malakali yuridik yordamdan foydalanish huquqi kafolatlangan. Ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta’minlamaslik kelishuvning nomaqbul ekanligi va ayblovning asosiz ekanligidan dalolat beradi<sup>72</sup>.

Agar aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv aldash, majburlash, asossiz yolg‘on kafolatlar berish orqali tuzilgan bo‘lsa, bundan kelishuv rad qilinadi<sup>73</sup>.

AQSh amaliyotida himoyachi himoyasi ostidagi shaxsga uning manfaatlariga zid kelsa ham kelishuv tuzishga undashi mumkin. Sudya esa kelishuvning qonun doirasida tuzilganligini va ayblanuvchining barcha huquqlari ta’minlanganligini tekshiradi.

**Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki**, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutini AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Armaniston va boshqa davlatlar tajribasi misolida o‘rganish davomida bu davlatlar qonunchiligidagi ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, sudlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni himoya huquqi bilan ta’minlash, aybga iqrorlik evaziga tayinlanishi kerak bo‘lgan jazoni yengillashtirish holatlari va soddalashtirilgan tartibda ish yuritish orqali barcha sarflanadigan chiqimlar va vaqtini tejash masalalariga alohida e’tibor berilgan.

---

<sup>72</sup> Антонов, А.Г. Деятельное раскаяние как основание освобождения от уголовной ответственности: автореферат дис. .... канд. юрид. наук. – Томск, 2000. – С. 19.

<sup>73</sup> Фридман Л. Введение в американское право. — М., 1993. С 43.

## **2.3. “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”ni ko‘rib chiqishda sudning vakolatlari**

O‘zbekiston Respublikasi JPK 586<sup>7</sup>-moddasiga ko‘ra: “Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvga doir ishlar umumiy tartibda, jinoyat ishi kelishuv bilan birga sudga kelib tushgan paytdan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ko‘rib chiqiladi. Sud majlisida sudlanuvchi, jabrlanuvchi (fuqaroviylar da’vogar), agar ishda ishtirok etayotgan bo‘lsa, qonuniy vakil, himoyachi, prokuror ishtirok etadi. Sud majlisi o‘tkaziladigan joy va sana haqida lozim darajada xabardor qilingan jabrlanuvchi (fuqaroviylar da’vogar) yoki uning vakilining kelmaganligi ishni ko‘rib chiqish uchun monelik qilmaydi. Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvga oid ishlar bo‘yicha sud muhokamasida prokuror kelishuvning mazmunini o‘qib eshittiradi, sudlanuvchining surishtiruv hamda dastlabki tergovga ko‘maklashganligini tasdiqlaydi va bu aynan nimada ifodalanganligini tushuntiradi”.

**Bundan tashqari, sud aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvga oid ishlarni  
ko‘rib chiqishda quyidagilarni aniqlashtirishi lozim:**

- 1.** kelishuvni tuzishda gumon qilinuvchining, ayblanuvchining protsessual huquqlari ta’milangan-ta’milanmaganligini va talablar bajarilmaganligini;
- 2.** kelishuvning gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda tuzilgan-tuzilmaganligini;
- 3.** gumon qilinuvchi, ayblanuvchi kelishuvning mohiyatini, uning shartlarini tushungan-tushunmaganligini, uning oqibatlarini anglab yetganligini;
- 4.** sudlanuvchi kelishuvni qo‘llab-quvvatlashi yoki qo‘llab-quvvatlanmasligini;
- 5.** gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yetkazilgan zararni bartaraf etish choralarini ko‘rgan-ko‘rmaganligini.

Shundan so‘ng, sud sudlanuvchi va uning himoyachisining, prokurorning, shuningdek zarur hollarda, jabrlanuvchining (fuqaroviylar da‘vogarning) fikrini eshitadi, shundan so‘ng qaror qabul qilish uchun alohida xonaga kiradi.

JPK 586<sup>8</sup>-moddasi talablariga ko‘ra: “Sud aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi qarorni ko‘rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini chiqaradi:

1. kelishuvni tasdiqlash to‘g‘risida;
2. kelishuvni tasdiqlashni rad etish va ishni prokurorga yuborish haqida.

Kelishuv tasdiqlangan hollarda, sud ayblov hukmi chiqaradi.

Sud aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi qarorni ko‘rib chiqib, agar:

1. kelishuvni tasdiqlash uchun asoslar mavjud bo‘lmasa yoki kelishuvni tuzishda protsessual qonunchilik talablari buzilgan bo‘lsa;
2. sud kelishuvda nazarda tutilgan sudlanuvchiga qo‘yilgan ayblovda jinoyatning malakalanishga taalluqli shartlarga rozi bo‘lmasa;
3. sudlanuvchining aybdorligi borasida sudda asosli shubha tug‘ilgan bo‘lsa;
4. taraflar tuzilgan kelishuvdan voz kechsa, kelishuvni tasdiqlashni rad etish haqida ajrim chiqaradi va jinoyat ishini umumiy qoidalar bo‘yicha tergov qilish yoki kelishuvni qayta ko‘rib chiqish uchun prokurorga yuboradi.
5. Sudning ajrimiga sudlanuvchi, jabrlanuvchi (fuqaroviylar da‘vogar), ularning qonuniy vakillari, himoyachi tomonidan xususiy shikoyat berilishi hamda prokuror tomonidan xususiy protest keltirilishi mumkin.

**Endi esa e’tiborimizni xorij amaliyotidagi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishdagi sudning vakolatlariga qaratamiz.**

Rossiyalik huquqshunos olimlarning fikricha, dastlabki tergov jarayonida faqat dastlabki eshituv tartibi joriy etilgandan keyingina aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutini qo‘llash mumkin<sup>74</sup>.

---

<sup>74</sup> Лазарева В. Новый УПК: особый порядок принятия судебного решения при согласии обвиняемого с предъявленным ему обвинением // Уголовное право. 2002. № 2. С. 67-69

“Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish” yoki “Maxsus tartibda ish yuritish” AQSh, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Angliya davlatlari qonunchiligidagi keng qo‘llaniladi. Shuningdek, Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv yuqorida sanab o‘tilgan tartibda ko‘rib chiqiladigan ishlar sirasiga kiradi<sup>75</sup>.

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv jarayonida sudning asosiy roli adolat va qonuniylikni ta‘minlash hisoblanadi. **Birinchidan**, sud adolatni ta‘minlash maqsadida kelishuv jarayonida bevosita qatnashishi mumkin. **Ikkinchidan**, sud ayblanuvchining kelishuvga hech qanday tashqi ta‘sirlarsiz, o‘z xohishiga ko‘ra rozilik bergenligiga ishonch hosil qilishi kerak. Qoida tariqasida sud ayblanuvchidan bu haqda bevosita so‘rashi kerak. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvning yakuniy xulosaviy ahamiyatga ega bo‘lgan shakli sud tomonidan chiqariladigan ayblov hukmi hisoblanadi. Ushbu hukm bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv kuchga kiradi.

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvlar AQSh harbiy sudlarida keng qo‘llaniladi. Harbiy sudlarda qo‘llaniladigan kelishuvlar harbiy sohada sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan tatbiq etiladi. Harbiy jinoyatlarga nisbatan tayinlanadigan maxsus jazolar ancha farqlanadi, masalan, harbiy xizmatni cheklash<sup>76</sup>. Katta ofitserlarga nisbatan qo‘llaniladigan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvda jabrlanuvchiga nisbatan yetkazilgan moddiy zararni qoplash va jinoiy sheriklar haqida tergov organlariga ma’lumotlarni taqdim etish shartlari aks etadi<sup>77</sup>.

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishning huquqiy asosi “AQSh okrug sudlaridagi Federal Jinoyat-protsessual qoidalari”dir. Ushbu qoidalalar sud aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni faqatgina ayblanuvchining sodir qilgan qilmishiga o‘z xohishi bilan iqror bo‘lganligini emas, balki bu kelishuvning aldash va qo‘rkitishlarsiz tuzilganligini tekshirish kabi majburiyat yuklaydi. Bundan tashqari sud ayblanuvchining prokuror va himoyachi bilan kelishuv tuzish bo‘yicha o‘tkazilgan muzokaralaridan so‘ng haqiqattan ham kelishuv tuzish uchun o‘z

<sup>75</sup> Боботов С.В. Жигачев И.Ю. Введение в правовую систему США. – М.: Изд-во НОРМА, 1997. – С. 187.

<sup>76</sup> Пешков М. А. «Сделка о признании вины» в уголовном процессе США и ее влияние на назначение наказания // Проблемы наказания по законодательству России и зарубежных стран. Материалы межвузовской научной конференции. М. : Изд-во УДН, 1999. С. 46-60.

<sup>77</sup> Milman J. Major Gets 17½ Years In Iraq Contract Case // Wall Street Journal. December 4. 2009. C 9.

xohishi bilan iltimosnoma kiritganligini aniqlashi shart. Sudya aybluvchining sodir qilgan qilmishi haqidagi faktlardan, uning aybini tasdiqlovchi dalillardan qanchalik darajada xabardor ekanligiga aniqlik kiritishi shart, aks holda ish umumiy tartibda ko'rib chiqiladi. Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvning amaliyotda qo'llanilish doirasini tahlil qilar ekanmiz, e'tiborimizni quyidagi normaga qaratamiz: "Kelishuvda ayblanuvchi, sudlanuvchiga boshqa jazo turi va miqdori tayinlanishi nazarda tutilgan bo'lsa ham, sudya xohlagan jazo turi va miqdorini tayinlash huquqiga ega, agar lozim topsa og'irroq turdag'i jazoni tayinlashi mumkin. Bunday holatda ayblanuvchiga aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv uchun kiritgan iltimosnomasidan voz kechish huquqi berilishi kerak. Agar sud ayblanuvchiga yengilroq turdag'i jazoni tayinlamoqchi bo'lsa, prokurorga aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzishga bergen rozilagini bekor qilish huquqi berilishi kerak.

Maxsus tartibdagi sud ish yurituvida ayblanuvchining o'z aybiga iqrorligi uzoq vaqtga cho'ziladigan sud jarayonlarini keskin soddalashtiradi. Federal qoidalarga ko'ra: "Ayblanuvchi jinoyat ishi materiallari bilan tanishib chiqqandan so'ng sud tergovi o'tkazilguncha ishni maxsus tartibda ko'rib chiqish to'g'risida yozma iltimosnoma kiritish huquqiga ega.

**Sud kelishuvning qonuniyligini tekshirib chiqib, maslahatxonada quyidagi qarorlardan birini chiqarishi zarur:**

1. agar aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvni tuzish uchun asos mavjud bo'lmasa, jinoyat ishini prokurorga qaytarib yuborish to'g'risidagi qaror;
2. agar sud sodir etilgan jinoyatning kvalifikatsiyasi yoki prokuror tomonidan so'rالган jazo turi va miqdoriga qarshi bo'lsa, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvni yangitdan tuzish uchun jinoyat ishini prokurorga qaytarib yuborish to'g'risidagi qaror;
3. agar sudda aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvning qonuniyligiga shubha tug'ilsa, jinoyat ishini prokurorga qaytarib yuborib, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvni rad qilish to'g'risidagi qaror;
4. agar sud tomonidan jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi asoslar aniqlansa, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror;

**5. aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv asosida jazo tayinlash to‘g‘risida ayblov hukmi.**

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishda sudya dalillar va ish bilan bog‘liq faktlarni umumiy tartibda tekshirib chiqishga majbur emas. Lekin ayblanuvchining shaxsiga oid holatlar va jazoni og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar tekshirib chiqilishi zarur.

### **III BOB. «AYBGA IQRORLIK TO'G'RISIDA KELISHUV»**

#### **INSTITUTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: XORIJIY TAJRIBA**

##### **3.1. AQSH sud tajribasida “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” huquqiy institutining ahamiyati va roli**

Xorijiy davlatlar tajribasini kuzatadigan bo‘lsak, uncha og‘ir bo‘lмаган жинойатларда айланувчи дарhol Sud oldida javobgarlikka tortiladigan Germaniya, Italiya, Fransiya каби Yevropa давлатларининг qonunchiligi va huquqni qo‘llash amaliyoti katta qiziqish uyg‘otadi.

Ishlarni ko‘rishning tezlashtirilgan va soddalashtirilgan tartibini qo‘llash bo‘yicha mayjud jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, aynan dastlabki tergov jarayonida tomonlar ishning mohiyati bo‘yicha o‘zaro kelishuvga erishadilar. Albatta, bunday yondashuv qonuniylik prinsipidan chetga chiqmaslik uchun shaxs huquqlarining protsessual kafolatlarining qo‘sishimcha mexanizmlarini ta‘minlashni talab qiladi, chunki жинойат protsessining soddalashtirilishi bilan bog‘liq har qanday mexanizmlar taraflar huquqlarining protsessual kafolatlari doirasining torayishiga olib keladi. Bundan tashqari, qonun hujjatlarida ayblanuvchining o‘z aybiga iqror bo‘lishi tergov organlarini aybsiz shaxsning javobgarlikka tortilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ishning holatlarini to‘liq aniqlashdan ozod qilmasligini ham nazarda tutilish kerak.

Xorijiy davlatlar жинойат protsessual qonunchiligidagi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutining shakllanishi va rivojlanishi uzoq yillarni o‘z ichiga oladi. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv instituti ham AQSh жинойат-protsessual qonunchiligida alohida ahamiyat kasb etadi va ushbu institut bir necha o‘n yillardan beri faol ishlayotgan, qo‘llanilayotgan institut hisoblanadi. AQSh sudyalarining fikricha, agar qonunchilikda ushbu soddalashtirilgan tartib mavjud bo‘lmasa, jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelgan bo‘lar edi xususan: sudyalarining ishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha ish ko‘lamining haddan tashqari ko‘payishiga va buning oqibatida ish samaradorligi keskin pasayishiga olib kelar edi<sup>78</sup>.

<sup>78</sup> Олдермен С.Б. Доклад. Сделка о признании вины в уголовном судопроизводстве штата Нью-Йорк. Нью-Йорк, 1998. С 60.

XX asrdagi sodir etilgan jinoyatlar sonining keskin oshishi, jinoyat sud ishlarini yuritish tizimining optimallashtirilishiga, ya’ni aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv bitimining amaliyotga tatbiq etilishiga sabab bo‘ldi, ushbu fikrlar amerikalik olimlar U.Bernam, D.Fisher va boshqalar tomonidan alohida ta’kidlanadi.<sup>79</sup>

Bir qancha amerikalik yurist olimlarning fikriga ko‘ra, so‘nggi bir yarim asrda odil sudlov institutining organik rivojlanishi, birinchi navbatda, jinoyatchilik darajasining oshishi natijasida huquqni muhofaza qilish organlarida ko‘riladigan ishlarning sezilarli darajada oshishi bilan bog’liq.

Shunday qilib, amerikalik olim D.Fisherning ta’kidlashicha, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish yo‘li bilan ko‘rilgan jinoiy ishlar ulushi kuchli kriminologik omillar ta’sirida jinoyatchilik darajasi keskin oshgan davrda eng yuqori darajaga yetgan. XIX asr o‘rtalarida iqtisodiy munosabatlar sohasida uyushgan jinoyatchilikning paydo bo‘lishiga olib kelgan sanoat va transport inqilobi; Birinchi jahon urushidan keyin Yevropa davlatlaridan aholining AQShga ommaviy immigratsiyasi, buning natijasida yirik etnik jinoiy guruqlar, jumladan, italyan mafiyasining amerikacha versiyasi - cosanostra paydo bo‘ldi; voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ko‘payishiga olib kelgan ikkinchi jahon urushidan keyingi “Baby boom”; XX asrning ikkinchi yarmida giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishining o‘sishi va boshqalar)<sup>80</sup>. Bunday sharoitda AQSh huquqtartibot tizimi jinoiy ishlar bo‘yicha protsessual tejamkorlika erishish va sud-tergov organlaridagi ish ko‘lamini kamaytirish imkonini beradigan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv bitimlari ko‘rinishidagi adekvat protsessual institutni ishlab chiqishga majbur bo‘ldi.

“Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” AQSh okrug sudlaridagi Federal Jinoyat-protsessual qoidalarining 11-qoidasi (E bandi)da o‘zining protsessual huquqiy asosini topdi, Ushbu kelishuv yozma va og‘zaki shaklda tuzilishi mumkin

<sup>79</sup> Fisher G. Plea bargaining’s triumph: a history of plea bargaining in America. Stanford, 2003. С 467.

<sup>80</sup> Иванов. А.А. Правовое регулирование института сделок о признании вины в США//Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2012, № 2 (1), с. 282–286.

bo‘lgan shartnoma hisoblanadi. E bandi 6 qismdan iborat, ushbu qismlar esa kichik bandlardan iborat bo‘lib, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishni batafsil tartibga soladi. Ikkala shakl uchun ham qonunda nazarda tutilgan maxsus rasmiylashtirish tartibi mavjud bo‘lib, u federal suda, ayblanuvchi, uning himoyachisi va prokuror ishtirokida sud kotibi (suda yordamchisi, professional yurist) tomonidan amalga oshiriladi. Ba’zi hollarda jabrlanuvchining ishtirokida ham rasmiylashtiriladi.<sup>81</sup>

11-qoidaga ko‘ra, agar kelishuvga erishilmasa, prokuror ayblanuvchining muhakamalar chog‘ida bergen ko‘rsatmalaridan (“Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”) sud muhokamasida foydalanishga haqli emas. AQSh Federal sudlarida Federal Jinoyat-protsessual qoidalarining 11-qoidasiga muvofiq, “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” odatda yozma shaklda tuziladi. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni og‘zaki va yozma ravishda tuzishda ishtirok etishga rozi bo‘lish orqali ayblanuvchi muayyan konstitutsiyaviy va protsessual qoidalardan voz kechadi. Eng muhim, bu unga AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan VI tuzatish bilan kafolatlangan hakamlar hay’ati sud muhokamasidan voz kechishdir.<sup>82</sup> Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv ayblanuvchining aybiga oid prokuror va himoyachi o‘rtasidagi har qanday nizolarni bartaraf etadi. Kelishuv shunchaki sudyalar hay’atining ayblov hukmining o‘rnini bosadi.

Shunday qilib, bugungi kunda odil sud bilan kelishuv instituti AQShning federal qonunchiligida, shuningdek Alyaska, Nyu-Orlean, Ventrua grafligi (Kaliforniya) va Oklend grafligi (Michigan) dan tashqari deyarli barcha shtatlarning qonunchiligida mavjud, ushbu okruglarda aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv mahalliy qonunchilik bilan taqiqlangan.

Aytish mumkinki, demak, “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” har qanday tortshuvchanlik jarayonida muqarrar bo‘lgan xavfdan xalos bo‘lish vositasidir. Ma’lumki, sud jarayoni holat va faktlarni aniqlashning mukammal usuli emas. Ko‘pgina omillar - advokat yoki prokurorning professional mahorati, guvochlarning mavjudligi, sudyaning munosabati, hakamlar hay’ati va hatto oddiy omad - natijaga

---

<sup>81</sup> Там же.

<sup>82</sup> [http://studbooks.net/1041998/pravo/ponyatie\\_znachenie\\_uskorennogo\\_proizvodstva](http://studbooks.net/1041998/pravo/ponyatie_znachenie_uskorennogo_proizvodstva)

ta'sir qiladi. Shunday qilib, kelishuv tuzishda tomonlarning har biri birinchi navbatda sud jarayoniga xos bo'lgan xavfni cheklashdan manfaatdordir. Aksariyat aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvlar ayblov xulosasidan keyin amalga oshiriladi. Biroq, gumon qilinuvchi ayblov xulosasi e'lon qilinishidan oldin kelishuv bo'yicha muzokaralarni boshlashi mumkin. Agar prokuror gumon qilinuvchidan boshqa jinoyatchilarga qarshi guvohlik berish uchun foydalanmoqchi bo'lsa, masalan, jinoiy guruh boshlig'i haqidagi ma'lumotlarni aytishni taklif qilishi ayblov xulosasini e'lon qilishdan oldin aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvni tuzish jarayonida foydalidir<sup>83</sup>. Buning natijasida prokuror bilan hamkorlik qila boshlagan shaxs jinoiy javobgarlikdan butunlay ozod etilishi mumkin. Bunday holatda ayblov xulosasi e'lon qilinmaydi va boshqa sheriklar gumon qilinuvchining prokuror bilan hamkorligi to'g'risida bilib olishlariga to'sqinlik qiladi.

Klassik modelning o'ziga xos xususiyati shundaki, prokuror va ayblanuvchi, uning himoyachisi o'rtasidagi kelishuv og'zaki va yozma bo'lishi mumkin - hatto qonunda nazarda tutilgan rasmiylashtirish tartibi ham mavjud bo'lib, u sud kotibi tomonidan federal suda, ayblanuvchi, uning himoyachisi va jabrlanuvchi ishtirokida amalga oshiriladi. Amerika jinoyat protsessida "parallel tergov" deb ataluvchi advokat tomonidan to'liq amalga oshiriladigan protsessual harakati mavjud bo'lib, ish bo'yicha to'plangan dalillarga qarab, tomonlarning har biri kelishuvni taklif qilishi mumkin. Shu bilan birga, har bir tomon sudda o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, ushbu tartib-taomilni rad etishi mumkin.

Barcha holatlarda aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv ayblov hukmini chiqarishga olib keladi. Shu bilan birga, birinchi holatda ayblanuvchi hukm ustidan shikoyat qilishga, sud tomonidan fuqarolik da'volari nuqtai nazaridan belgilangan holatlarga har qanday asoslar bo'yicha e'tiroz bildirishga haqli emas, protsessual qonun buzilishlari bundan mustasno. Ikkinci va uchinchi holatda ayblanuvchi

---

<sup>83</sup> Курдова А.В. Практика применения ускоренного порядка рассмотрения уголовных дел судом в УПК РА (сравнительно-правовой анализ с законодательствами ряда европейских стран СНГ, США). Ереван (Армения). 2009.

fuqarolik da'volari bilan bog'liq holatlar to'g'risida bahslashish huquqidan mahrum etilmaydi.

AQSH jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'ra, jinoyatni tergov qilishda hamkorlik ayblanuvchining sheriklarini fosh qilishda ifodalanishi mumkin; ayblanuvchi qilmish bilan bog'liq bo'lмаган boshqa jinoyatlarni sodir etishda ishtirok etgan shaxslarni fosh etish; tergovga noma'lum bo'lган dalillar manbalari to'g'risida xabar berish va tergovga boshqa yordam ko'rsatishi mumkin.

Yozma shaklda tuzilgan aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvdan chetga chiqishga tomonlarning haqqi yo'q. Lekin prokuorning kelishuv doirasida bir qancha vakolatlari mavjud. Bular: ayblov hajmini o'zgartirish va yengilroq jazoni nazarda tutuvchi normaga o'zgartirish, jazoning aniq miqdori va turini belgilash, jazo muddati yoki miqdorini kamaytirish, sinov muddati va reabilitatsiya qilish, shuningdek, yangi ayblovlarni kiritishni rad etish. Kelishuv sudga taqdim etiladi. Sud kelishuvni ko'rib chiqib, jinoyat ishining materiallarini o'r ganib, ayblanuvchiga berilgan kafolat shartlarini haddan tashqari ortiqcha yoki jamoat manfaatlariga zid deb hisoblasa, ularga rozi bo'lmaslikka haqli.

Sudning bu harakatlari ayblanuvchiga kelishuvni bekor qilish huquqini bermaydi. Ayblanuvchi tomonidan uni tuzishga majburlangan yoki uni tuzish tartib-taomillari sezilarli darajada buzilgan taqdirdagina kelishuvni bekor qilish mumkin. Bunday sharoitda kelishuvni bekor qilishga jinoyat protsessining istalgan bosqichida yo'l qo'yiladi. Sud ish bo'yicha hukm chiqarishda sodir etilgan jinoyatga daxldor dalillarning yetarligiga va uni sodir etishda aynan biror shaxsning haqiqattan ham ishtirok etganmi yo'qligini tekshiradi. Jazo miqdorini kamaytirish kafolatlari berilgan taqdirda, kelishuv sud tomonidan ayblanuvchiga nisbatan yangi huquqbazarliklar sodir etmaslik, reabilitatsiya kursini o'tash, davolanish yoki mutaxassislar bilan maslahatlashish kabi shartlar bilan to'ldirishi mumkin<sup>84</sup>.

---

<sup>84</sup> Felony Arrests: Their Prosecution and Disposition in New York City's Courts // Vera Institute of Justice. New York, 2010. C 147.

AQSh Federal Jinoyat-protsessual qoidalarining 11-bo‘limi normalarining tahlili aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv shartlarining mazmuniga qarab alohida turlarga ajratish imkonini beradi.

**Himoya tomoni o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarga qarab, quyidagi turdagি kelishuvlarga bo‘linadi:**<sup>85</sup>

1. o‘z aybiga iqrorlik bo‘yicha kelishuv (guilty plea):
2. regularly guilty plea («odatiy» aybga iqrorlik bo‘yiha kelishuv). Ayblov hukmini chiqarishga olib keladi. Ayblanuvchini hukm ustidan shikoyat qilish, shuningdek sud tomonidan unga nisbatan chiqarilgan hukmdan kelib chiqadigan fuqarolik da‘volarini har qanday asoslar bo‘yicha ko‘rib chiqishda belgilangan holatlar ustidan shikoyat qilish huquqidан mahrum qiladi, protsessual huquqbazarliklar bundan mustasno.;
3. nolo contendere plea yoki nocontestplea (Iqror emasman, lekin bahslashmayman). Yuridik jihatdan ayblanuvchining o‘z aybiga iqror emasligini bildiradi, biroq ayblanuvchining birinchi instansiya sudi tomonidan unga nisbatan jazo tayinlanishiga e’tiroz bildirmaslik majburiyatidan kelib chiqib, bu aybga iqrorlikka tenglashtiriladi.

Kelishuvning ushbu turi prokuror uchun ham, jabrlanuvchi uchun ham unchalik manfaatli emas. Shu munosabat bilan sud nolo-contendereplea ni qabul qilmaslik va uni odatiy aybga iqrolik bo‘yicha kelishuv sifatida qayta tasniflash huquqiga ega. Ushbu kelishuv turi “iqrorman, lekin bahslashaman” sifatida ifodalanishi mumkin. Bu ayblanuvchining aybni birinchi instansiya sudida ham, apellyatsiya tartibida ham mohiyatan e’tiroz bildirish huquqini saqlab qolgan holda, aybga iqrorlikni anglatadi.

Nolocontendereplea singari, **alfordplea** kelishuvi sud tomonidan ayblov hukm chiqarilishiga olib keladi, ayblanuvchini chiqarilgan hukm ustidan shikoyat qilish huquqidан mahrum qilmaydi, shuningdek, yuzaga keladigan fuqarolik da‘volarini ko‘rib chiqishda sud tomonidan belgilangan holatlar ustidan shikoyat qilish huquqidан mahrum qilmaydi (sud alfordplea kelishuvini odatiy aybga iqrorlik

---

<sup>85</sup> Дубовик Н. Сделка о признании вины» и «особый порядок»: сравнительный анализ // Российская юстиция. 2004. № 4. С. 47.

to‘g‘risida kelishuv sifatida qayta tasniflash huquqiga ega). Kelishuvda ayblovning mohiyati batafsil yoritiladi, ya’ni ayblanuvchi o‘z aybiga iqror ekanligi yoki nocontest masalasiga alohida e’tibor beradi.

Kelishuv shartlarini tanlashda tomonlar keng miqyosda erkindir. AQShning kontinental huquq oilasiga kiruvchi boshqa xorijiy mamlakatlardan farqli ravishda, prokuror ayblanuvchiga nisbatan moddiy jinoiy-huquqiy da’volar erkinligiga, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni tuzishda ayblov doirasini o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishga haqli: <sup>86</sup>

- jazoning aniq miqdori va turini belgilash yoki (sentencebargains)da nazarda tutilgan jazo muddatining yuqori chegarasiga nisbatan kamroq bo‘lgan muddatni prokuror ayblovda qo‘llab-quvvatlashi;
- jazo turini belgilash to‘g‘risida;
- jazo muddati yoki miqdorini belgilash/cheklash to‘g‘risida;
- sinov muddatini belgilash/cheklash (probation).

AQSH Federal Jinoyat-protsessual qoidalarining 11c Nizomi qoidalariga muvofiq, odil sudlovga oid bitimlar prokuror va ayblanuvchi o‘rtasidagi maxfiy muzokaralar orqali tuziladi. Ushbu muzokaralarda himoyachi ham ishtirok etadi, ammo sudlanuvchi uning ishtirokini rad etishi mumkin. Barcha hollarda, odil sudlov bilan kelishuv tuzishda himoyachi unga ishonch bildirgan ayblanuvchining pozitsiyasi bilan hisoblashadi.

Kelishuv taraflar tomonidan yozma ravishda imzolanadi, shundan so‘ng u sudga taqdim etiladi, sud uni tasdiqlashi, rad etishi yoki u bo‘yicha qarorni probatsiya komissiyasining dastlabki xulosasi o‘rganib chiqilgunga qadar kechiktirishi mumkin (ushbu organ probatsiya tarzidagi jinoiy jazolarni ijro etish bilan shug‘ullanadi)<sup>87</sup>.

Shunday qilib, sud kelishuv shartlarini muhokama qilishda ishtirok etmaydi, lekin ularni tasdiqlaydi. Kelishuv shartlari ayblov tomoni uchun majburiy, sud

---

<sup>86</sup> Евстигнеева О.В. Сделка о признании вины» –международно-правовой институт в российском правовом поле // Правовые проблемы научного прогресса. М.: Юриспруденция, 2010. С. 291.

<sup>87</sup> Новиков С.А. Я виновен»: доказательственное значение собственного признания вины в современном уголовном процессе России // Правоведение. 2009. № 1. С. 141.

uchun emas, chunki agar kelishuv shartlari jamoat manfaatlariga daxl qiladigan bo‘lsa, sud ushbu kelishuvni rad etishi mumkin.

AQSh Federal Jinoyat-protsessual qoidalariga muvofiq aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni bekor qilish faqat ayblanuvchini uni tuzishga majburlash yoki uni tuzish tartibini buzish bilan bog‘liq holda taqdim etiladi. Boshqa hollarda ham ayblanuvchiga, ham prokurorga nisbatan odil sudlov bilan kelishuvlarni bekor qilish taqiqlanadi.

Aksariyat shtatlarda odil sudlov bilan kelishuv jinoyat protsessining istalgan bosqichida: dastlabki tergov jarayonida, sud muhokamasida yoki sud hukmini apellyatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqish bosqichida tuzilishi mumkin. Masalan, birinchi instansiya sudi tomonidan ish qayta ko‘rib chiqilgandan keyin ayblov hukmi bekor qilingandan so‘ng, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuziladigan holatlar kamdan-kam uchraydi. Uchrab turadigan holatlarda ham, asosan, dalillar bazasining yetarli emasligi sababli sudyalar hay’atining oqlov hukmi chiqarishidan qo‘rqib amalga oshiriladi<sup>88</sup>.

AQSh jinoiy protsessida odil sudlov bilan kelishuvdan foydalanishning keng tarqaganligi, ular shartlarining “standart bitimlar” deb ataladigan doirada birlashtirilishiga olib keldi. (standarddeal).

Har bir mahalliy prokuratura boshqarmasida sodir etilgan jinoyatning turi va ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv uchun maxsus namunaviy shakllar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar ayblanuvchi bilan Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan taqdirda jinoyatni uncha og‘ir bo‘limgan jinoyatga qayta malakalash mumkin bo‘lgan variantlarini belgilaydigan o‘ziga xos “narxlar ro‘yxati”dir<sup>89</sup>.

---

<sup>88</sup> Дементьев О.М. Сделка о признании вины» – сравнительно-правовой анализ некоторых аспектов // Вопросы правоведения: Выпуск 5. Тамбов: Изд-во Тамбовского государственного технического университета, 2005. С. 91.

<sup>89</sup> Евстигнеева О.В. Сделка о признании вины» – международно-правовой институт в российском правовом поле // Правовые проблемы научного прогресса. М.: Юриспруденция, 2010. С. 291.

### **3.2. “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” instituti Fransiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Italiya, tajribasi misolida**

Fransiya huquqi tizimi kontinental huquqi tizimiga kiradi, shuning uchun ham huquqning asosiy manbai qonundir. Fransiya jinoyat-protsessual huquqi manbalari tizimiga Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (1789), 1958-yilgi Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa qonun hujjatlari kiradi.

Fransiya jinoyat protsessining bosqichlari quyidagilardan iborat: 1) surishtiruv; 2) jinoyat ishini qo‘zg‘atish; 3) dastlabki tergov - sudgacha bo‘lgan bosqichlar; 4) sud muhokamasi; 4) sud qarorini qayta ko‘rib chiqish yoki shikoyat qilish.

Fransiya jinoyat-protsessual qonunchiligini tahlil qilar ekanmiz, A.V.Baxnovskiyning fikriga e’tibor qaratamiz. Ushbu olimning fikricha: “Fransiya qonunchiligi ilg‘or jahon tajribasi va xalqaro huquq talablariga javob beradi”. Fransiya jinoyat-protsessual qonunchiligidagi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv instituti 1999-yildan beri mavjud.<sup>90</sup>

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvlar faqat kodeksda qat’iy belgilangan jinoyatlar toifasi uchun tuzilishi mumkin, ular uchun tayinlanadigan jazo besh yildan oshmaydi<sup>91</sup>.

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvning tashabbuskori dastlabki tergov organlari hisoblanadi. Bu kabi tashabbusni javobgarlikka tortilayotgan shaxs yoki uning advokati ham kiritishi mumkin. Kelishuv tuzish to‘g‘risidagi taklif ish sud tomonidan ko‘rib chiqilgunga qadar berilishi mumkin. **Kelishuvning predmeti ayblanuvchi tomonidan o‘z aybiga iqror bo‘lish shartini bajarishdir. Buning evaziga ayblanuvchiga jarima, litsenziyadan mahrum qilish, transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish, muayyan muddat davomida ov qilish huquqidan mahrum qilish, jamoat ishlari va jinoyat tufayli jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash tarzidagi jazo tayinlanish**

<sup>90</sup> The law of France LOI no 99-515 du 23 juin 1999 renforçant l’efficacite de la procedure penale (rectificatif). URL: <http://legifrance.gouv.fr/affichTexte.do?cidTexte=JORFTEXT000000762827>

<sup>91</sup> Yehonatan G. The Comparative Law And Economics Of Plea Bargaining: Theory And Evidence Harvard Law School Cambridge. MA 02138, Discussion Paper No. 39(7) 2011. URL: [http://www.law.harvard.edu/programs/olin\\_center/fellows\\_papers/pdf/](http://www.law.harvard.edu/programs/olin_center/fellows_papers/pdf/) Givati\_39.pdf

**kafolatini oladi.** Agar ayblanuvchi bu taklifni qabul qilsa, kelishuv sudyaga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Agar ayblanuvchi taklifni qabul qilmasa yoki uning shartlarini bajarmasa, ish odatdagи tartibda ko‘riladi. Sud kelishuv shartlarini amalga oshirish va ayblanuvchining sodir etgan jinoyati haqiqattan ham to‘g‘ri malakalanganligini tekshiradi. Sud hal qiluv qarorini qabul qilish jarayonida neytrallikni saqlagan holda kelishuvning shartlarini bekor qilishi mumkin. Kelishuv ayblanuvchining ayblov hukmi ustidan shikoyat qilish huquqidан mahrum etmaydi<sup>92</sup>.

Fransiya qonunchiligi bo‘yicha soddalashtirilgan tartibda ishlarni ko‘rib chiqish faqat ma’muriy va jinoiy huquqbazarliklar bo‘yicha amalga oshiriladi. Ma’muriy huquqbazarliklar bo‘yicha ishlar axloq tuzatish tribunallarida ko‘rib chiqiladi. Soddalashtirilgan tartibda jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish politsiya tribunallarida amalga oshiriladi. Bu kabi huquqbazarliklar uchun tayinladigan jazo **ikki oydan oshmaydigan ozodlikdan mahrum qilish qilish bilan cheklanadi.** **Bundan tashqari bu ishlar politsiya tomonidan tuziladigan bayonnomalar orqali sirdan ko‘rib chiqiladi.** Ishni sudga tayyorlash bosqichi Fransiya qonunchiligidagi mavjud emas. Sudda oldindan tayyorgarlik jarayoni yo‘q. Politsiya tribunal išni quyidagi asoslarga ko‘ra qabul qiladi: 1) sudyaning tashabbusi bilan sudlanuvchiga yuborilgan chaqiruv qog‘ozi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri chaqiruv); 2) sudlanuvchining ixtiyoriy ravishda kelishi; 3) tergov organlarining išni sudga oshirish to‘g‘risidagi qarorlari<sup>93</sup>.

Bundan tashqari, jinoyat išini sudda ko‘rilishi yanada soddalashtirilishi mumkin: kam ahamiyatli qilmishlar faktini aniqlagan politsiya agentiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri jarima to‘lash. Ushbu tartib-taomil “kelishuv bo‘yicha jarima” deb ataladi. Bu politsiyaga huquqbazarlikning huquqiy mohiyati va javobgarlik shakli (jinoiy yoki ma’muriy) to‘g‘risida mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi. Jarima to‘lash jinoiy javobgarlikdan ozod etmaydi, lekin jinoyat išini tugatishi mumkin.

---

<sup>92</sup> Judge Peter J. Messitte. Plea bargaining in various criminal justice systems. Uruguay, 2010. [Электронный ресурс]. URL: [http://www.law.ufl.edu/pdf/academics/centers/cgr/11th\\_conference/Peter\\_Messitte\\_Plea\\_Bargaining.pdf](http://www.law.ufl.edu/pdf/academics/centers/cgr/11th_conference/Peter_Messitte_Plea_Bargaining.pdf). С 17.

<sup>93</sup> <http://www.kalinovsky-k.narod.ru/p/2000-1.htm>

Yuridik jihatdan jarima to‘lash huquqbuzarlik sodir etilganlik faktini ayblanuvchi tomonidan faktini tan olganligini anglatadi<sup>94</sup>.

Fransiyada prokuror kam ahamiyatli jinoyatlar uchun gumon qilinuvchiga 1 yildan ortiq bo‘lmagan qamoq jazosini taklif qilishi mumkin; agar kelishuvga erishilsa, sudya ham uni tasdiqlashi kerak. Fransiyadagi ba’zi olimlarning fikricha, odil sudlov bilan kelishuv institutining amaliyotga to‘liq tatbiq etilishi shaxsning himoya bilan bog‘liq huquqlariga jiddiy ravishda daxl qiladi, aybsizlik prezumpsiysi kabi konstitutsiyaviy prinsipni buzadi, gumon qilinuvchilarning politsiyada qamoqqa olinishi va odil sudlovga bo‘lgan huquqlariga ham zarar yetkazadi.

Jinoyatlarni soddalashtirilgan tartibda tergov qilishning klassik shakli Fransiya jinoyat-protsessual qonunchiligidagi quyidagi shartlari mavjud: jinoyat sodir etilayotgan paytda yoki sodir etilgandan so‘ng darhol aniqlanganda, gumon qilinuvchi fuqarolar tomonidan ta‘qib etilganda yoki sodir etilgan jinoyatga aloqador jinoyat predmetlari bo‘lib, ushbu predmetlarda gumon qilinuvchiga tegishli izlar topilsa, topilgan dalillar gumon qilinuvchining sodir etilgan jinoyatga to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqasi borligini tasdiqlasa, jinoyat turar joylarda sodir etilsa va ushbu turar joyning egasi prokuror yoki sud politsiyasi ofitserini sodir etilgan jinoyat bo‘yicha guvohlik berishini talab qilsa.

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvlarning asosiy maqsadi sud hay’atining og‘ir sudlovlardan qochish va sud chiqimlarini iloji boricha tejashdir.

Fransiyada tezlashtirilgan ish yuritish tartibida surishtiruv olib borilayotganda gumon qilinuvchi va ayblanuvchining protsessual ishtirokchi sanalmaydi. Tergov materiallari jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsga, shuningdek uning himoyachisiga tanishish uchun taqdim etilmaydi. Surishtiruv organining qarorlari ustidan shikoyat qilish mumkin emas, ish materiallari bo‘yicha bo‘yicha yagona bayonnomma - rapport

---

<sup>94</sup> <http://www.pravoznavec.com.ua/books/212/16553/30/>

tuziladi, unda sodir etilgan jinoyat to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlar, jinoyat sodir etgan shaxsning va boshqa shaxslarning tushuntirishlari aks ettiriladi<sup>95</sup>.

2008 va 2009-yillarda qabul qilingan yangi qonunga ko‘ra aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvlar sudga yetarli va asosli guvohlarning ko‘rsatuvlari, audiovisual vositalar orqali olingan dalillar asosida sudga tasdiqlash uchun yuboriladigan bo‘ldi. Ushbu tartib-taomil uzoq davom etuvchi sud muhokamalarini va ayblanuvchiga nisbatan qo‘llaniladigan ehtiyyot choralariga ketadigan vaqt ni tejaydi.

Huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik masalalari, 1999-yildagi “Jinoiy sud ishlarini yuritish” Qonunining 2, 4 va 12-bo‘limlari aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv muzokaralariga oid munosabatlarni tartibga soladi, Prokuror va ayblanuvchi o‘rtasida jazoni yengillashtirish maqsadida tuziladigan kelishuvlar doirasi va turlarini belgilaydi. 1999-yildagi “Jinoiy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi” Qonunning 8-bo‘limiga ko‘ra, prokurorlar jabrlanuvchilar bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni muhokama qilishlari va ularning fikrini bilishlari kerak. Shunga qaramay, Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksining normalariga ko‘ra, prokurorlarga diskretsion vakolatlar berilgan bo‘lib, ular o‘z tashabbusi bilan yoki ayblanuvchi yoki uning advokatining tashabbusi bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishlari mumkin. (Jinoyat-protsessual kodeksining 38-bobi, 433- 438-bo‘limlari).

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv to‘g‘risidagi ishlar ochiq sud tartibida ko‘riladi. Bunda sud barcha dalillarni o‘rganib chiqishi va kelishuvni tuzish uchun asoslarni aniqlashi kerak. **Fransiya Jinoyat-protsesual kodeksining 3-bo‘lim 41-2, 41-3-moddasi “Okrug prokurorlarining vakolatlari”deb ataladi. Bu norma 1999-yilda Fransiya jinoyat protsessual kodeksiga kiritilgan.**

**Fransiya Jinoyat-protsesual kodeksining 41-2-moddasiga ko‘ra: “Okrug prokurori” jinoyat sodir etgan voyaga yetgan shaxsga bevosita yoki uning vakiliga “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” tuzishni taklif qilishi mumkin.**

---

<sup>95</sup> Уголовно-процессуальное законодательство в современных условиях: проблемы теории и практики: сб. статей/(Абрамочкин В.В. и др). – М.-волтерс Клювер. 2010. С 161.

**Bunday holatda shaxs o‘zi tomonidan sodir etilgan jioyatni haqiqattan ham sodir etganiga iqror bo‘lishi va buni tan olishi kerak. Agar shaxs sodir etgan jinoyatini tan olsa, unga nisbatan jarima yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi kafolati beriladi.**

**Javobgarlikdan ozod qilishning bunday turi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:**

- Davlat g‘aznasiga 3750 yevrodan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima to‘lash yoki modda sanksiyasida nazarda tutilgan jarima miqdorining yarmi to‘lanadi. Shu bilan birga, jarima jazosini tayinlashda shaxsning moddiy ahvoli ham inobatga olinadi;
- Jinoyat quroli davlat foydasiga musodara qilinishi;
- Transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish (bu huquqdan mahrum qilish muddati 6 oydan oshmasligi kerak);
- Haydovchilik guvohnomasini topshirish (6 oydan oshmasligi kerak);
- Ov qilish huquqini beruvchi ruxsatnomani topshirish (6 oydan oshmasligi kerak);
- Majburiy jamoat ishlari tayinlash (haftada 60 soatdan oshmasligi kerak, 6 oygacha muddatga tayinlanadi).

Ayblov va himoya tarafi o‘zaro kelishuvga erishishlari uchun prokuror jazo bo‘yicha o‘zining taklif va tavsiyalarini ko‘rsatgan holda kelishuvni tasdiqlash uchun sudga yuboradi. Agar tomonlar o‘rtasida o‘zaro kelishuvga erishilmasa, sudlanuvchi kelishuvda belgilangan shartlardan birortasini bajarishdan bosh tortib, ish bo‘yicha to‘liq sud muhokamasi o‘tkazilishini talab qilishga haqli.

“Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv faqat qat’iy ro‘yxatdagi jinoyatlar bo‘yicha tuziladi. Misol uchun, malakalanmagan tajovuz, tahdid qilish, malakalanmagan bosqinchilik, qasddan zarar yetkazish, tuhmat, hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo‘lish, o‘q-dori va qurolga noqonuniy egalik qilish, mast

holda avtotransport vositasini boshqarish va boshqalar bo‘yicha kelishuv tuzish mumkin<sup>96</sup>.

Kelishuv tuzilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar turini sanab o‘tar ekanmiz, e’tiborimizga Fransiya Jinoyat-protsesual kodeksi VII bo‘limiga qaratildi. Bu bo‘lim “Soddalashtirilgan tartib-taomillar” (Simplified procedures) deb nomlanadi. **Kelishuv tuzish mumkin bo‘lgan jinoyatlar turlari ushbu kodeks 495-moddasida keltirib o‘tilgan bo‘lib ular quyidagilar:**

- 1) Yo‘l harakatlari kodeksida (Traffic Code) ko‘rsatib o‘tilgan huquqbazarliklar, basharti ular JPK da ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar sifatida tasniflansa;
- 2) Yo‘l harakati kodeksi (Traffic Code) da belgilangan huquqbazarliklar;
- 3) Tijorat kodeksidaning IV qism, IV bo‘limida sanab o‘tilgan huquqbazarlik, ushbu huquqbazarliklarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanilmaydi.

**Lekin bu tartib-taomilning o‘ziga xos mustasno holatlari mavjud:**

1. Ayblanuvchi jinoyat sodir etgan paytgacha 18 yoshga to‘lgan bo‘lishi kerak;
2. Sodir etilgan jinoyatning jabrlanuvchisi dastlabki tergov davomida yoki dastlabki eshituvda yoki JPKning 495-1- moddasida nazarda tutilgan tartibda jabrlanuvchi sudga murojaat qilgan bo‘lsa;
3. Yo‘l harakati kodeksida nazarda tutilgan huquqbazarlik bilan bir paytda qasddan odam o‘ldirish yoki shaxsga zarar yetkazish jinoyati sodir etilgan bo‘lsa.

JPKning 495-1-moddasiga ko‘ra, ayblanuvchi bilan kelishuvga erishilgan taqdirda unga jinoiy-huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash uchun ish sud raisiga yuboriladi. Bundan so‘ng ishni qabul qilgan sud raisi yoki ish ko‘rish tayinlangan sudya ayblanuvchiga nisbatan qo‘llaniladigan jarima jazosi yoki boshqa qo‘srimcha jazo tayinlash haqida qaror qiladi. Agar sudya ishni bo‘yicha to‘liq sud muhokamasi o‘tkazilishi kerak degan fikrga kelsa yoki shaxsga nisbatan ozodlikdan

---

<sup>96</sup> Ministère de la Justice. Circulaires de la direction des Affaires criminelles et des Graces // Bulletin Officiel du Ministere de la Justice. 2001. № 83. P. 69-70.

mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llash zarur deb topsa, sudya ish materiallarini prokurorga qaytarib yuboradi.

Sudda ishni ko‘rishning alternativ turi JPKning VIII bo‘limida nazarda tutilgan (Appearance after prior admission of guilt). Bu shaklning qo‘llanilishi ba’zi huquqbazarliklar bilan chegaralangan, ularga nisbatan qo‘llaniladigan jazo turi jarimani yoki besh yildan oshmaydigan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llaniladi (JPK 495-7-modda).

Yuqoridagi moddaga ko‘ra, “Okrug prokurori o‘z xohishiga ko‘ra ham, ayblanuvchi yoki uning himoyachisining xohishiga ko‘ra agar ayblanuvchi o‘zi tomonidan sodir qilingan barcha jinoyatlarga iqrор bo‘lsa, ushbu tartibda ishni ko‘rishga taklif kiritishi mumkin. Agar ish shu tartibda ko‘riladigan bo‘lsa, prokuror tomonidan so‘raladigan jazo miqdori bir yildan oshmasligi yoki modda bo‘yicha tayinlanishi kerak bo‘lgan jazoning yarmidan oshmasligi kerak (JPK 495-8-modda).

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, shaxs sodir etgan jinoyati bo‘yicha “aybga iqrорlik to‘g‘risida kelishuv” tuzish jarayoni himoyachining ishtirokida unga prokuror tayinlanishi mumkin bo‘lgan jazoni to‘liq tushuntirgan holatda o‘tkaziladi. Shundan so‘ng jinoyat ishi darrov okrug sudi raisi yoki ish ko‘rish tayinlangan boshqa sudya raisligida prokuror aniqlagan barcha materiallar asosida sud muhokamasida ko‘rib chiqiladi (JPK 495-9-modda).

Sud muhokamasida birinchi ayblanuvchi va uning himoyachisiga so‘z berilgandan va ish bo‘yicha faktik holatlar o‘rganib chiqilgandan, sodir etilgan jinoyat to‘g‘ri malakalanganligiga ishonch hosil qilingandan so‘ng sudda raislik etuvchi prokurorning qarorini tasdiqlaydi yoki rad qiladi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, Fransiya jinoyat-protsessual qonunchiligidagi AQSh qonunchiligidagi kabi taraflarning, ya’ni himoya va prokurorning kelishuvga erishishi jinoyat ishi sudda ko‘riliши учун imperativ xarakterga ega emas (JPK 495-12-modda).

### **Shunday qilib, fransuz va amerikancha modelni tahlil qilib quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:**

1. AQSh modeli ish bo‘yicha tezroq qarorga kelishni nazarda tutadi (jazoni haqida kelishib olish va inkriminatsiya qilingan jinoyatni to‘g‘ri malakalash).

Fransuzcha model qat’iy tuzilgan bo‘lib, jinoiy jazolarni ma’muriy xarakterga ega jazo bilan almashtirish imkoniyatini ko‘zda tutadi, faktik jihatdan qaraganda bu jinoyatni depenalizatsiya qilishdir (hozirda ushbu amaliyot Yevropa davlarlari jamiyati uchun to‘laqonli foydali hisoblanadi) <sup>97</sup>.

**2.** Fransuzcha model to‘la amerikancha modeldan o‘zlashtirilmagan, lekin ushbu amaliyot suddagi ko‘riladigan ishlar sonini keskin kamaytirishni ko‘zlagan.

**3.** AQSh modelida asosiy e’tibor jinoyat ishlarini ko‘rish tezligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ayblanuvchi o‘z aybiga to‘la iqrор va jinoyat haqiqattan ham shaxs tomonidan sodir etilganlik fakti aniqlanadi..Bundan asosiy maqsad formal sud chiqimlari va ishni ko‘rishga sarflanadigan vaqt ni tejashdir.

**4.** Fransuz amaliyoti esa biroz boshqacha, bu nafaqat sud xarajatlarini istisno qiladi, balki sud jarayoni natijalarini individual jazodan (jinoyatchiga nisbatan) ijtimoiy foydali (masalan, majburiy jamoat ishlari) ga o‘zgartiradi. Bu jihat biz uchun yanada ilg‘or va foydaliroq ko‘rinadi va uning aniq tartibga solinishi sharti bilan javobgarlikka tortiladigan shaxslar huquqlarining munosib kafolati hisoblanadi.

**“Aybga iqrорlik to‘g‘risida kelishuv” instituti Germaniya Federativ Respublikasi tajribasi misolida.** “Aybga iqrорlik to‘g‘risida kelishuv” huquqiy instituti, ba’zi mamlakatlarda, xususan, AQSh sud amaliyotida keng tarqalganiga qaramay, sof yuridik jihatdan yashirin hodisa bo‘lib qolmoqda. Kelishuv tuzish jarayonining o‘zi, kelishuv shartlari ketma-ketligi va ularni qabul qilish tartibi, qilinadigan taklifning mohiyati ham protsessual tartibga solish doirasidan tashqarida qoladi. Shunga ko‘ra, aybga iqrорlik to‘g‘risida kelishuv instituti ko‘pgina davlatlarda ularning qonunchiligiga moslashtirilgan holda tatbiq etilmoqda.

Tadqiqotchi J.Langbeynning fikricha: “Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligidagi “aybga iqrорlik to‘g‘risida kelishuv” mavjud emas”. Ushbu fikr

---

<sup>97</sup> Mireille Delmas- Marty. Les grands systèmes de politique criminelle. Paris, 1992. P. 159-163,278-293.

o'sha paytdagi mamlakatdagi mavjud me'yoriy-huquqiy bazada o'z isbotini topadi. Bu yondashuv ko'plab tarafdlarga ega edi.<sup>98</sup>

Boshqa tadqiqotchilarning fikri yuqoridagi fikrga mutlaqo qarshi edi<sup>99</sup>. Olimlar Absprachen institutini "aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv"ning bir ko'rinishi deya iddao qilishdi. Chunki Abshprachen dastlabki eshituvdan oldin ham, sud muhokamasi paytida ham tomonlar tomonidan tuzilar edi. Olimlar orasida aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvni tuzish uchun to'g'ridan to'g'ri aniq normaga havola qilinishi kerak degan fikr borligi uchun ushbu institutni bu sohada ilg'or tajribaga ega davlatlar qonunchiligidan Germaniya qonunchiligiga moslashtirish masalasi keng muhokamaga qo'yilgandi<sup>100</sup>.

Bu institutning Germaniya milliy qonunchiligiga implementatsiya qilinishi ko'rib chiqiladigan jinoiy ishlarning soni oshishiga, ularga sarflanadigan o'rtacha vaqtning qisqarishiga va sudyalarining ish samaradorligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatardi. Asosiy e'tibor giyohvand vositalarining noqonuny aylanmasi, atrof-muhitga zarar yetkazish, iqtisodiyot sohasiga bog'liq jinoyatlarga qaratildi<sup>101</sup>.

"Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv" tarafdlari bu institutning kafolatlari haqida fikr yuritib, kelishuvga sud majlisiga tayyorgarlik ko'rish paytidami yoki bo'lmasa sud muhokamasining o'zida erishilishi kerak degan masalaga anqlik kiritishga harakat qilishardi. Kelishuvni kafolati sifatida prokuror ablovning biror qismidan voz kechishi va suda sudlauvchiga tayinlanishi kerak bo'lgan jazodan kamroq jazo tayinlashi kerak bo'ladi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Germaniya jinoyat protsessida "odil sudlov bilan bitim"ning dastlabki shakllari ko'proq "iqrorlik"ka (confession)ga o'xshardi; ba'zi olimlarning fikricha bu sudlanuvchining o'z aybiga chin ko'ngildan pushaymonligiga o'xshardi. Bu fikr o'z tasdig'ini GFR Jinoyat-protsessual kodeksining 254-bo'limida topadi. Unga ko'ra, shaxning o'z aybiga iqror bo'lishi

<sup>98</sup> Weigend T. Abgesprochene Gerechtigkeit - Effizienz durch Kooperation im Strafverfarhern? // JuristenZeitung [JZ]. 1990. № 45. S. 774, 775.

<sup>99</sup> Herrmann J. Bargaining Justice - A Bargain for German Criminal Justice? // U. Pitt. L. Rev. 1992. №53. P. 755-757.

<sup>100</sup> Detlef D. Der strafprozessuale Vergleich II Strafverteidiger. 1982. № 2. S. 545.

<sup>3H</sup>Roxin C. Strafverfahrensrecht. München, 1998. S. 95.

odil sudlovni amalgalashuvchining amaliga oshirishga va javobgarlikni yengillashtirishga olib keladi. Tabiiyki, sudlanuvchining o‘z aybiga iqror bo‘lishi va chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishi protsess boshqa ishtirokchilarining vazifasini osonlashtirdi, lekin bu tartib-taomil sud majlisining o‘tkazilishini bekor qilmadi.<sup>102</sup>

Kelishuvning nemischa varianti shunisi bilan qiziqliki, kelishuvni tuzishdan oldin misol uchun dastlabki eshituvdan oldin sudlanuvchi ish materiallari bilan tanishib chiqishi mumkin, buning natijasida sudlanuvchi dalillar bazasi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish bilan birga o‘z imkoniyatlarini ham baholashi mumkin bo‘ladi. Amerikancha variantga to‘xtaladigan bo‘lsak, AQSh Oliy sudining ta’kidlashicha, prokurorning taraflar kelishuvga erishguncha ish materillari bilan sudlanuvchini tanishtirish kabi konstitutsiyaviy majburiyati mavjud emas<sup>103</sup>.

Mavjud tafovutlarni tahlil qilar ekanmiz, GFR qonunchiligiga AQSh kelishuv institutini to‘liq ko‘chirish mumkin emas. Chunki AQShdagi sud amaliyoti asosan tortishuvchanlik prinsipi asosida ish yuritadi, GFR jinoyat protsessual qonunchiligidagi esa asosiy e’tibor sodir etilgan jinoyatlarni to‘la ochishga asoslanadi. O‘z navbatida, ikkala protsessual madaniyat o‘rtasidagi farq amaliyotning to‘liq o‘zlashtirilishiga yo‘l qo‘ymaydi<sup>104</sup>.

GFR haqiqatan ham ehtiyyotkor islohotlar yo‘lidan bordi, chunki “odil sudlov bilan kelishuv” huquqiy institutining asl variantini rasmiy ravishda joriy etish jinoyat protsessining huquqiy tuzilishida ko‘plab qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarar edi. O‘zgarishlar bo‘ldi, lekin ular huquq normalaridan amaliyotga emas, aksincha, amaliyotdan huquqiy normalarga o‘tdi. Aksincha bo‘lganda, huquqiy tizimning o‘zi ham islohotga dosh bera olmagan bo‘lardi.

Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 155-bo‘limning 2-bandi ko‘ra: “bitim” tuzilayotganda sudya neytrallikni saqlagan holda taraflarning ariza va iltimosnomalariga qo‘shilolmaydi. Sudyaning birdan-bir

---

<sup>102</sup> Herrmann J. Bargaining Justice - A Bargain for German Criminal Justice? // U. Pitt. L. Rev. 1992. №53. P. 764.

<sup>103</sup> Дело United States v. Ruiz, 536 U.S. 622 (2002).

<sup>104</sup> Langer M. From Legal Transplants to Legal Translations: The Globalization of Plea Bargaining and the Americanization Thesis in Criminal Procedure // Harvard International Law Journal. 2004. № 1.P.41.

maqsadi kelishuv tuzilayotganda ish bo‘yicha aniqlangan dalillar va faktlarni tekshirib, ular asosida qonuniy, adolatli qaror chiqarishdir (244-bo‘lim 2-band). O‘z-o‘zidan aniq bo‘ladiki, sudya sudlanuvchining o‘z aybiga iqrorligi va kelishuv tuzish istagini ro‘kach qilib, dastlabki eshituvni o‘z xohishiga ko‘ra bekor qilolmaydi va ishni ko‘rishda davom etadi. Shunday qilib, huquqiy institutni amalga oshirish jarayonining mumkin bo‘lgan rivojlanishini amaliy tushunish natijasida eng katta vakolatlar sudyaning qo‘lida to‘planishi oqilona qaror edi. (institut jinoyat protsesiga tergov tusli xarakter berdi).

Yuqori sud instansiyalaring prokuror, himoyachi va ayblanuvchi bilan tuzgan kelishuviga munosabatini Federal Konstitutsiyaviy sudning 1987-yil 27-yanvardagi qarori misolida ko‘rishimiz mumkin<sup>105</sup>. Xususan, ushbu bitimlar maqbul qachonki, ular asosiy huquq normalari va protsessual prinsiplarga zid kelmasa.

Bundan tashqari, ushbu amaliyotni implementatsiya qilish jarayonida yangicha yondashildi, ya’ni tergov jarayonining umumiy prinsip va qoidalarining ishlash tendensiyasiga zarar yetkazmaslik uchun “odil sudlov bilan kelishuv” kategoriyasi “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” bilan uyg‘unlashtirildi.

Germaniya jinoyat-protcessual qonunchiligini isloh qilish jarayoniga juda ehtiyyotkorlik va aniq munosabatda bo‘lindi. Sudya oldiga keladigan ishlar sonining ko‘payishi (ularning aksariyati to‘plangan va inkor etilmaydigan faktlar to‘plamidan iborat edi) va sudlanuvchining ishni tezda ko‘rib chiqishga tayyorligi kelishuvlar tuzish amaliyotining rivojlanishiga yordam berdi. “Odil sudlov bilan kelishuv” huquqiy instituti jinoyat-protcessual qonunchiligidagi bevosita aks etmagan bo‘lsa ham, jinoyat-protcessual muhitida o‘z qiymatini yo‘qotmadi.

Yangi paydo bo‘lgan “Odil sudlov bilan kelishuv” huquqiy instituti protsess ishtirokchilarining rolini o‘zgartirmadi: sodir etilgan jinoyatlarga doir ish materiallari va dalillarni o‘rganib chiqib, o‘z ichki ishonchiga asoslangan holda yakuniy qaror chiqaruvchi markaziyo o‘ringa ega sudya; jinoyat protsessining tergov

---

<sup>105</sup> Решение Bundesverfassungsgericht [BverfGE] (Федерального конституционного суда) от 27 января 1987 г. процитировано в работе: Gallcmid V. Absprachen im Strafprozess //Neue Zeitschrift fur Strafrecht. 1987. S. 419.

qilish xarakteriga ega prinsiplarni saqlashga ko‘maklashuvchi himoya va ayblov taraflari orqa planga o‘tib qoldi. “Kelishuv”ni tuzishning asosiy sharti shaxsning o‘zi sodir etgan jinoyatning tarkibini to‘laqonli tan olishidir.

“Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”ning jinoyat sud ishlarini yuritishda bir qancha foydali tomonlari mavjud. Avvalambor, bu protsessual institut jinoyat ishlarini ko‘rish tartib-taomillarini osonlashtiradi, jinoiy odil sudlov sarflaydigan kuch va moddiy chiqimlarni qisqartiradi. Lekin ushbu institutning Germaniya jinoyat-protsessual qonunchiligidagi qo‘llanilishi **ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган, uncha og‘ир bo‘лмаган jinoyat ishlarini ko‘rishda qo‘llaniladi**. Bundan tashqari bu institut qo‘llanilishi bilan jinoyat sodir etilgan vaqt bilan unga nisbatan yakuniy xulosa qilish vaqt oralig‘ini qisqartiradi, ayblanuvchi va sudlanuvchining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini, korrupsiya, giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanmasi va boshqa o‘ta muhim ishlarni tergov qilishda guvohlardan kerakli ma’lumotlarni olishda, jinoyatning boshqa ishtirokchilarini aniqlashda, jinoyatning sodir etilishidagi sabab va shart-sharoitlarni qisqa muddatda aniqlashda juda katta yordam beradi.

Nemis yuristlari o‘z jinoyat-protsessual qonunchiligini ayblov-tergov xarakterga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Agar prokuratura tomonidan jamoat ayblovi qo‘llab-quvvatlansa, jinoyat protsessi ishtirokchilarining iltimosnomalariga bog‘liq bo‘lмаган holda sud tomonidan ish holatlari to‘liq aniqlanadi.

AQSh, Angliyadan farqli ravishda kontinental Yevropa davlatlari ushbu institutning qo‘llanilishiga juda ehtiyyotkor munosabatda. Shu o‘rinda R.R.Sarkisyantsning fikriga qo‘shilmaslikning iloji yo‘q, uning fikricha, bunga sabab ikkala davlat modelidagi ikki xil jinoyat sud ish yurituvida judda katta farq mavjudligidir<sup>106</sup>.

Isbot qilish protsess prinsiplariga e’tibor qaratsak, nemis jinoyat-protsessual kodeksining klassik tipga kiradi. Hozirgi kunga qadar Germaniya qonunchiligidagi

---

<sup>106</sup> Саркисянц Р. Р. Досудебное соглашение о сотрудничестве – зарубежный опыт [Электронный ресурс] / Проблемы местного самоуправления. Интернет-журнал. URL: <http://www.samoupravlenie.ru/46-12.php> (дата обращения: 11.05.2016).

“Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” instituti mavjud emas. Lekin huquqni qo‘llash amaliyotida “Jinoyat-protsessual kelishuv”i deb ataladigan tajriba mavjud.

M.Frommanning fikricha, Germaniya jinoyat-protsessual qonunchiligidan kelishuv tuzishni tartibga soluvchi qoidalarning yo‘qligi amaliyotda bunday kelishuvlardan norasmiy ravishda foydalanishga olib keldi, shu bilan birga, bu holat ayblanuvchiga bosim o‘tkazish, HMQO bilan hamkorlik qilishga, jinoyatga aloqador dalillarni to‘plashga majburlash bilan bog‘liq noqonuniy xattiharakatlarning sodir etilishiga ham yo‘l ochib berdi<sup>107</sup>.

Germaniyada Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutini tahlil qilish natijasida «Absprachen» – «kelishuv» deb ataluvchi tartib-taomil paydo bo‘ldi. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institut tarafdarlari yagona konsepsiya ustida bosh qotirishardi. Ushbu konsepsiya ko‘ra, sudlanuvchi o‘z aybiga iqrorligini dastlabki eshituv davrida tan oladi, prokuror esa aybloving bir qismini olib tashlaydi. Bir qancha muhokamalardan so‘ng GFR parlamenti 2009-yil 28- mayda “Jinoyat sud ishlarini yuritishda kelishuvni qo‘lash amaliyoti to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi.

Ushbu Qonun Germaniya Jinoyat-protsesual kodeksiga yangi bo‘limning kiritilishiga sabab bo‘ldi. Bu bo‘limda nazarda tutilishicha, sud dastlabki eshituv davrida va ishning natijalari bo‘yicha lozim topsa, protsess ishtirokchilar bilan kelishuv tuzishi mumkin. Kelishuvning predmeti ayblanuvchining o‘z aybiga iqrorligi natijasida yuridik jihatdan unga nisbatan tayinlanishi kerak bo‘lgan jazoning miqdorining kamaytirilishidir<sup>108</sup>.

Jinoyat protsessi ishtirokchilariga mustaqil ravishda HMQO bilan hamkorlik qilish yoki aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish taklifi bilan murojaat qilish huquqi berilgan. Kelishuv tuzishdan oldin, ya’ni dastlabki eshituvdan oldin sudlanuvchi ish materiallari bilan tanishib chiqib, tergov jarayoni qanday ketayotganligi va ayblov tomonining dalillar bazasi qanday ekanligi haqida umumiyligi

<sup>107</sup> Frommann M. Regulating Plea-Bargaining in Germany: Can the Italian Approach Serve as a Model to Guarantee the Independence of German Judges? / HANSE LAW REVIEW. Vol. 5, no. 1. 2009. С 197

<sup>108</sup> Подвойкина И. А. Зарубежный опыт и преемственность при построении системы наказаний в России. // Бизнес. Образование. Право. Вестник Волгоградского института бизнеса. 2012. № 4 (21). С. 247-250.

tushunchaga ega bo‘lib, jazo tayinlashdagi o‘z imkoniyatlarini ko‘rib chiqishi mumkin. Sud ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash uchun kelishuvning ahamiyati katta ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Sudda agar kelishuvning maqbulligiga shubha uyg‘onsa, uni obdon tekshirishi kerak. Qachonki, sud protsess ishtirokchilarining o‘zaro roziligi asosida kelishuv tuzilayotganligiga ishonch hosil qilsa, shunda sud ushbu kelishuvni tuzishga ruxsat beradi. Bunda sud tayinlanishi kerak bo‘lgan jazoning minimal va maksimal chegarsini ko‘rsatib o‘tadi. Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv sud tomonidan haqiqiy emas deb topilsa, ayblanuvchining aybini isbotlaydigan dalillar taqdim etilgandan keyin ish boshqa sudyaga qayta ko‘rib chiqish uchun o‘tkaziladi.

“Jinoyat sud ishlarini yuritishda kelishuvni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi Qonun sudyaning ishni ko‘rishdagi neytrallik va xolislikni saqlovchi pozitsiyasiga zarar yetkazadi<sup>109</sup>. GFR Konstitutsiyaviy sudi kelishuv tuzish uchun juda qat’iy chegaralar qo‘ydi: hech qanday kelishuv sud tomonidan chiqarilgan hukm kabi kuchga ega emas; sudya har qanday holatda kelishuv tuzish jarayonida hech qaysi tomon sifatida kirishmaydi; kelishuv tuzishga faqatgina jinoyat sud ish yurituviga oid prinsiplarga to‘liq amal qilinadigan bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi (har taraflamalik, sud tomonidan jinoyat ishiga doir barcha holatlarning bevosita tekshirilib, aniqlab chiqilishi, aybsizlik prezupmsiyasi, fuqarolarning teng huquqligi, himoyaga bo‘lgan huquqning kafolatlanishi)<sup>110</sup>.

Jinoyat-protsessual kelishuvlarning predmeti Germaniya qonunchiligi bo‘yicha ayblovning hajmi va jazo miqdori hisoblanadi (ayblov xulosasidan ayblovning jinoyat tarkibi bo‘yicha ba’zi qismlarini chiqarib tashlash mumkin). Shuni ta’kidlab o‘tish zarurki, prokuror ayblovning ba’zi qismlarini chiqarib tashlashi bilan bog‘liq chegirmalar qonun doirasida bo‘lishi kerak, aks holda kelishuv nomaqbul hisoblanadi. Sudya hukm chiqarishda hech qaysi tomonning

---

<sup>109</sup> Frommann M. Regulating Plea-Bargaining in Germany: Can the Italian Approach Serve as a Model to Guarantee the Independence of German Judges? / HANSE LAW REVIEW. Vol. 5, no. 1. 2009.

<sup>110</sup> Туманов В.А. Судебные системы западных государств / М., 1991. С. 145.

irodasiga bo‘g‘liq bo‘lman holda bevosita ish bilan bog‘liq barcha dalillarni baholagan holda ish olib boradi.

Germaniyada tayinlanishi kerak bo‘lgan maksimal jazoni o‘zgartirish bilan bog‘liq sud amaliyoti mavjud bo‘lib, unda ayblanuvchi o‘z aybiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishi va shaxsning aybliligiga hech qanday shubha bo‘lmasligi kerak.

Shuni ta’kidlab o‘tish zarurki, Germaniyada sud ishlarini yuritishning soddalashtirilgan tartibi sud instansiyalarining ikkinchi va uchinchi bosqichlarida amalga oshiriladi va har qanday qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari uchun dastlabki tergov harakatlari o‘tkaziladi. Germaniya jinoyat-protsessual qonunchiligidagi ikki xil sud ishlarini yuritishning tezlashtirilgan tartibi mavjud bo‘lib, tezlashtirilgan sud ish yurituvi tartibi (das beschleunigte Verfahren) va buyruq tartibida ko‘riladigan ishlar (das Strafbefehlsverfahren) <sup>111</sup>.

Yuqoridagi ikkala tartibdan birini tanlash prokuror ayblov e’lon qilishidan oldin shaxsan prokuror tomonidan amalga oshiriladi. Agar jazoni ijro etish bo‘yicha chiqarilgan qaror ijro etilmasa, prokuror sud ish yurituvining tezlashtirilgan taribini qo‘llash imkoniyatlarini tekshirib chiqadi. Agar sud ish yurituvining tezlashtirilgan tartibini faktik holatlardan kelib chiqib qo‘llash imkon mavjud bo‘lmasa, ish umumiy tartibda ko‘rib chiqiladi.

GFR Jinoyat-protsesual kodeksining 417- bobiga ko‘ra, tezlashtirilgan sud ish yurituvi tartibi prokurorning ishni tezlashtirilgan tartibda ko‘rib chiqish to‘g‘risida yozma va og‘zaki ravishda kiritgan iltimosnomasi asosida amalga oshiriladi. Bu masalada prokuror iltimosnomasi kiritishdan oldin ish bo‘yicha dastlabki tergov o‘tkazilgan bo‘lishi va jazoni ijro etish bo‘yicha buyruqning ijro etilishi imkoniyati tahlil etilishi kerak.

GFR Jinoyat-protsessual kodeksining 419-bobiga ko‘ra, prokurorning ishni tezlashtirilgan tartibda ko‘rib chiqishni so‘rab kiritgan iltimosnomasi bo‘yicha sud quyidagicha qaror chiqarishi mumkin: iltimosnomani qabul qilish to‘g‘risida va ishni tezlashtirilgan tartibda ko‘rib chiqishga qabul qilish to‘g‘risida; iltimosnomani

---

<sup>111</sup> Hellmann U. Strafprozessrecht. Springer-Verlag, 2006. Rn. 996.

rad qilish to‘g‘risida va ish yuritishni umumiylar tartibda olib borish to‘g‘risida; jinoiy ta’qibni to‘xtatish to‘g‘risida.

Tezlashtirilgan ish yuritishning muhim xususiyati shundaki, dalillarni tekshirish soddalshtirilgan tartibda amalga oshiriladi va bu dalillarni tekshirish sud muhokamasi qatnashuvchilari ishtirokida oshkora tekshiriladi hamda aynan shu holatda bu dalillar maqbul hisoblanadi (Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 420-bobi III bo‘lim). Umumiy tartibda ish yuritishda so‘roq qilish bayonnomalarini yoki guvohlarning, ekspertlarning, yoki boshqa ayblanuvchilarning yozma tushuntirishlarini o‘qib eshittirish imkoniyati mavjud, lekin bu tartib-taomil sud tomonidan dalillarni bevosita tekshirib chiqish majburiyatiga qo‘srimcha hisoblanadi<sup>112</sup>. Tezlashtirilgan tartibda ishlarni yuritish tartibida sudyalarda taraflarning dalillarni taqdim etish to‘g‘risidagi iltimosnomalarini rad qilish kabi katta imkoniyati mavjud. Amaliyotda bu quyidagi tarzda amalga oshiriladi: taraflar dalillarni taqdim etish to‘g‘risida iltimosnomalarini kiritganda sud ularni hech qanday sabablarini tushuntirmasdan rad qilishi mumkin, chunki sudning fikricha bu dalillar hech qanday ahamiyatga ega emas.

Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish uchun asosiy kriteriya bu sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligidir. Jazoni ijro etish to‘g‘risidagi buyruqlar faqatgina ba’zi toifadagi jinoyatlarda chiqariladi, ular (das Vergehen) deb yuritiladi. Bu kabi jinoyatlar umumiylar jinoyatlarning 6,5% ni tashkil qiladi (hisoblashda moddaning malakalovchi xususiyatlari inobatga olinmaydi)<sup>113</sup>.

Tezlashtirilgan tartibda ish yuritish har qanday jinoyat ishlariga nisbatan tatbiq etilishi mumkin, agar konkret holat bo‘yicha tayinlanadigan jazo miqdori bir yildan ortiq bo‘limgan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazoni nazarda tutsa.

Tortishuvchanlik prinsipini ishga tushishi uchun sanksiyalarning xarakteri juda katta ahamiyatga ega kriteriya hisoblanadi. Agar qonun chiqaruvchi tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan sanksiyaning eng yuqori chegarasi belgilangan bo‘lsa,

---

<sup>112</sup> Schroer E. Das beschleunigte Strafverfahren gem. § 417. StPO, 1998. S. 165 - 166.

<sup>113</sup> Strafgesetzbuch der Bundesrepublik Deutschland vom 13. November 1998. (zuletzt geändert 21.01.2015) // URL: <http://www.gesetze-im-internet.de/stgb/>

buyruq tartibida ish yuritishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazolarning yopiq ro‘yxati mavjud bo‘lib, ularning eng og‘iri ozodlikdan mahrum qilish jazosini nazarda tutadi (GFR JPK 407-bob, II bo‘lim). Umuman olganda, ikkala holatda ham sanksiyalarning chegarasi bir yilda ortiq bo‘lmagan ozodlikdan mahrum qilish jazosini nazarda tutadi.

Shunday qilib, GFR huquqiy tizimi soddalashtirilgan tartibda jinoyat ishlarini yuritish uchun ayblanuvchining o‘z aybiga iqror bo‘lishini nazarda tutadi. Shu o‘rinda bu holatning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish zarur. Germaniyada bu kabi aybga iqrorlik imperativ norma bilan qonunchilikda mustahkamlanmagan. Uning mavjudligining zaruriyati soddalashtirilgan tartibda ish yuritish amaliyotidan kelib chiqadi, bu kabi aybga iqrorlik ushbu ishdagi holatlar aniq va asosli ekanligini ta’kidlash uchun asoslardan biridir. Maxsus tartibni qo‘llash uchun jinoyat ishi oddiyimi yoki yo‘qmi, muhim emas; sud jarayonini soddalashtirish har qanday holatda ham mumkin, asosiysi, shaxs o‘z aybini tan olishi va ayblovga rozi bo‘lishidir. Sodir etilgan jinoyat to‘g‘risidagi holatlar ishonchli malumot asosida har tomonlama va to‘liq tekshirilishi kerak. Bunda sudya ishga aloqador faktlarni va dalillarni bevosita tekshirishi zarur.

**“Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” institutining Italiya sud amaliyotida.** Jinoyat protsessual qonunchiligini isloh qilish Italiyada ham kuzatildi, 1988-yilda yangi Jinoyat-protsessual kodeksi qabul qilindi. “Odil sudlov bilan kelishuv” huquqiy instituti (patteggiamento – “jazoni tayinlash”) italyancha model bo‘lib, ushbu model ko‘pgina protsessual normalarni AQSh modelidan meros qilib olgan edi.

Italiya Jinoyat protsessual kodeksining oldingi variantida asosiy e’tibor yozma ish materiallariga berilgan bo‘lsa, yangi tahrirda dastlabki tergovning og‘zaki usulda amalgalashirilishi belgilandi. (Jinoyat-protsessual kodeksning III qismi). Natijada, sudya ish sudda ko‘rib chiqilgunga qadar qanday dalillar to‘planganligi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lolmas edi, bu esa unga taqdim etilgan dalillar bazasidan uni qiziqtirgan holatlarni va ba’zi faktik holatlarning qat’iyligini aniqlashga imkon bermas edi.

Professor M. Langer bo‘lajak o‘zgarishlarni tahlil qilib, Italiyaning dastlabki yuridik instituti (AQSh) qoidalarining mohiyatini qabul qilish istiqbollarini ijobiy baholadi, xususan, protses ishtirokchilarining huquqlariga alohida e’tibor berdi.

Tortishuvchanlik prinsipi o‘zini protsessda dalillarni to‘plash bo‘yicha normaning kiritilishida namoyon etdi. Dalillarni to‘plash sudgacha bo‘lga bosqichda ham sud muhokamasi paytida ham mumkin edi hamda unda ikkala taraf ham qatnashishi mumkin bo‘ldi. Bu normaning kiritilishi sudyaning maqomini tubdan o‘zgartirib, uning dastlabki tergovdagi vakolatlarining oziga xosligini yo‘qotdi: endi bu funksiyalar ayblov va himoya o‘rtasida taqsimlandi.

Italiya Jinoyat-protsessual kodeksining 496-, 498-moddasida ikkita tergov harakatini o‘tkazish asoslari keltirib o‘tilgan bo‘lib, ushbu tergov harakatlarining biri prokuror, biri esa himoyachi tomonidan o‘tkazilardi. Bu esa sud muhokamasida guvohlarni o‘zaro so‘roq qilish imkonini beradi. Italiya Jinoyat-protsessual kodeksining 190-, 493.1-, 495.1-, 507-moddasiga ko‘ra, suda faqat taraflarning iltimosnomasiga ko‘ra dalillarni talab qilishi mumkin edi.

Tomonlarning keng ko‘lamli sud ishlarini yuritmasdan ishni hal qilishda o‘zaro manfaatli shart-sharoitlarga erishishi Italiya Jinoyat-protsessual kodeksining 438–464-moddalarida mustahkamlangan. Ba’zi mualliflar jarayonning samaradorligini oshirish orqali bunday institutni joriy etishni oqlashadi<sup>114</sup>.

Ushbu mexanizm “tomonlarning iltimoslariga muvofiq jazoni qo‘llash” instituti bo‘lib, italyancha versiyasi “applecazione della Repa sulla richiesta delle parti” deb yuritilardi.. Biroq, ba’zi olimlar “odil sudlov bilan kelishuv” va “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”larni tadqiq etib, ushbu institutni “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” deb hisoblamaydi.

Shunday qilib, “Odil sudlov bilan kelishuv” tuzishni tartibga soluvchi normalar prokuror va himoya o‘rtasida kelishuvga erishishni nazarda tutadi, suda esa bu kelishuvni qabul qilib, kelishuv sudyaga hukm chiqarish uchun asos bo‘ladi.

---

<sup>114</sup> Vassalli G. Premessa // Istituto poligrafico e zecca dello Stato, Progetto Preliminare del Codice di Procedura Penale. 1988. № 5. P. 7.

Kelishuv shartlariga ko‘ra, tayinlanadigan jazo qonun bilan belgilangan maksimal muddatning uchdan bir qismiga qisqartirilishi mumkin, lekin hukmda tayinlanadigan jazo 5 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosidan oshmasligi kerak. (Italiya Jinoyat-protsessual kodeksining 444.1-moddasi). Kelishuv suda tomonidan faqat ish materiallari bilan tanishib chiqqandan keyin ayblanuvchini oqlash uchun yetarli asos topa olmasa tasdiqlanadi. (Italiya Jinoyat-protsessual kodeksining 129-, 444.1-moddalari).

**Shunday qilib, Italiya jinoyat-protsessual qonunchiligidida “odil sudlov bilan kelishuv” huquqiy institutining o‘ziga xos xususiyatlari haqida quyidagi fikrlarga kelish mumkin:**

Kelishuvni tuzishga faqat quyidagi holatda yo‘l qo‘yiladi. Tayinlanishi kerak bo‘lgan jazo uchdan bir qismga chegirilgandan keyin ham tayinlanadigan jazo besh yil ozodlikdan mahrum qilish jazosidan oshmasa qo‘llaniladi.

Kelishuvning mohiyatini faqat hukmning o‘zi qamrab olishi mumkin, ammo ayblovlarning qisman yoki to‘liq rad etilishi mumkin emas (ehtimol, bu huquqiy institut va huquqiy tizim o‘rtasidagi ziddiyatlardan qochish maqsadida amalga oshirilgan).

Italiya “kelishuv”i AQSh “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvi”ning to‘liq analogi emas hamda sudlanuvchining aybini bevosita aniq ko‘rsatuvchi kelishuv emas (Italiya Jinoyat-protsessual kodeksining 444.1-moddasi). O‘ziga nisbatan hukm chiqarishni so‘rab sudlanuvchi iltimosnomasi kiritadi, bu bilan u o‘zi tomonidan sodir etilgan jinoyat ishini sudda ko‘rib chiqilishi bilan bog‘liq huquqdan voz kechadi va shaxs o‘zini aybdor deb hisoblayotgan sanaladi. Bundan tashqari, suda ish materiallari bilan tanishib chiqqach, sudlanuvchini kelishuvni tasdiqlashdan oldin oqlashi mumkin (Italiya Jinoyat-protsesual kodeksi 444.2-moddasi).

Kodeksning yaratuvchilari bunday qoidani kiritishidan maqsad “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” Italiya Konstitutsiyasida mustahkamlangan aybsizlik prezumpsiyasiga zid kelishini oldini olishdir. Shuning uchun ham Italiya modeli to‘g‘ridan to‘g‘ri aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv emas, balki AQSh

qonunchiligidagi “nolo contendere”ga yaqinroq. Agar prokuror sudlanuvchi bilan kelishuv tuzishga rozi bo‘lmasa, sudlanuvchi dastlabki eshituvdan so‘ng sudyaga kelishuv tuzishning rad qilinish sabablarini o‘rganish bo‘yicha va tayinlanishi kerak bo‘lgan jazo muddatining uchdan bir qismini chegirib tashlashni so‘rab iltimosnama kiritishi mumkin (Italiya Jinoyat-protsesual kodeksining 448.1-moddasi).

Shunday qilib, “Odil sudlov bilan kelishuv” huquqiy institutining italyancha versiyasi Amerika modeliga juda o‘xhash: bunda prokuratura va himoya taraflari juda faol (muzokalarlar jarayoni bevosita amalga oshiriladi) lekin suda juda passiv pozitsiyada.

Lekin shu o‘rinda bir narsani unutmaslik zarur, yangi yaratilgan huquqiy institut yillar davomida rivojlangan Italiya huquq tizimiga moslashishi bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Shu o‘rinda Italiya Konstitutsiyaviy sudining 313/1990-sonli qarorini eslatib o‘tishimiz kerak<sup>115</sup>.

Ushbu qarorda Konstitutsiyaviy sud, “kelishuv” ustidan sudyaning nazorat qilishi oddiy rasmiyatçilik emasligini ta’kidlab, Italiya JPK 442.2-moddasi sudyaga “kelishuv” ustidan nazorat qilish uchun berilgan vakolatlarining cheklanganligini iddao qilib, ushu normani konstitusiyaga xilof deb topdi. Biroq, statistika ma’lumotlariga ko‘ra, “odil sudlov bilan kelishuv” huquqiy instituti Italiyaning protsessual muhitida faol qo‘llanilmoqda. 1990-yildan 1998-yilgacha bo‘lgan davrda (uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyatlar bo‘yicha) kelishuv orqali 34% dan 42% gacha qaror qabul qilinganligini ko‘rsatadi .

Shuni ham ta’kidlab o‘tish zarurki, Italiyada “odil sudlov bilan kelishuv” huquqiy instituti haqida turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, bu institute bo‘yicha salbiy fikrlar ham mavjud. Xususan, R. Vinslou Italiyaning yangi Jinoyat-protsessual kodeksini (1988) jinoyat protsessining tergov modelini tortishuvchanlik prinsipi ustunlik qiluvchi modelga aylantirishda muhim qadam deb hisoblaydi. Shu bilan birga, sudlanuvchida “odil sudlov bilan kelishuv”ga nisbatan huquq mavjud emas. “Odil sudlov bilan kelishuv” uchun asos “obbligatorieta dell’azione penale”

---

<sup>115</sup> Corte cost., 26 giu. 1990, n.313, 96 Racc. uff. corte cost. 1990, 89.

tamoyili hisoblanadi. Unga ko‘ra, prokuror ish ko‘rib chiqish boshidan dastlabki ayblovni qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Yuqoridagilarga asoslanib, biz Italiyaning jinoyat protsessidagi sezilarli o‘zgarishlar “Odil sudlov bilan kelishuv” huquqiy institutining ayrim elementlarini aniqlash imkoniyatini yaratdi. Biroq, ushbu institut xorij amaliyotining ba’zi xususiyatlarini o‘zlashtirgan. Italiya jinoyat-protsessual qonunchiligi mohiyatining tergov prinsipidan tortishuvchanlik prinsipiga o‘zgarishi bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlar uning “kelishuv”ning asosiy maqsadi bo‘lgan sodir etilgan jinoyat uchun jazolash degan yondashuvni o‘zgartirmagan. Italiya jinoyat-protsessual qonunchiligidagi “odil sudlov bilan kelishuv” shartlari AQSh modelidagi prokurorning ayblovni qisman rad etish, ayblovning mazmunini o‘zgartirishni (shu jumladan, boshqa o‘g‘irroq jinoyat haqida berilgan ma’lumot evaziga) nazarda tutmagan.

### **3.3. Milliy qonunchilikdagi “Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” institutini yanada takomillashtirish masalalari**

Har qanday jamiyat betakror bo‘lib, mamlakatimiz huquqiy tizimi doirasida foydalanish uchun rivojlanish boshqa modelinining har qanday institutlari mos kelavermaydi. Biroq maqbul holat imkoniyatlarini aniqlash va tizim qoidalariga rioya qilish orqali, munosabatlarni tashkil etishning bo‘lg‘usi shakliga chiqish vaqtini qisqartirish mumkin va bu bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlanish yo‘lidagi ortiqcha burilishlarni chetlab o‘tishga yordam beradi. Shuni qayd etish lozimki, jamiyatning turli tiplari, tegishli madaniyatlarning serqirraligi shaxs va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishning bir-biridan farq qildigan tiplari, shakllari va ko‘rinishlarini nazarda tutadi. Bu holni har bir davlatning qonun chiqaruvchisi muayyan huquqiy institutni yaratish va takomillashtirishda, hech shubhasiz, hisobga oladi. Huquqiy massiv juda katta, murakkab va tizimlashtirilgan bo‘lib, bularning barchasi eskirgan va aktual bo‘lmagan huquqiy institutlarni tizimdan chiqarib tashlashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Taklif qilinayotgan novatsiyalar yuzaga kelgan munosabatlar mohiyatini aks ettirish bilan bir qatorda, bir-birini uyg‘un to‘ldirishi ham kerak. Huquqiy tizimni tarkibiy elementlarning qarama-qarshiligigina emas, balki (bitta alohida olingan yo‘nalishda) qo‘yilgan maqsadlarga erishishda shoshqaloqlik ham vayron qilishi mumkin.

Shunday qilib, qonunchiligidan yangi kiritilgan “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” instituti yanada takomillashtirish mamlakatimiz huquqiy muhitiga o‘zi bilan birga keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan progressiv g‘oyalar hozirgi zamon jamiyati uchun muhimdir. Biroq, shuni unutmaslik kerakki, tadqiq etilayotgan huquqiy institut – o‘ziga xos qadriyatlar va ma’naviy sohada qo‘yilgan maqsadlar tizimiga ega bo‘lgan huquqiy madaniyat mahsulidir. Demak huquqiy bazadagi “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” institutini mamlakatimizning axloqiy va ma’naviy qadriyatlar tizimidagi holatlarni hisobga olib takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” jinoyat ishini yuritishni o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumonga, ayblovga rozi bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol ko‘maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan guman qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan va og‘ir jinoyatlar bo‘yicha tuziladigan kelishuvdir. Demak, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv guman qilinuvchi va ayblanuvchiga ayblov e’lon qilinib, ish bo‘yicha ayblov xulosasi tuzilguncha bo‘lgan davda tuziladigan kelishuvdir.

Italiya, Ispaniya, Germaniya, Rossiya JPKga ko‘ra “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv” tuzish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan dastlabki tergov yakunlanganidan so‘ng yoki sud muhokamasiga tayyorlov qismida murojaat qilinadi. 1988-yili qabul qilingan Italiya JPKda sodir etilgan jinoyat uchun uch yildan ortiq bo‘lmagan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan bo‘lsa, taraflarning jazo masalasini o‘zaro hal qilishni so‘rab yozgan arizalari bo‘lsa, sud tergovi olib bormasligi qayd etilgan. Iltimosnoma jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayyorlov qismida va albatta himoyachining ishtirokida amalga oshirilishi kerak. Agarda ushbu holatga prokuror va jabrlanuvchi rozi bo‘lsa, sudya sudlanuvchini sodir etgan jinoyati uchun jinoyat kodeksida belgilangan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni eng ko‘p qismidan uchdan ikki qismidan ko‘p bo‘lmagan muddatga jazo muddatini belgilashi mumkin. Milliy qonunchiligimizda esa aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyat ishlarida tayinlanishi lozim bo‘lgan jazo miqdori Jinoyat kodeksining 57<sup>2</sup>-moddasiga ko‘ra, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha tayinlanadigan jazoning muddati yoki miqdori Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida (qismida) nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning yarmidan oshmasligi kerak deb belgilangan. Bunda kelib chiqadiki, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan ishlar bo‘yicha jazo tayinlash bilan bog‘liq normalarda insonparvarlik prinsipiga juda katta e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan ishlar

bo‘yicha tayinlanadigan jazo turi va miqdori boshqa xorijiy davlatlarda tayinlanadigan jazo miqdori va turidan ancha kam va yengilroqdir.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzishga o‘z roziliklarini berganliklaridan qat’i nazar ayblov to‘plangan maqbul dalillar bilan o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lishi kerak. Mazkur institutni faqatgina ya’ni gumon qilinuvchi va ayblanuvchining roziligi bilan amalga oshirilishini va bu uning huquq va majburiyatlar sifatida kiritilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shu sababdan O‘zbekiston Respublikasi JPKning 46- va 48-moddalariga, ya’ni gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqlariga “aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnama berish” huquqini kiritish taklif etiladi.

Bundan tashqari, qonunchiligidan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilar bilan tuzilishi tartibi hali-hanuz aniqlashtirilmaganligi bois O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 586<sup>1</sup>-moddanining 1-qismiga aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tuzish jinoyat ishini yuritishni o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumonga, ayblovga rozi bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol ko‘maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan, og‘ir jinoyatlar bo‘yicha tuziladigan kelishuv ekanligi alohida kiritilishini taklif etamiz. Ushbu normaning kiritilishi bilan amaliyotda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan bir qancha tushunmovchiliklarni va noaniqliklarni oldini olgan bo‘lar edi.

Agar voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish masalasi yuqoridagi norma bilan aniq yoritilsa, o‘z-o‘zidan voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan tayinlanadigan jazo muddati va miqdori haqidagi normaning ham kiritilishiga zarurat tug‘iladi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 57<sup>2</sup>-moddasi quyidagi mazmundagi 2-qism bilan to‘ldirilishi taklif etiladi: “Voyaga yetmaganlar bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha

tayinlanadigan jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks XV bobda nazarda tutilgan jazoning yarmidan oshmasligi kerak”. Ushbu normaning kiritilishi bilan voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi bilan aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv tuzilganda ularga nisbatan jazo miqdori va muddatini tayinlashda alohida rag‘batlantiruvchi normaning qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. Natijada, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan tayinlanadigan jazo miqdori va muddati voyaga yetgan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarga tayinlanadigan jazodan ancha yengilroq jazo tayinlanishiga olib keladi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish tartib-taomili o‘zgacha xarakterga egadir, ya’ni ushbu jarayonda voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, kelishuv, haqiqattan ham, voyaga yetmagan shaxsning o‘z xohish-irodasi bilan tuzilishi va qonunchilikdagi barcha normalarga og‘ishmay amal qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ustuvor vazifalardan biridir. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 586<sup>2</sup>-moddasi quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirilishi taklif etiladi: “Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani surishtiruvning va dastlabki tergovning istalgan bosqichida himoyachi, qonuniy vakil yoki katta yoshdagi yaqin qarindoshi, pedagog va (yoki) psixolog ishtirokida berishi shart”. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqida iltimosnomasi kiritilayotganga uning himoyachisi, qonuniy vakili yoki katta yoshdagi qarindoshi, pedagog va psixolog ishtirok etishi voyaga yetmagan shaxsning huquq va manfaatlari himoya qilinishining kafolati hisoblanadi. Ushbu jarayonda pedagog va psixologning ishtirok etishi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining psixologik holati haqida xabardor bo‘lib, ushbu shaxsga psixologik yordam kerak bo‘lgan paytda ushbu protsess ishtirokchilari

voyaga yetmagan shaxsning psixologik va fiziologik normal holatini nazorat qilib turish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

“Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv”ni tuzish jarayonida gumon qilinuvchi va ayblanuvchining bevosita ishtiroki muhim ahamiyatga ega, shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 365-moddasida keltirib o‘tilgan qidiruv e’lon qilinishi lozim bo‘lgan shaxslar doirasi gumon qilinuvchi bilan kengaytirilishi haqidagi normaning kiritilishi ham maqsadga muvofiq. Chunki aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgandan keyin ish sudga yuborilishga tayyor paytda gumon qilinuvchining turgan joyi noma'lum bo‘lganda tergovchi uning turgan joyini aniqlash uchun zarur bo‘lgan barcha choralarни ko‘rishi, zarur hollarda esa, unga nisbatan qidiruv e’lon qilishi uchun qidiruv e’lon qilish shart bo‘lgan shaxslar doirasiga gumon qilinuvchini ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Yana bir takliflarimizdan biri bu O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 586<sup>1</sup>-moddaning 1-qismidagi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni jinoyat ishini yuritishni o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumonga, ayblovga rozi bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol ko‘maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining, shuningdek, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar bo‘yicha tuziladigan kelishuv ekanligi haqidagi normadir. Xususan, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni faqatgina ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar bo‘yicha tuzilishi Fransiya, Italiya va Germaniya kabi xorijiy davlatlar sud va tergov amaliyotida mavjud. Aslida, aybga iqrorlik bo‘yicha kelishuvni qonunchilikka implementatsiya qilinishidan maqsad ham surishtiruv, tergov va sud organlarining asosiyligi e’tiborini va vaqtini og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni fosh etishga sarafbar etishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 586<sup>2</sup>- va 586<sup>3</sup>-moddalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu normalarda gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovda berilgan iltimosnomada

gumon qilinuvchi va ayblanuvchining zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar hamda JPK 586<sup>3</sup>-moddasida ko‘rsatilib o‘tilgan iltimosnomaning prokuror tomonidan ko‘rib chiqilishi tartibi haqidagi normada tafovut mavjud bo‘lib, JPK 586<sup>3</sup>- moddani 586<sup>2</sup>- modda bilan bixillashtirish zarur deb hisoblaymiz. Shunga ko‘ra, JPKning 586<sup>3</sup>- moddasining 5-qismini 586<sup>2</sup>- moddasining 3-qismiga quyidagicha moslashtirishni taklif etamiz:

“Shundan keyin prokuror, agar kelishuvga asosan hukm chiqarilib, jazo tayinlanganidan keyin gumon qilinuvchi, ayblanuvchi surishtiruv va dastlabki tergovda qo‘yilgan gumonni yoki ayblovni tan olmasligi, dalillarni inkor qilishi, jinoyatni tergov qilishga ko‘maklashmaganligi, jinoyat natijasida olingan mol-mulkning topilishi uchun harakatlarni amalga oshirmaganligi, jinoyatga aloqador boshqa axborotni taqdim etishga doir majburiyatlarini hamda jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar bartaraf etmaganligi va kelishuvda nazarda tutilgan boshqa shartlar va majburiyatlarni bajarmaganligi aniqlansa, hukm qayta ko‘rib chiqilishi mumkinligini aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqida iltimosnomada bergen gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga tushuntiradi”.

Jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada takomillashtirish maqsadida aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomada ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan holatlar qatoriga jinoyatlarni tergov qilishda ko‘maklashishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan “**to‘liq va haqqoniylumotlar berishi**” kabi jumlalar bilan to‘ldirilishi tavsiya etiladi. Chunki aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish institutining maqsadi jinoyat sodir etgan shaxsning to‘g‘ri xulosa chiqarishi va qayta tarbiyalashiga qaratilgan.

Ma’lumki JKning 57<sup>2</sup>-moddasi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha jazo tayinlashda jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida (qismida) nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning yarmidan oshmasligi belgilangan. Natijada, jinoyatlar uchun jazo tayinlashda jinoyatni sodir etish holatlari, aybdorning shaxsi va boshqa bir qator masalalar inobatga olinadi va aksari hollarda qonun sanksiyasida nazarda tutilgan eng ko‘p

jazodan ancha farq qiladi. Bizning fikrimizcha, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyat ishlari bo‘yicha tayinlanadigan jazoning muddati va miqdori masalasini qonun chiqaruvchi tomonidan yanada aniqlashtirilishi, ya’ni jazo muddati yoki miqdorini aniq chegarasini belgilab qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

# Xulosa

Tadqiqot ishida keltirilgan fikrlarga tayangan holda o‘zimizning xulosaviy g‘oyalarimizni uch guruhga bo‘lib, ularda tegishli tavsiya va takliflarni aniq va lo‘nda izohlaymiz:

## I. Nazariy xulosalar:

### 1. Dissertatsiya ishimizdan kelib chiqib, quyidagi atamalarga mualliflik ta’rifi berildi.

**Aybga iqrorlik bu** – nazorat qiluvchi prokuror bilan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi o‘rtasida qo‘yilgan ayblov bo‘yicha kelishish yo‘li sud tomonidan tayinlanishi lozim bo‘lgan qisqartirilgan jazodir.

**Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv bu** – surishtiruv va dastlabki tergovning istalgan vaqtida o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumon yohud ayblovni tan olgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, jinoyatni ochilishiga faol ko‘maklashgan va yetkazilgan zararni to‘liq qoplagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining iltimosiga asosan jinoyatlar bo‘yicha prokuror bilan tuziladigan ixtiyoriy shakldagi kelishuvdir.

### II. Dissertatsiya tadqiqoti natijasida aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv institutining tomonlar uchun bir qancha ijobiylar aniqlandi:

aybga iqrorlik bo‘yicha kelishuv o‘ziga xos ko‘p tomonlama bitim bo‘lib, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi uchun quyidagicha ahamiyat kasb etadi:

#### **birinchidan,**

1. jazo tayinlashda rag‘batlantiruvchi qoidalarni qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi (JK57<sup>2</sup>-modda), ya’ni jazoning muddati, miqdorini kamayishiga, xususan jazoni yengillashishiga;
2. turli xil ovoragarchiliklarni oldi olinadi;

3. qilgan qilmishiga yarasha tez va aniq fursatlarda javobgarlikka tortiladi, ayniqsa, ehtiyot chorasi qamoqda saqlangan holda sudning majlisini kutib o‘tirishdek, qiyin sharoitlaridan himoyalanadi.

**ikkinchidan, surishtiruv, tergov, prokuratura va sud uchun:**

1. vaqt va mablag‘larni tejalishi;
2. sudlarning jinoyat ishlari bo‘yicha ish yuklamasi kamayishi va o‘ta og‘ir, murakkab jinoyat ishlarini o‘z vaqtida sinchkovlik bilan ko‘rish imkoniyatining kengayishiga sabab bo‘ladi.

**uchinchidan, bu kelishuv jabrlanuvchi uchun ham ahamiyatli bo‘lishi mumkin:**

1. yetkazilgan zararning qoplanishi;
2. gumonlanuvchi, ayblanuvchi bilan tez-tez ko‘rishishdek salbiy jihatlarni oldini oladi (sir emas, shaxsga qarshi jinoyatlarda, xususan, hayot, sog‘liq, jinsiy erkinlik va boshqa turdagи jinoyatlarda jabrlanuvchi, ayblanuvchi, shuningdek sudlanuvchi bilan uchrashish, uning uchun juda og‘riqli kechadi);
3. vaqtini tejaydi;
4. turli xil yuzlashtirish, tergov eksperimentlarini o‘tkazilishi oldini oladi.

**III. Qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 57<sup>2</sup>-moddasi quyidagi mazmundagi 2-qism bilan to‘ldirilishi lozim:

*“Voyaga yetmaganlar bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha tayinlanadigan jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks XV bobda nazarda tutilgan jazoning yarmidan oshmasligi kerak”.*

2. Shuningdek, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvni tuzish huquqini tushuntirish majburiyatini o‘rnatish maqsadida surishtiruvchi yoki tergovchining bunday vazifasini JPKning 46-48-moddasida mustahkamlash taklif etiladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46-moddasi 1-qismida keltirib o‘tilgan ayblanuvchining huquqlari doirasi “**aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnama berish**” huquqi bilan to‘ldirilishi lozim.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 48-moddasi 1-qismida keltirib o‘tilgan gumon qilinuvchining huquqlari doirasi ham “**aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnama berish**” huquqi bilan to‘ldirilishi lozim.
5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 365-moddasida keltirib o‘tilgan qidiruv e’lon qilinishi lozim bo‘lgan shaxslar doirasi gumon qilinuvchi bilan kengaytirilishi lozim.
6. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 586<sup>1</sup>-moddaning 1-qismi quyidagi tahrirda bayon etilishi lozim:

*“Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv jinoyat ishini yuritishni o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumonga, ayblovga rozi bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol ko‘maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining, shuningdek, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган, uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyatlar bo‘yicha tuziladigan kelishuvdir”*. Xususan, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuvni faqatgina ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган va uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyatlar bo‘yicha tuzilishi Fransiya, Italiya va Germaniya kabi xorijiy davlatlar sud va tergov amaliyotida mavjud.

7. 586<sup>2</sup>-modda quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirilishi lozim:

*“Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani surishtiruvning va dastlabki tergovning istalgan bosqichida himoyachi, qonuniy vakil yoki katta yoshdagi yaqin qarindoshi, pedagog va (yoki) psixolog ishtirokida berishi shart”*.

8. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 586<sup>2</sup>- va 586<sup>3</sup>- moddalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu normalarda gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovda berilgan iltimosnomada gumon qilinuvchi va ayblanuvchining zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar hamda JPK 586<sup>3</sup>-moddasida ko‘rsatilib o‘tilgan iltimosnomaning prokuror tomonidan ko‘rib chiqilishi tartibi haqidagi normada tafovut mavjud bo‘lib, JPK 586<sup>3</sup>- moddani 586<sup>2</sup>- modda bilan birxillashtirish zarur deb hisoblaymiz. Shunga ko‘ra, JPKning 586<sup>3</sup>- moddasining 5-qismini 586<sup>2</sup>- moddasining 3-qismiga quyidagicha moslashtirishni taklif etamiz:

“Shundan keyin prokuror, agar kelishuvga asosan hukm chiqarilib, jazo tayinlanganidan keyin

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi surishtiruv va dastlabki tergovda qo‘yilgan gumonni yoki ayblovni tan olmasligi, dalillarni inkor qilishi, jinoyatni tergov qilishga ko‘maklashmaganligi, jinoyat natijasida olingan mol-mulkning topilishi uchun harakatlarni amalga oshirmaganligi, jinoyatga aloqador boshqa axborotni taqdim etishga doir majburiyatlarini hamda jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar bartaraf etmaganligi va kelishuvda nazarda tutilgan boshqa shartlar va majburiyatlarni bajarmaganligi aniqlansa, hukm qayta ko‘rib chiqilishi mumkinligini aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqida iltimosnomasi bergan gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga tushuntiradi”.

9. Jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada takomillashtirish maqsadida aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomada ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan holatlar qatoriga jinoyatlarni tergov qilishda ko‘maklashishda gumon qilinuvchisi ayblanuvchi tomonidan “**to‘liq va haqqoniy ma’lumotlar berishi**” kabi jumlalar bilan to‘ldirilishi tavsiya etiladi. Chunki aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish institutining maqsadi jinoyat sodir etgan shaxsning to‘g‘ri xulosa chiqarishi va qayta tarbiyalashiga qaratilgan.

**10.** Amaliyotdagi muammolardan biri shundan iboratki, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atgan organ shaxsni tegishli modda bilan ayblash, shuningdek gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining surishtiruvchi yoki tergov organi xattiharakatiga nisbatan bildirgan munosabatlaridan kelib chiqqan holda qonunchilikda belgilangan imtiyozlardan foydalanishda cheklov qo‘yish holatlari mavjud. Bu esa, tegishli organning subyektivligi yoki boshqa g‘araz niyatlari sababli gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchidan aybga iqrorlik kelishuvini qabul qilmaslik holatlari mavjud. Ushbu holatda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining aybga iqrorlik kelishuvini tuzishga bo‘lgan huquqlari buziladi. Tergov yoki surishtiruv organi aybga iqrorlik to‘g‘risidagi iltimosnomani rad qilishi oqibatlari amaldagi JPKda o‘z ifodasini topmagan. Shundan kelib chiqib, JPKga **aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvni faqatgina tergov yoki surishtiruv organiga emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazorat qiluvchi prokurorga ham taqdim etish tartibini belgilash lozim bo‘ladi.**

**11.** Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv gumon qilinuvchi bilan tuzilgan taqdirda jinoyat ishini sudga ayblov dalolatnomasi **yoki ayblov xulosasi bilan yuborishda shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish, ehtiyyot chorasini qo‘llash masalalarini ko‘rib chiqish shart yoki shart emasligi JPKda mustahkamlanmagan.**

**12.** Amaldagi JPK qoidalaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, jinoyat ishini ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasi bilan sudga yuborish uchun shaxs ishda ayblanuvchi tariqasida jalb etilgan bo‘lishi lozim. Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv **gumon qilinuvchi bilan ham tuzilishi mumkinligini** inobatga olib, jinoyat ishini aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvi bilan sudga yuborishda shaxsni gumon qiluvchi tariqasida jalb etilganligining o‘zi yetarli bo‘lib, uni ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish shart **emas degan qoidani JPKga kiritish maqsadga muvofiq.**

**13.** Amaldagi qonunchilikda aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomaning prokuror tomonidan ko‘rib chiqilishida zarur hollarda,

prokuror jabrlanuvchini yoki fuqaroviylar da'vogarni ham kelishuv tuzish masalasini ko'rib chiqish uchun jalb qiladi, sud majlisida esa sudlanuvchi, jabrlanuvchi (fuqaroviylar da'vogar), agar ishda ishtirok etayotgan bo'lsa, qonuniy vakil, himoyachi, prokuror ishtirok etishi, sud majlisi o'tkaziladigan joy va sana haqida lozim darajada xabardor qilingan jabrlanuvchi (fuqaroviylar da'vogar) yoki uning vakilining kelmaganligi ishni ko'rib chiqish uchun monelik qilmasligi belgilangan. Shunga ko'ra, **prokuror kelishuv tuzish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishda jabrlanuvchini yoki fuqaroviylar da'vogarni ham jalb qilishi shartligi JPKda belgilash zarur.** Yoki, tergovchi tomonidan aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani prokurorga yuborishidan avval tuzilayotgan kelishuvga jabrlanuvchining munosabatini uning so'roq qilish bayonnomasi yoki roziligi to'g'risidagi bayonnomada o'z fikrini ko'rsatgan holda tushuntirishi, agarda rozi bo'limgan taqdirda kelishuv tuzilishi inkor qilinishi yuzasidan **JPKga qo'shimcha kiritish maqsadga muvofiq.**

**14.** O'zbekiston Respublikasi JPKning **586<sup>3</sup>-moddasi 5-qismida** aybiga iqrorlik to'g'risda kelishuv tuzganidan so'ng prokuror, agar kelishuvga asosan hukm chiqarilib, jazo tayinlanganidan keyin gumon qilinuvchining, ayblanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuvlari berganligi yoki tergovdan biron-bir muhim va ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni qasddan yashirganligi, kelishuvda nazarda tutilgan shartlar va majburiyatlarni bajarmaganligi aniqlansa, hukm qayta ko'rib chiqilishi mumkinligini aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzish haqida iltimosnomasi bergan gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga tushuntirishi belgilangan. Biroq, kelishuv tartibini buzgan taqdirda hukmni bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari qayd etilgan **JPKning 497<sup>19</sup>-moddasida** belgilanmagan. Shunga ko'ra, aybiga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv asosida hukm chiqarilganidan so'ng kelishuv tartibini buzilganligi aniqlansa, ushbu talab JPKning mazkur moddasiga

hukmni bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslari sifatida qo‘sishimcha kiritish lozim bo‘ladi.

**15.** Qonunchilikda prokuror aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqib, aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani qanoatlantirish yoki rad qilishi to‘g‘risida qarorlar qabul qilishi, iltimosnomaning rad qilinishi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va uning himoyachisini ushbu masala yuzasidan takroran iltimosnama berish huquqidan mahrum etmasligi belgilangan. Shuni ta’kidlash joizki, hozirda tergovchilarning aksariyati yosh mutaxassis ekanligi, prokurorlarning tergov faoliyatidagi malakasi yetarli bo‘lmaganligi, qilmishni kvalifikatsiya qilinishida bir xil amaliyot mavjud emasligi sababli tergovda qarorlar qabul qilishda yuqori turuvchi prokuraturaning tegishli bo‘limlaridan maslahat olish amaliyoti mavjud. Shundan kelib chiqib, prokuror aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqib, rad qilishi to‘g‘risida qarorlar qabul qilganida, ushbu qarordan norozi bo‘lib gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi yuqori turuvchi prokurorga shikoyat berishi va shu prokuror tomonidan shikoyatning ko‘rib chiqish hamda kelishuv tuzish tartibini JPKga kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**16.** Amaldagi qonunchilikda sud aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi qarorni ko‘rib chiqib, kelishuv bilan kelishmasa tasdiqlashni rad etish va ishni prokurorga yuborish haqida qaror chiqarishi, taraflar tuzilgan kelishuvdan voz kechsa, kelishuvni tasdiqlashni rad etish haqida ajrim chiqarishi va jinoyat ishini umumiy qoidalar bo‘yicha tergov qilish yoki kelishuvni qayta ko‘rib chiqish uchun prokurorga yuborishi belgilangan. Bundan ko‘rinadiki, agar shaxsning aybini isbotlovchi dalillar yetarli bo‘lib, birgina kelishuvni tasdiqlashni rad etish bilan birga jinoyat ishini prokurorga qaytarishi va to‘plangan dalillar asosida umumiy qoidalar bo‘yicha tergov qilinib, qayta sudga yuborish amaliyotini keltirib chiqaradi. Shunga ko‘ra, sud kelishuv bilan kelishmasada shaxsning aybini isbotlovchi dalillar yetarli ekanligi hamda jinoyat ishini qaytarish bo‘yicha asoslar mavjud bo‘lmasa,

jinoyatni umumiy asoslarda ko‘rilishi degan qoidani JPKga kiritish maqsadga muvofiq.

**17.** O‘zbekiston Respublikasi JKning 57<sup>2</sup>-moddasida aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha tayinlanadigan jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida (qismida) nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning yarmidan oshmasligi kerakligi belgilangan. Jinoyat Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida (qismida) ozodlikdan mahrum qilish va bu bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ko‘rshimiz mumkin, bu esa jinoiy oqibatlar bartaraf etilgan holda chiqarilgan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlarga jazo tayinlashda ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo‘llashni inkor etadi yoki ko‘rsatilgan jazo turlarini qo‘llash bo‘yicha sud amaliyotiga qiyinchilik tug‘diradi. Fikrimizcha, **mazkur moddaga aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha tayinlanadigan sanksiyada nazarda tutilgan har qanday jazoning yarmidan oshmasligi kerakligi to‘g‘risidagi qoidani JKga kiritish maqsadga muvofiq.**

## **NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR:**

1. Конституция Республики Узбекистан – Т.: Ўзбекистон, 2021;
2. Всеобщая декларация прав человека // Международные конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью: (Сб. междунар. документов) / Сост. Ю.С.Пулатов. – Т.: Шарқ, 1995. – С. 9 – 19.
3. Международный пакт о гражданских и политических правах . Международная защита прав и свобод человека: Сб. документов. – М., 1990. – С. 32 – 53.
4. Международные конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью: Сб. междунар. документов / Сост.: Ю.С.Пулатов. - Т.: Шарқ, 1995. – 448 с.
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiliginı takomillashtirish Konsepsiysi:
6. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi;
7. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi;
8. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 2002 года (с изменениями и дополнениями от 30 декабря 2015 г.) <http://zakonbase.ru/upk/>;
9. Федеральными правилами Уголовного процесса США.  
<http://lib.sale/ugolovnyiy-protsess-uchebnik/ugolovnyiy-protsess-ssha.html>
10. Уголовно-процессуальный кодекс ФРГ.  
[http://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=31525866](http://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31525866)
11. Декларация прав человека и гражданина от 1789 г.
12. Конституция Франции от 1958 года. <http://lawyers-su.narod.ru/subjects/constzs/france.htm>
13. Уголовно-процессуальный кодекс Франции.  
<http://www.wipo.int/wipolex/ru/details.jsp?id=14295>
14. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан. – Алматы: ЮРИСТ, 2005. – 217 с.
15. Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики // Ведомости Жогорку Кенеша Кыргызской Республики. – 1999. - № 10. – С. 229-443.

## **DARSLIKLAR VA O‘QUV QO‘LLANMALAR:**

1. Лунц Л.А. Международное частное право, особенная часть. – М.: Юрид. лит., 1975.- 443с
2. Головко Л.В. Альтернативы уголовному преследованию в современном праве. СПб., 2002.– 385с
3. Фридман Л. Введение в американское право. — М., 1993.-161с
4. М.Х. Рустамбаев., Е.Н. Никифорова. Правоохранительные органы. Учебник для высших учебных заведений. Т.: ТГЮИ, 2003.– 532с
5. Хидоятов Б.Б. Дознание в Республике Узбекистан. Учебное пособие. – Т.: ТГЮИ, 2005. -105 с.
6. Хидоятов Б.Б., Раҳманова С.М., Тухташева У.А. Проблемы теории доказательств. - Т.: ТГЮИ, 2007. 128 с.
7. Иноғомжонова З.Ф. Жиноят процессида суд назорати. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮИ нашриёти. 2007. 191с.
8. Иноғомжонова З.Ф., Тўлаганова Г.З. Жиноят процесси муаммолари. Ўқув қўлланма./ ю.ф.д., проф. Абдумажидов F.А. умумий таҳрири остида–Т.: ТДЮИ. 2006. 340с.
9. Мадалиев О. Биринчи инстанция судларида жиноят иши кўрилишида прокурор иштироки. Т.: ТДЮИ. 2005. 244 с.
10. Мухитдинов Ф.М. Жиноят процесси: моҳият, мазмун, шакл. -Т.: Адолат, 2002. - 320с.
11. Рустамбаев М.Х., Тухташева У.А. Ўзбекистонда суд ҳокимияти ва суд-хукуқ ислоҳоти. Илмий-публицистик нашр. – Т.: ТДЮИ, 2009. – 559 с.
12. Уголовный процесс. Общая и Особенная части: учебник для юридических вузов и факультетов / В.В. Вандышев; Межрегиональный институт экономики и права. М.: «Контракт», 2010.– 720с.
13. Алексеева Л.Б., Жуйков В.М., Лукашук И.И. Международные нормы о правах человека и применение их судами Российской Федерации: Практическое пособие. - М., 1996. – 199 с.
14. Белкин А.Р. Теория доказывания в уголовном судопроизводстве. – М.: Норма, 2005.– 528 с.

15. Миразов Д.М. Проблемы совершенствования проверки показаний на месте. (Монография). -Т.: Академия МВД РУз., 2006.- 95 с.
16. Назаров А.Д. Влияние следственных ошибок на ошибки суда. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2003.- 323 с.
17. Пулатов Б.Х. Теоретические основы совершенствования законодательного регулирования и практики участия прокурора при рассмотрении уголовных дел в судах (Монография). – Т.: Фан, 2002.- 168 с.
18. Решетников Ф.М. Правовые системы стран мира. Справочник. – М.: Наука, 1993.- 387 с.

#### **ILMIY ADABIYOTLAR VA MAQOLALAR :**

1. Тухташева У.А., Базарова Д.Б. Упрощенное судопроизводство как форма обеспечения эффективности судебной деятельности по уголовным делам: Информационно-аналитический материал в форме брошюры. Т. : Издательство ТГЮУ, 2016.
2. Каландаров Д.Б. Национальное законодательство и зарубежный опыт в сфере упрощения уголовного судопроизводства. Статья. Т.2014.//minjust.uz
3. Нурумов Д.Д. Айбига иқрорлик тұғрисидаги битим институтини миллий қонунчиликка тадбиқ этиш масалалари. Магистрлик диссертацияси. Тошкент. 2014 ый.
4. Вальшина И.Р. История развития упрощенного производства в отечественном уголовном процессе//Журнал «Актуальные проблемы российского права». № 2/2015.
5. Трубникова, Т. В. Упрощенные судебные производства в уголовном процессе России. Автореферат. Томск,1997.
6. Кувалдина Ю.В. Предпосылки и перспективы развития компромиссных способов разрешения уголовно-правовых конфликтов в России. Диссер. ...канд. юрид. наук. Самара: СамГУ, 2011.

7. Иванов. А.А. Правовое регулирование института сделок о признании вины в США//Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2012, № 2 (1).

8. Дементьев О.М. Сделка о признании вины» – сравнительно-правовой анализ некоторых аспектов // Вопросы правоведения: Выпуск 5. Тамбов: Изд-во Тамбовского государственного технического университета, 2005.

9. Тўлаганова. Г.З. Жиноят процессида ҳимоячининг иштироки. -Т.: ТДЮИ, 2005. -168с.

10. Тўлаганова. Г.З. Жиноят процессида шахсий ҳуқуқларни чеклаш мезонлари. Монография / проф. Ф.А. Абдумажидов таҳрири остида. –Т.: ТДЮИ, 2007. -243с.

11. Stojko N.G. Criminal process Western nations and Russia: A Comparative Legal Survey theoretical Anglo-American and Roman-Germanic legal systems: monograph. SPb., 2006.

12. Курдова А.В. Практика применения ускоренного порядка рассмотрения уголовных дел судом в УПК РА (сравнительно-правовой анализ с законодательствами ряда европейских стран СНГ, США). Ереван (Армения). 2009.

13. Трубникова Т.В. Упрощенные судебные производства в УПК РФ // Материалы международной научно-практической конференции, посвященной принятию нового УПК РФ. М., 2002.

14. Антонов, А.Г. Деятельное раскаяние как основание освобождения от уголовной ответственности : автореферат дис. ... канд. юрид. наук. – Томск, 2000. – С. 19.

15. Шюнеманн Б. Соглашения в уголовном процессе? Основы, объекты и границы. Мюнхен. 2011.

16. Никифорова Е.А. Судебная власть и уголовное судопроизводство: проблемы и перспективы // Государства и право. - Ташкент, 2003. - №2(14).

17. Fisher G. Plea bargaining's triumph: a history of plea bargaining in America. Stanford, 2003.
18. Дубовик Н. Сделка о признании вины» и «особый порядок»: сравнительный анализ // Российская юстиция. 2004. № 4.
19. Евстигнеева О.В. Сделка о признании вины» –международно-правовой институт в российском правовом поле // Правовые проблемы научного прогресса. М.: Юриспруденция, 2010.
20. Евстигнеева О. В. Сделка о признании вины» - международно-правовой институт в российском правовом поле // Правовые проблемы научного прогресса : Материалы заседаний Международной школы молодых ученых-юристов. Москва, 28-30 мая 2009 г. М. :Юриспруденция, 2010.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT HAMDA JINOYAT-  
PROTSESSUAL KODEKSLARIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR  
KIRITISH TO'G'RISIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan \_\_\_\_\_ da qabul qilingan  
Senat tomonidan \_\_\_\_\_ da ma'qullangan

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 1, 3-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165-modda; 2002-yil, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 9, 171-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 314-modda, № 12, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 12, 656-modda; 2007-yil, № 4, 158, 166-moddalar, № 6, 248-modda, № 9, 416, 422-moddalar, № 12, 607-modda; 2008-yil, № 4, 187, 188, 189-moddalar, № 7, 352-modda, № 9, 485, 487, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 4, 128-modda, № 9, 329, 334, 335, 337-moddalar, № 12, 470-modda; 2010-yil, № 5, 176, 179-moddalar, № 9, 341-modda, № 12, 471, 477-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 343-modda; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda, № 9, 276-

modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 3, 47-modda, № 6, 300-modda, № 9, 506, 510-moddalar; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 218, 224-moddalar, № 7, 430-modda, № 10, 679-modda; 2019-yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 3, 161-modda, № 5, 259, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 471-modda, № 9, 592-modda, № 11, 787-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 3, 204-modda, № 7, 449-modda, № 10, 593-modda, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 14-moddalar) quyidagi mazmundagi 57<sup>2</sup>-modda quyidagi mazmundagi 2-qism bilan to‘ldirilsin:

Voyaga yetmaganlar bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo‘yicha tayinlanadigan jazoning muddati yoki miqdori ushbu Kodeks XV bobda nazarda tutilgan jazoning yarmidan oshmasligi kerak.

**2-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2013-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 2, 5-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 12, 269-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 11, 23-moddalar, № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 9, 171-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 12, 418-modda; 2006-yil, № 6, 261-modda; 2007-yil, № 4, 166-modda, № 6, 248, 249-moddalar, № 9, 422-modda, № 12, 594, 595, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 177, 187-moddalar, № 9, 482, 484, 487-moddalar, № 12, 636, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 4, 136-modda, № 9, 335-modda, № 12, 469, 470-moddalar; 2010-yil, № 6, 231-modda, № 9, 334, 336, 337, 342-moddalar, № 12, 477-modda; 2011-yil, № 4, 103, 104-moddalar, № 9, 252-modda, № 12/2, 363-modda; 2012-yil, № 1, 3-modda, № 9/2, 244-modda, № 12, 336-modda; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-

modda; 2016-yil, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 385-modda; 2017-yil, № 3, 47-modda, № 6, 300-modda, № 9, 506, 510-moddalar, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 5-moddalar, № 4, 218, 224-moddalar, № 7, 430, 431-moddalar, № 10, 679-modda; 2019-yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161-modda, № 5, 259, 267-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469-modda, № 9, 589, 592-moddalar, № 10, 671-modda, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 881, 891-moddalar; 2020-yil, № 3, 204-modda, № 5, 296-modda, № 12, 689-modda; 2021-yil, № 1, 5, 11, 13, 14-moddalar), 2022-yil quyidagi o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilsin:

1)46-moddaning:

birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ayblanuvchi: o‘zining nimada ayblanayotganligini bilish; qamoqqa olinganligi va turgan joyi to‘g‘risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoxud xabar berish; himoyachiga ega bo‘lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqtin cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, ushbu Kodeks 230-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; o‘ziga qo‘yilgan ayblov yuzasidan hamda ishning boshqa har qanday holatlari bo‘yicha ko‘rsatuvalar berish yoxud ko‘rsatuvalar berishdan bosh tortish va ko‘rsatuvalardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o‘ziga qarshi foydalanishi mumkinligi haqida xabardor bo‘lish; **aybga iqrarlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnama berish;** o‘z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o‘zining himoyalanish huquqini shaxsan o‘zi amalga oshirish; iltimosnama berish va rad qilish; dalillar taqdim etish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtiroy etish; surishtiruv yoki dastlabki tergov tamom bo‘lganidan so‘ng ishning barcha materiallari bilan tanishib chiqish hamda undan zarur ma’lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o‘z hisobidan ko‘chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma’lumotlarni o‘zga shaklda qayd etish; jinoyat ishining surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan tugatilganligiga qarshi e’tiroz bildirish hamda sud muhokamasi o‘tkazilishini talab qilish; sud tomonidan ish bo‘yicha dastlabki eshituv

o‘tkazilayotganda ishtirok etish, yarashuv to‘g‘risidagi, amnistiya aktini qo‘llash haqidagi ishlar bo‘yicha, birinchi instansiya va appellatsiya instansiyasi sudining majlislarida, sudning ruxsati bilan esa, kassatsiya instansiyasi sudining majlislarida ishtirok etish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish; sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish hamda u haqda o‘z mulohazalarini bildirish; ish bo‘yicha keltirilgan protestlar, appellatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan xabardor bo‘lish va ularga nisbatan e’tirozlar bildirish huquqiga ega”;

2) 48-moddaning:

birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Gumon qilinuvchi: o‘zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; ushlab turilganligi va turgan joyi to‘g‘risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoxud xabar berish; u amalda ushlangan yoki jinoyat joyida ushslash bilan bog‘liq tezkor-qidiruv tadbiri amalda yakunlangan yoxud uning gumon qilinuvchi deb e’tirof etilganligi to‘g‘risidagi qaror unga ma’lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo‘lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqtin cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, ushbu Kodeksning 230-moddasi ikkinci qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; ushlanganidan keyin yigirma to‘rt soatdan kechiktirmay so‘roq qilinishini talab qilish; o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to‘g‘risida ko‘rsatuvarlar berish yoxud ko‘rsatuvarlar berishdan bosh tortish va ko‘rsatuvarlardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o‘ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo‘lish; **aybga iqrarlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnama berish**; o‘z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish; o‘zining himoyalanish huquqini shaxsan o‘zi amalga oshirish; iltimosnama berish va rad qilish; dalillar taqdim etish; surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; yarashuv to‘g‘risidagi, amnistiya aktini qo‘llash haqidagi ishlar bo‘yicha sud majlislarida

ishtirok etish; surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga ega”;

3) 365-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“**Gumon qilinuvchi yoki** ayblanuvchining turgan joyi noma’lum bo‘lganda tergovchi uning turgan joyini aniqlash uchun zarur bo‘lgan barcha choralarni ko‘rishi, zarur hollarda esa, unga nisbatan qidiruv e’lon qilishi shart. Tergovchi faqat **gumon qilinuvchi yoki** ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi to‘g‘risida qaror chiqarilgan shaxsga nisbatan qidiruv e’lon qilishga haqli. Qidiruv dastlabki tergov o‘tkazilayotganida ham, shuningdek dastlabki tergov to‘xtatilganidan keyin ham e’lon qilinishi mumkin. Ushbu Kodeksning 242 va 243-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda qidirilayotgan **gumon qilinuvchi yoki** ayblanuvchi topilgan taqdirda, sudning ajrimi bilan unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasi qo‘llanilishi mumkin. Qidirilayotgan **gumon qilinuvchi yoki** ayblanuvchi ushlangan taqdirda u ushlangan joydagi prokuror ushlangan shaxsning qidirilayotgan **gumon qilinuvchi yoki** ayblanuvchi ekanligini aniqlashi va qamoqqa olish uchun qonuniy asoslar mavjudligiga ishonch hosil qilishi lozim”;

4) 586<sup>1</sup>-moddaning 1-qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv jinoyat ishini yuritishni o‘ziga nisbatan qo‘yilgan gumonga, ayblovga rozi bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol ko‘maklashgan va keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining, shuningdek, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar bo‘yicha tuziladigan kelishuvdir.

5) 586<sup>2</sup>-modda quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani surishtiruvning va dastlabki tergovning

istalgan bosqichida himoyachi, qonuniy vakil yoki katta yoshdagagi yaqin qarindoshi, pedagog va (yoki) psixolog ishtirokida berishi shart”.

#### **6) 586<sup>3</sup>-modda Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomaning prokuror tomonidan ko‘rib chiqilishi**

Aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnoma jinoyat ishini yuritayotgan surishtiruvchiga, tergovchiga taqdim etiladi.

Surishtiruvchi, tergovchi aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish to‘g‘risidagi iltimosnomani olgan paytdan e’tiboran yigirma to‘rt soat ichida jinoyat ishi materiallarini kelishuv tuzish masalasini hal qilish uchun prokurorga yuboradi.

Prokuror kelishuv tuzish to‘g‘risidagi iltimosnomani u kelib tushgan paytdan e’tiboran yetmish ikki soat ichida surishtiruvchi yoki tergovchi hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi ishtirokida ko‘rib chiqadi va ushbu Kodeksning 586<sup>1</sup>-moddasida ko‘rsatilgan talablarga rioya etilganligini tekshiradi. Zarur hollarda, prokuror jabrlanuvchini yoki fuqaroviylar da’vogarni ham kelishuv tuzish masalasini ko‘rib chiqish uchun jalb qiladi.

Prokuror kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqayotganda:

1) jinoyat ishi materiallarini va taqdim qilingan yoki talab qilib olingan qo‘sishimcha materiallarni o‘rganadi, kelishuv tuzishning asoslarini tekshiradi, shuningdek gumon qilinuvchining, ayblanuvchining kelishuv predmeti bo‘lgan harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini baholaydi;

2) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvning barcha shartlari bilan tanishgan-tanishmaganligini, iltimosnomani ixtiyoriy ravishda va o‘z xohishi bilan, shuningdek himoyachi bilan muhokama qilganidan keyin bergan-bermaganligini, unga nisbatan biron-bir tazyiq yoki majburlov o‘tkazilgan-o‘tkazilmaganligini, tuzilayotgan kelishuvning mohiyatini tushungan-tushunmaganligini aniqlaydi.

Shundan keyin prokuror, agar kelishuvga asosan hukm chiqarilib, jazo tayinlanganidan keyin

**gumon qilinuvchi, ayblanuvchi surishtiruv va dastlabki tergovda qo‘yilgan gumonni yoki ayblovni tan olmasligi, dalillarni inkor qilishi, jinoyatni tergov qilishga ko‘maklashmaganligi, jinoyat natijasida olingan mol-mulkning topilishi uchun harakatlarni amalga oshirmaganligi, jinoyatga aloqador boshqa axborotni taqdim etishga doir majburiyatlarini hamda jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar bartaraf etmaganligi va kelishuvda nazarda tutilgan boshqa shartlar va majburiyatlarni bajarmaganligi aniqlansa, hukm qayta ko‘rib chiqilishi mumkinligini aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqida iltimosnama bergen gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga tushuntiradi.**

**3-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

**4-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

**5-modda.** Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi  
O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasiga**

**TAQQOSLASH JADVALI**

<b>Amaldagi tahrir</b>	<b>Taklif etilayotgan tahrir</b>	<b>Asoslantirish</b>
<b>Jinoyat-protsessual kodeksi</b>		
